

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

O. HASANBOYEVA, G. SHOMARIBXO‘JAYEVA,
Sh. EGAMNAZAROVA, N. QAYUMOVA

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

2-nashri

UO‘K: 37.012. (075)
KBK 74.200.51
T23

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O‘quv qo‘llanma pedagogika kolleji o‘quvchilari uchun yaratilgan. O‘quv qo‘llanma orqali bo‘lajak tarbiyachilar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi Qarori va ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga bo‘lgan munosabatlari bilan tanishadilar. Shu bilan birga, o‘quv qo‘llanmada bo‘lajak tarbiyachilar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tarbiyaviy ishlar mazmuni, sinf rahbarlarining jamoa ishlarini samarali tashkil etish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyasi, oila bilan, mahalla bilan hamkorlik ishlari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ijtimoiy tarbiyaviy tashkilotlar faoliyatiga oid masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma pedagogika kolleji talabalari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, bolalarning yetakchi tashkilotlari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: **F.R. QODIROVA** — pedagogika fanlari doktori, professor; **M. TOJIYEVA** — Toshkent pedagogika kasb-hunar kolleji direktori, pedagogika fanlari nomzodi.

MUQADDIMA

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohotlar mazmuni yosh avlodni ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan. Milliy mafkura g‘oyasini hayotga tatbiq etishga qaratilgan ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlar barkamol shaxsning shakllanishida o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilari «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanidan quyidagi bilim va mahoratga ega bo‘lishadi:

- tarbiyaviy ishlar mazmuni mustaqil O‘zbekistonda munosib avlodni tarbiyalash ekanligini o‘rganib, unga amal qilish;
- sinf rahbari sifatida faoliyat olib borish malakasiga ega bo‘lish;
- bolalar jamoasini tashkil etish bosqich, tamoyil va usullarini qo‘llay bilish;
- tarbiyaviy ishlar texnologiyasining hozirgi davr axborot texnologik talablari bilan uyg‘unligini ta’minlab olish;
- oila, maktab va jamoa, sinf va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar va bolalar yetakchi tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish.

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, u amaliy va nazariy asoslarga ega. Insonning ma’naviyati va umr mazmuni ma’naviy-axloqiy jihatdan samarali tashkil etishga qaratilgan.

Har bir millatning milliy merosiga va umumiy insoniy qadriyatlarini bilan uyg‘un amalga oshiriladi. Barkamol avlod tarbiyasining mazmuni, shakl, tamoyillarni milliy istiqlol g‘oyalari bilan bog‘lagan holda o‘quvchilar qalbiga va ongiga yetkazish imkoniyati hisobga olingan.

O‘quv qo‘llanma bayonida boblarning quyidagi ketma-ketligiga e’tibor qaratildi:

- mavzu nomi;
- mavzu rejasi;
- mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar;
- mavzu bo'yicha mustaqil ish;
- foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar.

Mazkur o'quv qo'llanmani yaratishda tarbiyaviy ishlarning samaradorligidagi zamonaviy talablar hisobga olindi. Mualliflar 2009-yili A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida chop etilgan «Milliy g'oya — o'quvchi ma'naviyatining asosi» (Tuzuvchilar: J.G'. Yo'ldoshev, U.K. Musayev, H.U. Akbarov, M.Sh. Shafiyev) qo'llanmasidan foydalanishdi.

1-bob. MAKTABDAGI TARBIYAVIY ISHLARNING ASOSIY MAZMUNI VA VAZIFALARI

I. Reja.

1.1. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fani, uning maqsad va vazifalari.

1.2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi.

II. Mavzuning maqsadi.

Mazkur mavzuning maqsadi barkamol avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tubdan isloh qilish orqali bo'lajak o'quvchilarga tarbiyachilik san'ati mazmuni va uni samarali tashkil etish mahoratini egallashga qaratilgan.

III. Mavzuning vazifalari.

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning maqsadi va vazifalarini tushuntirish.

2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi fanining mazmuni va unga qo'yilgan zamonaviy talablar.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasini amalda qo'llashda o'quvchilarning vazifalarini ochib berish.

IV. Tayanch iboralar. Tarbiyaviy ish; faoliyat; milliy istiqloq g'oyasi; qadriyat; meros; sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi.

1.1. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fani, uning maqsad va vazifalari

Zamonaviy ta'lim muassasasi yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yimoqda, bunda har bir shaxsning tabiiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'lajak avlodni ijtimoiy muhofaza qilish, ya'ni ruhiy kamolotini yuksaltiruvchi muhitni yaratish, buning uchun sog'lom muhit va tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy tarkibiy qismlari:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishga xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota-ona va jamoa hamkorligida boshqaruvini ta'minlash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarga nisbatan zamonaviy talablar:

- har bir tarbiyaviy ish jarayonining maqsadi aniqligi va uni tashxis etish mumkinligi;
- dasturdagi mavzularga oid nazariy va amaliy masalalar, ular yechimidagi usullar;
- mavzudagi matnlar ketma-ketligi, zamonaviyligi, bosqichma-bosqich bayon etilishi;
- o'quvchilarni matnga nisbatan ijodiy fikrlash va munosabat bildirishga yo'naltirish;
- o'qituvchining o'quvchilardagi kasbiy, shaxsiy sifatlarini oshirish chora va tadbirlarini ko'ra bilishi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning bosh mezoni barkamol avlodning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida: «Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun, avvalo insonni tushunish, anglash kerak». Shu sababli har bir tarbiyaviy ishlar mazmunida: «Ma'naviy meros, madaniy boylik va ko'hna tarixiy yodgorliklar» eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi¹, deb ta'kidlab o'tgan.

Yoshlarni ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularga xos fazilat-larni shakllantirish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U insonning ona suti, ota-ona namunasi, avlodlarimizning axloq-odobiga doir o'g'itlari, tarbiyasi orqali amalga oshiriladi.

«Ma'naviyat» so'zining o'ziga xos ma'nosi bor. Dunyoda ma'no izlagan kishi ma'naviyat sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi. Shu sababli, mustaqil O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda uch manbadan foydalanish mumkin. Bu Prezidentimizning «Istiqlol va ma'naviyat» asarida quyidagicha ko'rsatilgan:

¹I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008, 29-bet.

1. Umuminsoniy qadriyatlar.
2. Islom ta'limoti.
3. O'zbek milliy urf-odatları.

Yuqoridagi omillar bir-biri bilan bog'langan bo'lib, u A. Avloniy aytganidek, «Agar inson yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson chiqar». Shu sababdan, A. Avloniy tarbiyaning inson hayotida zarurligini nazarda tutib, «tarbiya — yo hayot, yo mamot» deb ta'kidlagan edi.

Insonni ma'naviy barkamollik, halollik, o'zgalarning haqiga xiyonat qilmaslik, sabr-qanoatli, mehr-shafqatli bo'lish kabi fazilatlar bezaydi.

Ahmad Yassaviy nafsni tiyish, poklik bo'lmasa, «haq yo'lig'a» kirib bo'lmasligini to'g'ri ko'rsatib, insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga e'tiborni qaratdi. «Ma'naviyat» iborasi keng tushuncha bo'lib, u jamiyatshunos, axloqshunos, huquqshunos, san'atshunos olimlarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Shu jihatdan «ma'naviyat» tushunchasi turlicha ta'riflanadi: «Ma'naviyat — insonning botiniy va zohiriy xislati», «Ma'naviyat — inson qalbining nuri», «Ma'naviyat — odamning ruhiy va aqliy olamining majmuasi»ni mujassamlashtiruvchi tushuncha, deb ta'riflanadi.

Ma'naviyat — insonning asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u tarbiyaning mahsulidir. Komil inson tarbiyasi qonuniy tadrijiy rivojlanish xususiyatiga ega. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fani ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega bo'lganligi sababli uning o'ziga xos dialektik rivojlanish qonuniyatlari mavjud. Mazkur fanni o'rganish, o'zlashtirish, inson kamolotining qonuniyatlarini bilish har bir tarbiyachi, o'qituvchi uchun shartdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda munosabatlardagi qarama-qarshiliklar, tarbiyaviy ta'sirchanlikning bir yoqlamaligi, xulq-atvordagi qarama-qarshiliklar natijasida inson shakllanib rivojlanadi.

Tarbiyaviy ishlarning salohiyatini oshirish — bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qilishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

• tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealar, jamoadagi tartib-qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondashuvini *tarbiyaviy munosabatlar* deyiladi;


• tarbiyaviy tadbirlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

• tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, munosabat va muloqotda bo'lishlari, ijobiy ruhiy shart-sharoit yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil etish omillaridan biridir;

• tarbiyalanuvchilarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, fidoyilik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq. Har bir tadbirni bola ko'rsin, unda intilish hissi uyg'onsin, shu bilan birga, o'zining shaxsiy munosabatlarini bildirish imkoni vujudga kelsin;

• tarbiyaviy tadbirlarning ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tadbirlarni rejalashtirish tasodifiy holat bo'lmas-

Tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligi va dialektik qonuniyatlarni amalga oshiruvchi omillar



dan, turli fanlarning integratsiyasidan kelib chiqadigan mavzular ijobiy xarakter kasb etadi.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi fanining predmeti, bo'lajak tarbiyachi o'qituvchilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san'ati qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, mahlaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi — bo'lajak tarbiyachi o'qituvchilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilish.

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining vazifalari:

- o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi;

- tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilishi;

- ilg'or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanishi;

- tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishni takomillashtirish;

- tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tadrijiy ravishda rivojlantirish lozim.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligi uchun xizmat qiluvchi milliy manbalar.

Turkistonda milliy uyg'onishning vujudga kelishi — qonuniy zaruriyat bo'lib, uning zaminida xalqlardagi mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lish istagi yotar edi. Xalqdagi bunday istakning paydo bo'lishiga o'tmishdagi quyidagi nazariy ta'limotlar jiddiy ta'sir ko'rsatdi:

1. O'zbek xalqining mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishi natijasida o'lkadagi milliy, diniy g'oyalarning keng ro'yobga chiqishi.

2. Ma'rifatparvarlik yoki jamiyatni yangilashga intilish, jadidchilik (arabcha «yangi» ma'nosini anglatadi) harakati.

3. Ona tilimiz, uning sofligi va xorijiy so'zlar iboralaridan ozod qilish uchun kurash.

Milliy uyg'onishga doir bunday nazariy yo'nalishlarning maqsadlari quyidagicha edi:

1. Turkiston xalqlarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og'zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo'llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish.

2. Xalqimiz yaratgan milliy urf-odat va an'analarini tiklash.

3. Qur'oni Karim va Hadisi Sharifdagi inson kamoloti haqidagi g'oyalarni yoshlarga o'rgatish.

4. Ma'rifatparvar mutafakkirlar, milliy qahramonlar faoliyati, ularning asarlarini o'rganish, ilg'or tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limotlarga amal qilish.

Yuqoridagi milliy tarbiyaning nazariy asoslaridan foydalanish orqali, milliy tarbiya xalq ruhi bilan bog'lanadi. Ma'lumki, milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Rus pedagogi K.D. Ushinskiy o'zining «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida»gi asarida: «Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma odat borki, hamisha tarbiya shunga tayanishi mumkin, u ham bo'lsa, xalqning o'zi yaratgan va xalqchilik asosida qurilgan xalqning tarbiyachilik san'atiga boy merosidan foydalanish ijobiy ahamiyat kasb etadi», deb ta'kidlab o'tgan edi.

Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirishda:

1. Kasb-hunar kollejining pedagogik jamoasi ta'lim-tarbiya jarayonida sinflar bosqichida o'qituvchilar shaxsini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishlari va «Namunali o'quvchi» timsolidan nisbat olishlari va tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashda tashabbuskor bo'lishlari lozim.

2. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchi yangi tizim tashkilotchilari — pedagoglar, ota-onalar va keng jamoatchilikdir. Bolalar jamoasida o'z-o'zini boshqaruvni yo'lga qo'yish muhimdir. Shu bilan birga, tarbiyaviy ishlar jarayonida ilg'or tajribalarga suyanish, maktabdan tashqari ishlar samaradorligini oshirish.

3. Tarbiyaviy jarayon bir tomondan — ustoz, ota-onalar, o‘qituvchining ta’sirida emas, balki ijodiy va hamfikrlikdagi ta’sir bo‘lishi kerak.

4. Tarbiyaviy jarayonni tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi, oila, kollej va mahalla hamkorligida amalga oshirish.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda oqilona reja asosida maqsad va vazifalarni belgilash muhimdir. Tarbiyaviy ishlar jarayoni va tizimi boshqaruvi quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- insonparvarlik;
- uzluksizlik;
- ilmiylik;
- tizimlilik;
- muvofiqlik;
- hayotiylik;
- yosh va bilim saviyasiga moslik.

Bunday tamoyillarga amal qilish tarbiya tizimidagi faoliyat samaradorligini oshiradi. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanini o‘qitish quyidagi fanlar bilan uyg‘un amalga oshiriladi:

1. «Etnopedagogika».
2. «Pedagogika».
3. «Psixologiya».
4. «Ma’naviyat asoslari».
5. «Siyosatshunoslik».
6. «Milliy istiqloq g‘oyasi» kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan.

1.2. Sinfдан va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi

Ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllangan barkamol inson mummosi yechimi oilada, maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda beriladigan ta’lim-tarbiyasining mazmuni tizimli ravishda ma’lum bir konsepsiyaga mujassamlashtirilgan.

Konsepsiya tushunchasi har bir pedagogik texnologiya, falsafa, psixologiya, didaktik ta’lim maqsadlariga erishishning ijtimoiy-pedagogik dalillarini o‘z ichiga oladigan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishdir.

Konsepsiya — maqsadga yetishishning xomaki rejasi, mazkur

sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich konsepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi¹.

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining muhim tomoni, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni samarali tashkil qilishdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi o'qituvchilar faoliyatini yuksak saviyada tashkil etish uchun dasturulamadir.

O'zbekiston Respublikasining istiqloлга erishuvi hamda mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'lga ega bo'lishi xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan barkamol avlod yuksak tarbiyasi konsepsiyasini yaratish zaruriyati paydo bo'ldi.

Konsepsiya Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI olimlari, Respublika Ta'lim markazi mutaxassislari va Xalq ta'limi vazirligi xodimlari hamda keng jamoatchilik fikrini inobatga olib tayyorlangan. Konsepsiyada tarbiyaviy ishlarining asosiy yo'nalishlari maqsad va vazifalari yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy ma'naviy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, o'zini o'zi idora qila bilishni shakllantirish;

- o'quvchilarni Vatanning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini tarbiyalash;

- o'quvchilarning bilimdonligi va ijodiy imkoniyatlarini anglab rivojlantirish;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, millatlararo totuvlik, samimiy munosabatda bo'lish;

- shaxsni qadrlash, fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish;

- mustaqil davlatimizni ko'z qorachig'idek asrash va uning istiqbolini, istiqbolini uchun sodiqlik ko'rsatish;

- o'quvchilarda mehnatsevarlik, sog'lom turmush tarzini yaratish, erkin fikr egasi qilib tarbiyalash — tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning muhim vazifalaridir.

¹J. Hasanboyev va boshq. «Pedagogika» fanidan izohli lug'at. T., 2009, 234-bet.

Tarbiyaning asosiy tizimi:

- tarbiya — tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror, o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e‘tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat tuyg‘usini muvaffaqiyatli qaror toptirish;

- milliylikning o‘ziga xos an‘analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e‘tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkon yaratadi.

Konsepsiyada vatanparvar va baynalmilal komil inson tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasida fuqarolar birligi, millatlararo hamkorlik, yosh va mustaqil mamlakatimizning asosiy negizidir. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida shakllanish jarayonida yosh avlodni jamiyat yangilanishining mohiyatini va zarurligini tushunib yetadigan, o‘zi uchun, o‘zi yashab turgan o‘lkaning gullab-yashnashi uchun, uning taqdiri uchun, o‘zga davlat va millat vakillari bilan do‘st-birodarlikni mustahkamlash uchun javobgarlikni his qiladigan darajada tarbiyalash.

Vatanparvarlik — mustaqil O‘zbekiston uchun yanada kengroq ma’no-mazmunga ega so‘z bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda vatanparvar bo‘lish — bu iqtisodiyotimizni, mudofaamizni, barcha millat vakillarining do‘stona munosabatini o‘z bilimi, fidokorona mehnati, a’lo o‘qishi bilan mustahkamlashdan iborat.

Har bir o‘quvchi Vatan muvaffaqiyatida o‘zining shaxsiy burchi va mas’uliyatli vazifalari borligini to‘la idrok etsin. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o‘quvchilar respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o‘z inikidek qabul qiladigan bo‘lsin. Ularning og‘irligini o‘z yel-

kasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko'zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalardagi tub o'zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini anglab yetsin.

Baynalmilal tarbiya — bizning respublikamiz o'z mohiyati bilan baynalmilaldir. Shuning uchun yoshlarda baynalmilalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat va do'stona his-tuyg'ular uyg'otish, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi. Bunday his-tuyg'ularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali mukammallashib boradi. O'quvchilarning baynalmilalchilik his-tuyg'ulari asosini shakllantirishda avvaliga ayrim jumhuriyatlarda yashaydigan har bir millat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish; ular bilan yozishmalar olib borish; maxsus mashg'ulotlarda ularning urf-odatlarini, madaniyati, san'ati, tabiati to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlarni ko'rsatish, diafilmlar namoyish qilish, millat bolalari hayoti to'g'risidagi, turli millat kishilarining mehnati va turmushi haqidagi hikoyalardan o'qib berish orqali shakllanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish Konsepsiyasiga barkamol avlodga xos axloqiy sifatlarni tarbiyalashda alohida e'tibor qaratilgan.

1. Huquqiy tarbiyaga oid quyidagi bilimlarga ega bo'lish lozim:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Senati, Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va boshqa davlat boshqaruv organlarining mohiyati va ahamiyati huquqiy maqomlarining kishilar kundalik hayotida kerakligi;

— O'zbekiston Respublikasi qonunlarini muhofaza qilish muassasalarining tashkiliy tuzilishi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bolalar huquqlari Konvensiyalari haqida bilimlarga ega bo'lish kerak.

Konsepsiyada iqtisodiy, ekologik, estetik, jismoniy, mehnat-sevarlik tarbiyalarining mazmun-mohiyati, sinfdan va maktabdan

tashqari tadbirlar jarayoni, foydalanish chora-tadbirlari haqida bilim beriladi. Konsepsiyada:

- iste'dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash;
- mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;
- maktabda o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish kabi bo'limlarning mohiyati va mazmuni berilgan.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish muhimdir. Bu masalaga olimlardan J. Hasanboyev, X. To'raqulov, I. Asqarov, N. Usmonovlar «Pedagogika» darsligida «Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari»da quyidagilarga e'tibor berishgan:

- Tarbiyada yaxlit yondashuv orqali axloqiy, g'oyaviy, estetik, jismoniy, iqtisodiy tarbiyaning birligi va uni uzviy ravishda amalga oshirish.

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayoni:


- yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida chuqur bilimga ega bo'lish;
- axloqiy me'yorlarni anglash, o'zaro hurmat va adolatli bo'lish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish maqsadining aniqligi.

Barkamol shaxs tarbiyasida zamonaviy talablar asosida yondashuv. Ular:

- o'qituvchining bolalar bilan ma'naviy madaniyatning eng yaxshi namunasini izlash. Kattalar hayotiy tajribalari va shaxsiy namunalari orqali ta'sir ko'rsatish;
- o'zini o'zi anglash, tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar, hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga olib keladi.

2. *Tarbiya jarayonida ixtiyoriylik.* Tarbiyalanuvchilarda iroda, erkinliksiz tarbiya g'oyalarini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchi ma'naviyati boyitilsa, bolaga faoliyat jarayonida istak va xohish shakllariga keng o'rin berilsa, o'ylagan maqsadga erishish mumkin. Jamoatchilik bilan hamjihatlikda tarbiyaviy mashg'ulotlar ijobiy ta'sir etishi Konsepsiyada qo'yilgan vazifalarni bajarishga shart-sharoit yaratadi.

Kasb-hunar kollejlarda tarbiyaviy ishlar tizimi



NAZORAT SAVOLLARI

1. Tarbiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Tarbiyaviy ishlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar qaysilar?
3. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining maqsad va vazifalari.
4. Tarbiyaviy ishlar tizimi va uning asosiy bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
5. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
6. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
7. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasini amalga oshirishga qanday talablar qo'yilgan?



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
2. *O. Hasanboyeva*. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T., «O'qituvchi», 1996.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2001.
4. *Z. Ismoilova*. Tarbiyaviy ish metodikasi. T., «Istiqlol», 2003.
5. Ma'naviyat va ma'rifat ishi. T., 2005.
6. *J. Hasanboyev va boshq.* Pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2010.

2-bob. **TARBIYAVIY ISHLARNING MILLIY VA NAZARIY ASOSLARI**

I. Reja.

2.1. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar — tarbiya asosi.

2.2. Xalq og'zaki ijodi — bola tarbiyasida muhim vosita.

2.3. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda islom ta'limoti manbalarining tutgan o'rni.

II. Mavzuning maqsadi. Tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda xalqimizning boy merosidan foydalanish orqali bolalarda o'zligini anglash, milliy g'urur va iftixor hissini shakllantirish. Vatanimizning o'tmishi, ajdodlarimiz yaratgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganib, unga amal qilish hissini tarbiyalash.

III. Mavzuning vazifalari.

1. Xalqimizning milliy merosi va qadriyatlarining mohiyatini tushuntirish.

2. Xalq og'zaki ijodi turlari haqida bilimga ega bo'lish.

3. Islom ma'naviyatida komil inson tarbiyasi haqidagi g'oyalar mohiyatini tushuntirish.

IV. Tayanch iboralar.

Urf-odat, rasm-rusum, an'ana, meros, qadriyat, islom ma'naviyati, xalq og'zaki janrlari, folklor.

2.1. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar — tarbiya asosi

Tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligi, samaradorligi ko'p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma'naviy merosining tarixiy ildizlarini o'rganishga bog'liq. Har bir xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayotda azaliy urf-odat, marosim, an'ana tarzida o'ziga xos bir qadriyat meros sifatida namoyon bo'lib, avloddan avlodga yetib keladi.

O‘zbek millatiga xosligi uning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni muhimdir. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, etnik jihatdan va xususiyatlari bilan bog‘liq qadriyat shakllari mavjud.

«Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an‘analarini, jamiki moddiy va ma’naviy boyliklarni, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlaridir»¹.

Tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy qadriyatlarning quyidagi bosqichlaridan ketma-ket foydalanish mumkin. Ular:

- milliy qadriyat haqida tushuncha berish;
- ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy moddiy boyliklar;
- xalq og‘zaki ijodiyoti;
- urf-odat va ularning tarbiyaviy ahamiyati;
- xalq yaratgan an‘ana va marosimlarni o‘rganish va nishonlash kabilar.

Milliy qadriyatlardan foydalanish, ta’lim-tarbiya jarayoni mazmunini ochib berish o‘quvchilarda milliy g‘oya, milliy g‘urur, milliy iftixor kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

O‘zbek xalq etnografiyasida avlod-ajdodlarimiz komillikka intiluvchi har bir shaxsga nisbatan quyidagi o‘git bilan murojaat qilishgan:

O‘zbegin!

Osmoning musaffo, oilang tinch-totuv, dasturxonning to‘kin-sochin bo‘lsin, farzandlarimiz komil inson bo‘lib voyaga yetsin, har qachon bayram, to‘y-tomoshani tark etmasin. Milliy urf-odat va qadriyatlarimizga sodiq qol! An‘ana, marosim, milliy urf-odat o‘zbekning o‘zligidir!

An‘ana — tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadigan, kishilar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy hodisadir. An‘ana o‘ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singgan (umum yoki ma’lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

¹ «Pedagogika» fanidan izohli lug‘at, 324-bet.

Odat (urf-odat) — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar ko'nikmasi. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida qariyalar, kasal, o'jiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. Odat — ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, insonning fe'l-atvorida mustahkamlanib qoladi va keyinchalik doimiy qusurga aylanadi.

Marosim — inson hayotidagi muhim sanalarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qiladigan tadbir sanaladi. Masalan, ism qo'yish, nikohdan o'tish, dafn, xotirlash, ekin ekish (urug' qadash), o'rim o'rish marosimlari.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealar (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabilar) bilan bog'liq bo'ladi. Marosimlarni o'tkazishda avloddan avlodga o'tadigan, ramziy va rasmiy an'analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga, bo'layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajakni o'ylab, yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o'ziga xos tartibi (boshlanishi va nihoyalinishi) bo'ladi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an'ana ham, odat ham, marosim ham mujassamlashadi.

«An'ana», «odat», «marosim» bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim bo'lishi mumkin.

«An'ana», «marosim», «bayram» atamalari o'zgarimas tushunchalar emas. Zamon taraqqiyoti va turmushdagi o'zgarishlar ta'sirida tushunchalar mazmuni ham kengayib boradi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida talabga javob bermay qolgan an'ana va bayramlar asta-sekin unutiladi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgan an'analar taraqqiy etadi.

Masalan, «Navro‘z», «Qovun sayli», «Lola sayli» va h.k. bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun ham asrlar davomida yashab kelmoqda.

Xalq turmushining o‘zgarishi unga mos an’analarni vujudga keltiradi. O‘zbek xalqi hayotida ham yaqin yillar ichida avvaldan mavjud bo‘lmagan ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy oilaviy an’ana, marosim va bayramlar paydo bo‘ladi. Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda «an’anaviy bayramlar», «yangi an’analar» so‘zlari ishlatila boshlandi. An’anaviy bayramlar deganda, ma’lum vaqtda muntazam o‘tkazib turiladigan azaliy madaniy ommaviy tadbirlar — «Gul bayrami», «Lola sayli», «Qovun sayli», «Xirmon to‘yi» (hozirgi «Paxta bayrami») nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo‘lgan xalq bayramlaridir.

«Yangi an’analar» — hayotimizga kirib kelayotgan va joylarda endigina urf bo‘layotgan tadbirlardir.

Odatda, *bayram* deganda biron-bir muhim hodisa, voqea, sanani ko‘pchilik bo‘lib, ko‘tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. «Bayram kunlarida odamlar «qisqa» vaqtga bo‘lsa-da, o‘zlarini kundalik mehnatdan, tashvishdan, g‘am-g‘usadan, qaramlikdan, qarzdan xoli, erkin sezadilar», deydi qadimshunos M. Qodirov.

Bayramlar har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan «ko‘zgu» sanaladi. Chunonchi, kishilar bayram chog‘ida chiroyli kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashib, o‘z pazandaliklari, kiyinish madaniyatlari, go‘zallikka tashnaliklarini namoyish etishadi. Bayram kuni hamma ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi. Odamlar o‘rtasida boshqa kunlarga qaraganda muayyan darajada yaqinlik, hamkorlik, hamjihatlik vujudga keladi.

Bayram kuni azal-azaldan tinchlik kuni hisoblangan. O‘sha kuni urush, nizo va mojarolar to‘xtatilgan. Bu kunda kishilar o‘rtasidagi adovat, gina-kuduratlar unutilgan, o‘zaro arazlashganlar yarashishgan. Bayramlarda vujudga keladigan ko‘tarinki kayfiyat kishilarni ertangi kunga umid bag‘ishlashga, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi.

Bayram ijtimoiy-madaniy hayot ko‘zgusi sifatida har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarini ham keng namoyish qiladi.

«Navro‘z» bayrami

Bu tabiatning uyg‘onishi, ekin ishlarining boshlanishini nishonlashga qaratilgan bayram bo‘lib, marosimlarda qadimiy zar-dushtiylik alomatlari saqlanib qolgan.

An‘anaga ko‘ra, uylarda hozir ham xuddi qadimgidek bo‘g‘irsoq pishiriladi va marosim taomi sumalak tayyorlanadi. Bayramdan keyin, odatda, daladagi ekin ishlari boshlangan. O‘tmishda turli urf-odatlar va marosimlar bajarilar edi: dalaga chiqishdan avval ho‘kizlarning shoxlari va bo‘yinlariga moy surtilgan. Birinchi ko‘chatni mahallaning eng e‘tiborli va keksa a‘zosi ekan.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Navro‘z bayramini nishonlash davlat darajasida muhim ahamiyat kasb etadi. Rang-barang teatrlashtirilgan tomoshalarda Navro‘zning falsafiy shoirona talqini, uning xalq tarixidagi o‘rni aks ettiriladi.

Oilaviy an‘analar, bayramlar. Xalq an‘analarining muhim qismini oilaviy marosimlar tashkil qilgani uchun ularni alohida tadqiq etish ehtiyoji yuzaga keladi. O‘zbek oilalarida chaqaloq tug‘ilganidan to u ulg‘ayib, yangi oila qurguniga qadar sodir bo‘ladigan muhim sanalarga bag‘ishlangan marosimlar tizimi mavjud.

Mazkur tizimga chaqaloqning dunyoga kelishi, unga ism berish, chaqaloq chillasi, beshik to‘yi, soch to‘y, tish to‘yi, birinchi qadam, sunnat to‘yi, muchal yoshi, nikoh to‘yi kabilar kiradi. Ular yosh avlodning rivojlanishi va ma‘naviy kamol topishi, hayotda o‘z o‘rnida o‘ziga xos «ma‘naviy zina» vazifasini o‘taydi. Ular o‘zbek mentalitetining shakllanishida muhim omillardir.

Xalq bayramlarining axloqiy-tarbiyaviy tomonlariga alohida e‘tibor berish lozim. Chunki, xalq bayramlarida qadimiy va islomiy odatlar chatishib ketib, ular odamlar o‘rtasida mehr-oqibat, izzat-hurmat, qadr-qimmat, muruvvat kabi insoniy fazilatlarining ravnaq topishiga katta yordam beradi. Bayramlarning mazmuniga insoniylik, oliyanoblik, saxiylik, rahmdillik, mehr-muruvvatlilik kabi g‘oyalar singib ketgan.

Oilaviy rasm-rusumlar, marosimlar. Oilaviy marosimlar oila paydo bo‘lishi bilan vujudga kelib, vaqt o‘tishi bilan xalqning mil-

liy-ma'naviy qiyofasi, mentalitetiga mos tarzda o'zgarib, shakllana borgan. Zamon talabiga javob bermagan odat va marosimlar unutilgan. Ularning o'rnini oila ehtiyojlarini qoniqtiradigan yangi marosimlar egallagan.

Xalqimizning avloddan avlodga o'tib kelayotgan oilaviy marosimlari sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham, mustaqillikka erishilgandan so'ng ular qayta tiklana boshlandi. Bu an'ana va marosimlar to'g'risida qator kitoblar chop etildi. Bu bejiz emas. Chunki oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan odob-axloq, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadilar. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezorilar chiqmaydi. Shu boisdan xalq an'analari va oilaviy marosimlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanib, har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqealar, bosqichlar mavjudki, ular alohida e'tiborni talab etadi. Bu hodisalar o'ziga xos tantana, bayram tusini oladi. Farzandning tug'ilgan kuni va unga ism qo'yish, bolaning ilk qadam boshishi, o'g'il yoki qizning birinchi bor maktabga borishi va boshqalar har bir oila hayotida unutilmas voqealardir.

Xalqning boy ma'naviy merosining hamma ko'rinishlari xalqimizning boy merosida mujassamlashtirilgan. Har bir an'anaviy bayramlarda xalqimiz urf-odat, irim-sirim, rasm-rusumlarga ham alohida e'tibor berishadi. O'zbekistonda an'anaviy bayramlar o'ziga xosligi va ma'naviy boyligi bilan bolalar tarbiyasining muhim vositasidir.

O'quvchilarning ertalabki soatdagi bayramlarda, maktabda o'tkaziladigan ommaviy bayram tadbirlarida faol ishtirok etishi ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan ertalabki soatdagi bayramni tashkil qilish metodikasidan namuna keltiramiz.

Ertalik bayramlarini o'tkazishga pedagogik talablar

1. Ertaliklarni o'tkazishdan oldin bolalarning ruhiyatini, qiziqishini uyg'ota bilishda o'qituvchi, tarbiyachining tadbirkorligi lozim bo'ladi.

2. Ertalik ssenariysini tuzganda bolalar jamoasining tarbiyalangan darajasini hisobga olish lozim.

3. Ertalik bayramini rejalashda hamma bolalar ma'lum topshiriqqa ega bo'lishi kerak.

4. Ertalik bayramida ishtirok etadigan bolalarni ruhlantirish maqsadida ertalik bayramlari turli-tuman shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- uchrashuvli ertaliklar;
- ertakli ertaliklar;
- mavsumiy ertaliklar;
- bobolardan — bolalarga ertaliklar va boshqalar.

Ertalik bayramlarini tashkil qilish metodikasi.

Kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalashda ertalik bayramlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ertalik — bu bolalarning yoshi, ruhiy holatlarini hisobga olgan holda ertalabki soatlarda o'tkazilganligi uchun uni ertalik deymiz.

Ertalik bayramlarini tashkil qilish tartibi:

1. Mavzuning dolzarbligi.
2. Mavzuning mazmunini rejalashtirish.
3. Mavzuning maqsadi — ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.
4. Ertalik o'tkazish uchun jihozlar.
5. Ertalik oldidan uning tartibotini yozish (xalq og'zaki ijodiyotidan, bolalar yozuvchilari ijodidan namunalar keltirib, lapar, qo'shiqlardan foydalangan holda).

Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 245-maktabgacha ta'lim muassasasidagi ijodkor tarbiyachi va musiqa rahbarlari H. Akramova va S. Toshpo'latova o'tkazgan mashg'ulotlardan namunalar keltiramiz.

Mavzu: «O'zbek xalq og'zaki ijodi va bolalar folklori».

Maqsad: Bolalarni xalq ijodiyoti bilan tanishtirish.

Eh, hey!

Odamlar-u odamlar,
Bog‘da bitgan bodomlar.
Eshitmadim demanglar,
Eshitganlar jilmanglar.
«Yulduzchani» ko‘ringlar,
Bizga havas qilinglar!!!

(«Bolalar folklorining qo‘shiq va raqslari»)

Boshlovchi: Bolajonlar, kelinglar, endi hordiq chiqaramiz. Qani, yaqinroq kelinglar. Qadim zamonlarda, hali kitoblar bo‘lmagan vaqtlarda bizning ota-bobolarimiz hozirgidek mehnat qilishgan, bolalarini katta qilib, tarbiya qilishgan, beshikda yotgan bolajonlarga onalari alla aytishgan.

O‘quvchi: Nega alla aytishgan?

Boshlovchi: Rivoyat qilishlaricha («Alla» tarixidan), u o‘z o‘rnini qo‘shiqqa bergan ekan.

1. Alla bolam, allayo
Qo‘zichog‘im, allayo.
Onasining erkasi
Ovunchog‘im allayo.
Alla bolam baxtiyor
Har ishning ham vaqti bor.
Otang ketgan shikorga
Alla bolam, allayo.
2. Alla qilay quloq sol,
Alla degan so‘zimga
Erkatoyim hamisha
Nurlar to‘lsin ko‘zingga.
3. Oppoqqina qo‘lidan.
Onaginasi aylansin.
Munchoqdayin ko‘zidan
Otaginasi aylansin.

Mana shunday allani eshitib o‘sgan bolajonlar jasur, botir bo‘larkan. Keyinchalik alla o‘z o‘rnini ertakka berarkan.

Bor ekan-da yo‘q ekan,
Och ekan-da to‘q ekan.
Bo‘ri bakovul ekan,
Tulki yasovul ekan.
Qarg‘a qaqimchi ekan,
Chumchuq chaqimchi ekan.
G‘ozlar karnaychi ekan,
O‘rdak surnaychi ekan.
Toshbaqa tarozibon ekan,
Qurbaqa undan doim qarzdor ekan.

Bayramimizni yakunlaymiz.

O‘qituvchi ertalikning yakunida bayram tantanasini davom ettiradi.

2.2. Xalq og‘zaki ijodi — bola tarbiyasida muhim vosita


Xalq og‘zaki ijodi, mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, san‘atning boshqa turlaridan ajralib turadigan so‘z san‘atidir. Har bir xalqning asrlar osha o‘z orzusini aks ettirgan so‘z san‘atidir.

Og‘zaki so‘z san‘ati — «folklor» yoki «xalq poetik ijodi», «xalq og‘zaki ijodi» ma’nolarini anglatadi.

Folklor atamasi xalq og‘zaki ijodidir. Xalq og‘zaki ijodi uzoq davrdan buyon chinakam aks sado berib, tarixiy voqealarni xalq ommasiga tushuntirishga xizmat qilgan.

Xalq pedagogikasi — xalq yaratgan boy ma’naviy merosni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning qonun-qoida, tamoyillari va metodlari bilan shug‘ullanadi. Xalq og‘zaki ijodining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rnining nazariy va tarixiy asoslarini professor Z. Mirtursunov to‘plab, ilmiy ish olib borgan.

U. G‘aybullayev «Oilada farzand tarbiyasida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish metodikasi»ni asoslab bergan. X. Bobomirzayev «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi vositasida tarbiyalash», S. Nishonova, O. Musulmonova, O. Hasanboyeva kabi olimlar «Barkamol avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq merosidan foydalanish»ga oid qo‘llanmalar yaratishgan. Folklorshunos olimlar X. Razzoqov, B. Sulaymonov, T. Mirzayev, O. Sobirovlar shu sohada darslik va qo‘llanmalarni yaratganlar.



Maqol — barkamol avlodning «yaxshi» yoki «yomon» harakatlari oqibatini anglatuvchi xalq ogʻzaki ijodi turlaridan biridir.

Maqol inson tafakkuri va soʻz boyligini oshiruvchi vositadir. Har bir maqol zamirida Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, mehr-sadoqat, kamtarlik, sabr-qanoat kabi axloqiy sifatlar oʻz aksini topadi.

Tarbiyaviy ish jarayonida maqoldan foydalanish uchun, xalq maqollarini saralagan holda, «Hikmatnoma» kitobidan foydalanib:

- maqollarni mavzular xarakteriga koʻra tavsiflash (insonga mehr, Vatanga sadoqatli boʻlish kabi);
- tanlagan maqolni faqatgina oʻqib berish emas, uning mazmunini tahlil qilib, tarbiyaviy gʻoyasiga urgʻu berish;
- maqolni badiiy jihatdan toʻgʻri, izohli oʻqish;
- maqolga nisbatan oʻquvchilar munosabatini aniqlash;
- har bir maqolning maʼnosini izohlovchi oʻquvchilarni fikrlashga chorlovchi vaziyat yaratish muhim.

Masalan: Aql yoshda, bola boshdan.

* * *

Ahmoqning kulgisi koʻp,
Dangasaning uyqusi.

* * *

Ahdi borning baxti bor.

* * *

Soʻzing kumush boʻlsa,
Ishing oltin.

* * *

Iliq soʻz — shakar,
Sovuq soʻz — zahar.

* * *

Mazali soʻzga quloq charchamas.

Maqolning maʼnosini oʻquvchilar tomonidan izohlashga chorlash muhim. Tarbiyaviy ish jarayonida xalq rivoyatlaridan vosita sifatida foydalanishda xalq yaratgan «Choʻli Malik» rivoyati orqali yangi bir rivoyat (joy) bunyodga kelish tarixi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy ish jarayonida rivoyatlardan foydalanishga oid qo‘yiladigan pedagogik talablar:

- rivoyatdagi haqiqatning hozirgi davrdagi qoldirgan meros sifatida mavjudligi;
- rivoyatdagi bosh qahramonlar «shaxs», «shahar» ekanligini asoslash;
- rivoyat orqali o‘quvchilarda qanday axloqiy sifatlar mavjudligini tahlil qilish;
- o‘quvchining bilimdonligi va mahoratiga e‘tibor berish lozim.

Rivoyatlar. Shaxslarning nodir sifatлари haqida xalq yaratgan «Ibn Sino», «Qirq qiz», Abduxoliq G‘ijduvoni, Ahmad Yassaviylarning karomatlari haqida rivoyatlar to‘qishgan.

Rivoyatlar shaharlar haqida: «Cho‘li Malik», «Chor Bakir», «Dashti Karbalo» va boshqalar.

«Cho‘li Malik» rivoyati

O‘zbekiston juda katta maydonni egallagan mamlakatdir. Turli joylarga borsangiz, o‘nlab yangi atamalarni eshitasiz. Bu atamalarning o‘ziga xos tarixi bor. Ular haqida juda ko‘plab rivoyatlar yuradi. Bu rivoyatlar o‘sha joyning nega shunday atalganligi haqida ma‘lumot beradi.

O‘zbekistonda Cho‘li Malik degan joy bor. Xo‘sh, nega shunday ataladi, bilasizmi? Bilmasangiz eshiting. Qadim-qadimlarda shahri azim Buxoro xoni vaqt-vaqti bilan: «Qishloqlarimda nima gap ekan, bir bilay», deb o‘ziga qarashli qishloqlarni kezar ekan. U ovuldan bunisiga o‘tib, yomonlarning jazosini berib, yaxshilarni mukofotlarkan. Kunlardan bir kuni qishloqlarni, bekliklarni aylanib juda charchabdi. Bir joyga kelganda, shu joyga chodir tikinglar, dam olamiz, charchadim, debdi. Chodirlar tikilibdi. Amirga xos chodirga xonning o‘zi qo‘nibdi. Amaldor-u ulamolarga ham chodirlar tikilib, hamma joylashib, dam ola boshlabdi.

Xonning bir shotiri, ya‘ni jilovdori bor ekan. Uning ismi Malik ekan. U xon uxlaganda yonida, yurganida otining jilovida bo‘larkan. Xon yangi tikilgan chodirda dam ola turib, uyquga ketibdi. Malik bo‘lsa uning yonida chivin qo‘rib o‘tiribdi. Tasodifan bir chivin xonning burni ichidan chiqibdi-da, asal to‘la kosa chetida aylanib-aylanib, bir teshikka kirib ketibdi. Malikvoy qarab tursa, haligi chivin yana teshikdan chiqibdi-yu, tag‘in asal to‘la kosaning

chetidan aylanib-aylanib, yana xonning burniga intilibdi. Malikvoy qiziqsinib, «Nima bo'larkan?» deb diqqat bilan qarab tura- veribdi. Birozdan keyin boyagi holat yana takrorlanibdi. Malikvoy bu voqeani ko'rib, hayron bo'libdi. Chivin xonning burniga kirib- chiqish va asal shimirishdan aslo charchamabdi.

Malikvoy «Bu qanaqasi?» deb g'azabi qaynabdi. Chivinni tutishga ulgurolmay, ancha vaqt xunob bo'libdi. Shu payt xon uyg'onib qolibdi. Ovqat ustida xon tush ko'rganini aytibdi.

— Tushimda, — debdi xon, — saltanatimni tashlab, uzoq cho'lga chiqib ketibman. Cho'lda yura-yura bir daryoyi azimga yetibman. Daryoga uzundan uzun ko'prik solingan emish. Shu ko'prikdan narigi qirg'oqqa o'tibman-da, bir g'orga kiribman. Qa- rasam, ikkovi ham to'la tillo emish. Tillolarni olay desam, atro- fimni ilon-u chayonlar o'rab olganmish, ular tilloni oldirgani qo'ymasmish. Shunday qilib, tillolarni olmay g'ordan chiqdim-da, cho'lda yura-yura shaharga yetib keldim.

Xon so'zini tugatgach, o'tirganlardan: «Tushimning ta'birini qanday tushuntirasiz?» deb so'rabdi. Ulamolardan birovi bundoq, boshqasi undoq desa-da, xonni aslo qoniqtirmabdi.

Malikvoy chivin voqeasini eslab, «Bunda bir sir bor» debdi- yu, so'zlashga jur'at etmabdi. O'zini kasalga solibdi. Xon: «Bo'l- masa, sen shu chodirda qol-da, tuzalgach, bizning ortimizdan yetib olarsan», debdi.

Hamma kelgan tomoniga jo'nab ketibdi. Malikvoy darrov qo'liga ketmon olib, chivin kirib chiqqan teshikni kovlay boshlabdi. Haqiqatan ham, teshikning tagida ikki xum tilla bor ekan. Ilon- chayonlarni haydab yuborib, tillolarni olibdi. Hammayoqqa jar soldirib, eng yaxshi ustalarni chorlab, shu yerga shahar qurdi- ribdi. Suv chiqarib, cho'lni bo'ston qilibdi. Shu-shu bu yerni «Cho'li Malik» deb ataydigan bo'lishibdi. Bu joy hozir ham bor...

O'sh haqida afsona

Zangi ota ot-sigirlarning piri, g'amxo'r mehriboni ekan. Zangi otaning mol-hollari ko'payib, hech qayoqqa sig'may qolibdi. Bunday paytlarda uning sigirlarini qo'ng'ir buqasi boshqarar ekan. Vaqt-soati kelib, qo'ng'ir buqa qarib, podani boshqarishga kuch-

quvvati yetmay qolibdi. O‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib qolibdi. Poda esa o‘z holicha o‘tlab, olis-olislarga tarqab ketibdi.

Bir payt poda Farg‘onadan o‘tib, Andijondan ham oshib ketibdi. Xuddi shu paytda Toshkentning shundoqqina biqinida istiqomat qilayotgan Zangi ota baland ovoz bilan: «Xo‘sh, xo‘sh» deb hayqiribdi. Zangi otaning ovozi eshitgach, o‘tlab yurgan sigirlar: «Qaytmasak bo‘lmaydi, pirimizning qarg‘ishlariga qolamiz», deb orqalariga qaytibdi.

Zangi otaning hayqirig‘idan «O‘sh» degan nom qolgan ekan va u o‘sha joyning nomiga aylangan ekan.

2.3. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda islom ta‘limoti manbalarining tutgan o‘rni

VIII asrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tomonidan bosib olindi va bu yerdagi xalqlarga islom dinini zo‘rlilik bilan qabul qildirdi.

Markaziy Osiyo yerlarini egallash harakati 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlanganidan so‘ng avj oldi. U 705-yildan boshlab, Markaziy Osiyo hududiga bostirib kirib, birin-ketin Buxoro, Samarqand, So‘g‘d, Farg‘ona, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini egalladi. Arablarning yashashi uchun Afrosiyob qisman bo‘shatib berildi. Arab zodagonlari katta-katta o‘ljalar talab qilib, xalqni og‘ir ahvolga soldi. Arablarning hukmronlik siyosati, xususan, omma o‘rtasida islom dinini yoyish va unga itoat ettirishda ko‘proq namoyon bo‘ldi. Arab bosqinchilari islom dinini tarqatish uchun xalqqa har xil soliqlar solishdi. Odamlar o‘z daromadining o‘ndan bir qismini ularga soliq sifatida to‘lashga majbur bo‘lishardi.

Arablar Markaziy Osiyoda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yovuzliklarga qo‘l urishdi. Shular haqida Beruniy «Osor ul-boqiya...» nomli asarida juda ko‘p va haqqoniy ma‘lumotlarni yozib qoldirgan.

Arablar Markaziy Osiyo xalqlarini islom diniga bo‘ysundirish maqsadida ularni arab tilida o‘qish va yozishga majbur etgan, deyarli har bir xonadonda bittadan arab oilasini joylashtirgan. Bunday oilalar o‘sha xonadonda uning egasi, farzandlari arab tilini va islom dini ibodatlarini to‘la o‘rgangunicha yashagan. Arablar tashkil et-

gan masjid va madrasalarda asosan «Qur’oni Karim», «Ash Shurat», «Haftiyak», «Aqoid» kabi kitoblar mutolaa qilingan.

«Aqoid» risolasi Ahmad ibn Muhammad Abu Ja’far Tahoviy (858—933) qalamiga mansub. Tahoviy fozil zotlardan bo’lib, ilm-u ma’rifatga doir juda ko’p asarlar yaratgan. Masalan, «Ahkomul Qur’on», «Muxtasar» (islom huquqshunosligi), «Ash Shurat», «Tarix», «Ixtilof ul-ulamo», «Aqoid» va boshqalar ana shular jumlasidandir.

«Aqoid» islom asoslarini o’rgatuvchi eng muhim diniy fanlardan biridir. Bu fan orqali Ollohning zoti va sifatleri, tavhid, dunyo va oxirat to’g’risidagi islomiy ta’limot g’oyalari, gunoh va savob, jannat va do’zax, ilohiy kitoblar va payg’ambarlarga qanday munosabatda bo’lish qoidalari, xullas, har bir mo’min-musulmon uchun eng zarur diniy ma’lumotlar talqin etiladi.

«Qur’oni Karim»da ifodalangan tarbiyaviy g’oyalar

«Qur’oni Karim» mavjud dinlarning eng so’nggisi bo’lgan islom dinining asosi va dasturulamalidir. Qur’on bundan qariyb 1500 yil burun terilarga, taxtalarga, sopol parchalariga yozilib, yodda saqlangan fikrlar majmuasidir. Unda qadimiy xilma-xil rivoyatlar (islomdan oldingi diniy kitoblar «Zabur», «Tavrot» va «Injil»dan olingan ajoyib hodisalar), tarixiy voqealar, islom diniga amal qiluvchilar uchun qat’iy ko’rsatmalar, turli yo’l-yo’riqlar bayon etilgan.

Ko’pchilikka ma’lumki, «Qur’oni Karim» musulmon mamlakatlaridagi mo’minlar hayotining mazmunidir. Shunga ko’ra, «Qur’on»ning tarjimai ham xalqning ma’naviy boyligi hisoblanadi. «Qur’oni Karim» islom dinining dunyoda eng ko’p tarqalgan va eng ko’p o’qiladigan kitobidir. Uning haqida hozirgacha mingdan ortiq kitoblar, maqolalar, tafsir va tarjimalar yozilgan, jahondagi tillarning deyarli barchasiga tarjima qilingan.

«Qur’oni Karim» turli vaqtlarda turkiy (uyg’ur, turk, tatar) tillarga va nihoyat, 1990-yilda Alouddin Mansur tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.

«Qur’oni Karim» musulmonlarning hayotdagi yagona insoniylikni shakllantiruvchi yo’lboshchiga aylandi. Olloh taolo o’z

Ilm va bilimdonlik

Ilmning ofati esdan chiqarmoqlik va ilmga rag‘bati bo‘lmagan kishilarga o‘rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir.

Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to‘rt kishi uch kishidan yaxshi, ko‘pchilik bilan birga bo‘linglar. Tangri ummatlarini faqat to‘g‘ri yo‘ldan borishlikka birlashtiradi.

O‘zimdanda keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo‘rqaman:

1. Nafs-u havoga berilib, yo‘ldan ozishidan.

2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan.

3. Ilm-u ma‘rifatga ega bo‘la turib, g‘ofillarning ishini tutishdan. Garchi, Xitoyda bo‘lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo‘minga farzdir.

- Sadaqaning afzali mo‘min kishidan ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘min birodarlariga ham o‘rgatishidir.

- Tangri to‘rt toifa odamlarni yaratgandir:

1. Har kishiga Tangri ham boylik, ham ilm ato qilgan bo‘lsa, u shu boyligidan o‘zigina foydalanmay, balki qavm-qarindoshlariga ham inoyat qilib tursa va ilm sababli, Tangrining haqqini ham ado etsin, bu martabalarning eng afzalidir.

2. Kingaki faqatgina ilmga berilib, boylik ato qilinmagan bo‘lsa, «menda ham davlat bo‘lganda edi, falonchi kabi ishlar qilar edim», deb sof niyat aytsa, u shu niyati bilan saxiy boyning savobiga ega bo‘lur.

3. Agar kingaki mol-u dunyo berilib, ilm ato qilinmagan bo‘lsa, qavm-qarindoshlariga muruvvatda bo‘lmay, Tangrining haqqini ham ado etmagan bo‘lsa, bu martabalarning eng yomonidir.

4. Kingaki ilm ham, mol-u dunyo ham nasib etmagan bo‘lsa, «Molim va ilmim bo‘lganda edi, men ham falonchilar kabi yaxshi amalda bo‘lar edim» desa, bu niyati ila ular bilan savoblari barobar bo‘ladi.

- Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan ro‘zadan afzaldir.

- Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidur.

- Ilm ibodatdan afzaldir, taqvo dinni tutib turuvchi (ustun)dir.
- Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo‘lib, u foydalidir. Ikkinchisi, tildagi ilm bo‘lib, u Tangri huzurida banda zarariga dalil bo‘ladi.
- Foydali ilmlarni o‘rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so‘rab, har bir narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham istig‘for aytadilar.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Milliy urf-odat nima?
2. Milliy qadriyatga ta‘rif bering.
3. Xalq og‘zaki ijodi «folklor» atamasi mazmunini izohlang.
4. Maqol nima va uning tarbiyaviy ahamiyatini izohlang.
5. Ertaklar nima uchun tarbiya vositasi hisoblanadi?
6. Xalq qissalari haqida nimalarni bilasiz?
7. Islomdagi barkamollik g‘oyasi «Qur‘oni Karim»da qanday ifodalangan?
8. Hadis ilmi namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
9. Hadisi Sharifda insonga xos axloqiy sifatlarni tavsiflang.



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. Fuqarolik jamiyatining poydevori. T., «O‘zbekiston», 2003.
2. *I.A. Karimov*. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma‘naviyat», 2008.
3. *Z. Mirtursunov*. Xalq pedagogikasi. T., 1983.
4. *Imom Ismoil al-Buxoriy*. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). T., «O‘zbekiston», 1990.
5. Odob-axloqqa oid hadis namunalari. T., «Fan», 1990.
6. Qur‘oni Karim. T., «Cho‘lpon», 1992.
7. *O. Hasanboyeva*. Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. T., «O‘qituvchi», 1993.
8. Arba‘in. Hadis va qirq maqol. T., «Fan», 1994.
9. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O‘zbekiston», 2001.
10. *S. Nishonova*. Kamil inson tarbiyasi. T., 2002.
11. *Z. Ismoilova*. Tarbiyaviy ish metodikasi. T., «Istiqlol», 2003.

12. *U. Asqarova*. Pedagogikadan amaliy mashqlar. T., «Mehnat», 2004.
13. *O. Hasanboyeva*. Pedagogika tarixi. T., Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
14. *O. Hasanboyeva*. Pedagogika. Kasb-hunar kolleji oʻquvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlash metodikasi. T., 2005.
15. Milliy gʻoya — oʻquvchi maʼnaviyatining asosi (Tuzuvchilar: *J. Yoʻldoshev, K. Musayev, H. Akbarov, M. Shafiyev*). T., «Oʻzbekiston», 2009.
16. *K. Hoshimov*. Pedagogika va pedagogika antologiyasi. T., «Oʻqituvchi», 2010.

TOPSHIRIQ

Alisher Navoiyning «Arbaʼin. Hadis va qirq maqol» asaridan hadis bilan maqolning uzviyligini tahlil qiling.

AMALIY MASHGʻULOT

Odob-axloqiy tarbiyaga oid hadislarni tavsiflab, maxsus kartochkalarga yozing va maʼnosini izohlang.

- Texnologik kartasini tuzish.
- Hadislarni tahlil qilish.

3-bob. SINIF RAHBARI ISHINI TASHKIL ETISH METODIKASI

I. Reja.

1. Maktabda tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi.

2. Sinf rahbarining o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish metodikasi.

3. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

II. Mazkur mavzuning maqsadi. Barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirishda sinf rahbari o'z oldidagi maqsad va vazifani chuqur o'rganib, faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, bolalar tarbiyasida ijobiy ta'sir ko'rsata olish kabi bilimga ega bo'ladi.

III. Mavzuning vazifalari:

- sinf rahbari barkamol avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi islohotlardan kelib chiqib, maqsad-vazifani belgilashni tushuntirishi;

- sinf rahbari o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini bilib olishi;

- sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ish rejasini tuzishda pedagogik talablarni tushuntirish.

IV. Tayanch iboralar: sinf, rahbar, ma'naviy-ma'rifiy ish, ta'sir ko'rsatish, bola shaxsini hurmatlash, ish rejasi.

3.1. Maktabda tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi

Sinf rahbari — barkamol avlod tarbiyasiga mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Rahbarning yuksak ma'naviyati haqida mutafakkirlar o'z asarlarida alohida e'tibor berishgan. Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil shahar aholisining maslagi» asarida rahbarga xos sifatlarni quyidagicha tasvirlagan edi:

- oqil shaxs, farosatli, tabiati nozik, xotirasi mustahkam, zukko;

- ilmli-ma'rifatli, hayotdan zavq oladigan va haqiqatgo'y, adolatli, oriyat va nomusli, dunyo moliga qiziqmaydigan, tadbirkor, qat'iyatli bo'lishi lozim.

Sinf rahbari dastlab sinf jamoa a'zolari haqida keng ma'lumotga ega bo'lishi uchun tashxis o'tkazishi, kamchiliklarning oldini ola bilishi lozim.

Sinf rahbari ish faoliyati samaradorligini uning oldida qo'yilgan maqsad va vazifalarining aniqligi, tizimliliigi va uzluksizlik tamoyillariga bog'liqligi belgilaydi. Sinf rahbari to'g'ri maqsadni belgilash bilan bir qatorda vazifalarni bajarish imkonini yaratadi.

Sinf rahbari ishining maqsadi: ma'lum yuksak g'oyaviy maqsadi asosida davlat siyosati darajasidagi barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishdagi mas'uliyatidir.

Sinf rahbarining vazifalari

1. Har tomonlama barkamol shaxsni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash bo'yicha rejali ish olib boradi. O'qishga, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, o'quv yurti mulkini ko'z qorachig'idek saqlash ruhida tarbiyalash.

2. Maktabda, sinfda o'quvchilarni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o'quvchilarni tarbiyalash maqsadida o'quvchilarning talab va qiziqishlarini, uning oiladagi o'zaro munosabatlarni chuqur va har tomonlama o'rganish, erkin fikrlovchi o'quvchi shaxsini kamol toptirish.

3. O'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy va hududiy an'analarni hisobga olib, xalq pedagogikasi asosida tarbiyalash maqsadida maktabning tarbiyaviy imkoniyatlari, tevarak atrof-muhiti sharoitidan kelib chiqib ish yuritish.

3. O'quvchilarga ota-onalar va kattalarga hurmat, kamtarlik, saxiylik va saxovatlilik, insonlarga yordam berishga tayyor turish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

4. Millatlararo munosabatlarni yaxshilash uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi va o'tkazadi, milliy madaniyatni boyitish maqsadida baynalmilal tarbiyani boshqa xalq vakillari bilan hamkorlikda olib borish.

5. Istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat, ona-diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oliyanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhini o'quvchilar ongiga ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlar orqali singdirish.

6. O'quvchilarga kasbni to'g'ri tanlashlari yo'lida ish olib boradi, ularga ko'maklashadi. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishini tahliliy usulda aniqlash.

7. Yosh avlodda milliy g'oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish.

8. O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va buni bartaraf etish uchun yordam berish.

9. Milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan, islom dinining insonparvarlik falsafasi va g'oyalaridan yosh avlod tarbiyasida foydalanish samaradorligini oshirishga erishish.

10. Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarish va yangilanishlar mohiyatini yosh avlod qalbiga singdirib, uni bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirish.

11. O'quvchilar ota-onalari bilan muntazam ravishda aloqada bo'lish.

12. Sinf rahbari o'zining nazariy bilimi va pedagogik malakasi hamda mahoratini muntazam ravishda oshirib borishi.

13. Sinf jurnali va boshqa zaruriy hujjatlarning to'g'ri yuritilishini ta'minlash.

14. O'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish va intizomini yaxshilashga erishish lozim. Ularning maktab nizomi va ichki tartib-qoidalariga rioya qilish masalalarida sinf majlislari o'tkazish.

15. O'quvchilarning badiiy havaskorlik, milliy meros, sport, hunarmandchilik va boshqa to'garaklar ishlarida faol qatnashishlarini ta'minlab borish.

16. O'zi rahbarlik qilayotgan jamoada saylangan o'quvchilar yetakchisi bilan hamkorlikda ish olib borish.

17. O'quvchilarni tarbiyalashda «Oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi»ni hayotga keng tatbiq etish.

O'zbekiston Respublikasida barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosatidagi muhim masalalardan biridir.

I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim darajalarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talab-

dan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish»¹.

Prezidentimizning yuqoridagi ta'limoti sinf rahbari faoliyatini samarali tashkil qilishga ilhom beradi.

Sinf rahbari haqida milliy qadriyat va dono avlodlarimiz katta baho berishgan.

Rahbar atamasi ishbilarmon, kasbiga nisbatan mas'uliyatli, bag'ri keng, mehnatsevar, yuksak ma'naviy va axloqiy shaxsga nisbatan aytiladi.

Umumiy o'rta ta'limda tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta'sir tizimida sinf rahbari faoliyati alohida o'rin egallaydi. Shu sababli, sinf rahbari faoliyati samaradorligini oshirishga imkon beruvchi me'yoriy hujjat — Nizom O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2007-yil 20-yanvardagi 19-buyrug'i asosida taqdim etildi.

Umumiy qoidalar

Sinf rahbari uchun Nizom dasturulamal bo'lib, uning barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini tashkil etishda:

- o'qituvchilar;
- bolalar yetakchisi;
- psixolog;
- ota-onalar;
- ta'lim muassasasi maktab direktori orqali;
- voyaga yetmaganlar komissiyasi;
- mahalla;
- huquq-targ'ibot idoralari va turli ijtimoiy jamoalar bilan hamkorlik qiladi.

Boshlang'ich sinflarda sinf o'qituvchisi rahbar hisoblanadi. 5—9-sinflarda rahbarlikka tajribali, faol, o'z burch va mas'uliyatini his etadigan o'qituvchi tayinlanadi.

Nizom quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Sinf rahbarining vazifalari.
2. Ota-ona va mahalla bilan hamkorlik.

¹I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008, 61-bet.

Nizomga ko'ra sinf rahbari faoliyati yo'nalishidagi ish turlari

Sinf rahbari vazifasi	O'ta-ona va mahalla bilan hamkorlik	O'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil qilish	O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishi	Sinf rahbari huquqlari	Sinf rahbari rejasi
<p>1. Sinf rahbari bolalarning yaqin do'sti va mehribon ustoz bo'lishi.</p> <p>2. O'quvchilarning tarbiyalangan darajasini bilish.</p> <p>3. O'quvchilarni milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalash.</p> <p>4. Ona-Vatanga sadoqatli bo'lish.</p> <p>5. Bolalar jamoasini jipslashtirish.</p> <p>6. O'quvchilarda millatlararo totuvlik hissinin shakllantirish.</p> <p>7. Yuksak ma'naviyatli shaxsni har tomonlama tarbiyalashga erishish.</p>	<p>1. Bolalar oilasi va ota-onalar bilan tanishish, hamkorlik qilish.</p> <p>2. Sinf ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash.</p> <p>3. O'quvchilarning tashqi qiyofasi.</p> <p>4. Kunda o'zlashtirishni nazorat qilish.</p> <p>5. Ta'lim-tarbiyani uzviy tashkil qilishda fan o'qituvchilariga yordam ko'rsatish.</p>	<p>1. O'quvchilarning iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yordam berish</p> <p>2. Madaniy dam olish uchun shart-sharoit yaratish</p> <p>3. Turli oqimlardan saqlash</p>	<p>1. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkiloti bilan hamkorlik.</p> <p>2. «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan tashkil etilgan tadbirlarga o'quvchilarni qatnashtirish.</p>	<p>1. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish.</p> <p>2. O'quvchilarning bahoxulqini baholash, sinf majlislarini o'tkazish.</p>	<p>1. Sinf o'quvchilarni tarbiyalanganlik darajasiga ko'ra tuzish.</p> <p>2. Sinf rejasining maktab o'quvchilari tarbiya rejasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi.</p>

3. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish. Maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish.

4. O‘quvchining o‘zini o‘zi boshqarish tizimini takomillashtirish.

5. Ta‘lim muassasasi, pedagogik jamoa bilan birga ishlash.

6. Sinf rahbarining huquqlari.

7. Sinf rahbari ishlarini rejalashtirish va tashkil etish.

Nizomda berilgan bo‘limlar mazmunidagi asosiy g‘oyalarning yo‘nalishlari jadvalda berilgan.

Oliy ta‘lim tizimi talabalarining ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasida guruh rahbarlarining o‘rni beqiyosdir.

3.2. Sinf rahbarining o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish metodikasi

Tarbiyaviy ishlar sifat samaradorligini oshirishda sinf rahbarining faoliyatida har bir xatti-harakat bolalarga ibratlanish hissini uyg‘otish bilan birga, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmog‘i lozim.

Buning uchun:

- sinf rahbari faoliyatini diagnostik tahlil qilish;
- ijobiy ishlarni takomillashtirish;
- yutuqlarni rivojlantirish;
- bola shaxsini hurmatlash;
- qiyinchiliklarni bartaraf qilish, xatolarni tuzatish¹.

Pedagog olim V.A. Suxomlinskiy o‘zining «Bolalarga jonim fido» asarida bolani shod-u xurram etishga muyassar bo‘lmas ekanmiz, uning ko‘zidan chinakam xursandchilikni ko‘rmas ekanmiz, u bolalar sho‘xlik qilmas ekan, unga qandaydir tarbiyaviy ta‘sir haqida gapirishga haqqim yo‘q... har bir bola qalbining o‘z tori bor, u o‘z maqomida yangraydi... uni to‘g‘ri chala bilish tarbiyasiga bog‘liq mahoratdir»².

Sinf rahbari ish faoliyatida bolalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi uslublarni qo‘llash kerak. Usul — yunoncha atama bo‘lib, aynan nimagadir yo‘l, usul orqali maqsadga erishish yo‘lini bildiradi.

¹J. Yo‘ldoshev va boshq. Milliy g‘oya — o‘quvchi ma‘naviyatining asosi. T., 2009, 45-bet.

²O. Hasanboyeva. Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. T., 1993, 172-bet.

Sinf rahbari — adolatli bo'lishi kerak. Bu esa bola tarbiyasiga nisbatan ishonch paydo qiladi:

- buning uchun sinf rahbari har bir bolaning ma'naviy dunyosini bilishi;

- har bir inson bolalikdan mehr va hamdardlikni talab etadi. Ayniqsa, oilasida mehr va hamdardlikni ko'rmagan bolaga tarbiyachi rahbar buni berishi kerak;

- bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning asosi — boladagi qayg'u, dard-alamlarni hammadan oldin o'qituvchi rahbar bilib olishi va uning ko'nglini bilishdan iborat;

- sinf rahbari har bir bolaning oilasi bilan mustahkam aloqa o'rnatmay turib, bolaning sog'lig'i va oilaviy sog'lom muhitning mavjudligi haqida g'amxo'rlik ko'rsata olmaydi, buning uchun ot-onalar bilan suhbatda bo'lish lozim;

- sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf jamoasida olib boriladigan faoliyatini tahlil qila bilishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarning tahlili ikki qismdan iborat:

- sinf jamoasining rivojlanishi va tarbiyalanganlik darajasining o'sishi;

- o'quvchilarda yuksak odob-axloq, siyosiy, huquqiy tushunchalar, o'rtoqlik, do'stlik, jamoa uchun qayg'urish sifatlarini amaliyotda qo'llash;

- sinf jamoasining joriy yildagi maqsad, vazifalarga erishilganligi;

- sodir bo'lgan muammo va kamchiliklar sabablarining aniqlanganligi;

- jamoaning mustahkamligi va o'quvchilarda shakllangan axloqiy sifatlar darajasi;

- sinf rahbarining rejalarining umum maktabdagi tarbiyaviy ishlar bilan uyg'unligi va natijalari;

- shu tariqa yangi o'quv yili bo'yicha kamchiliklarni bartaraf etib, yangi chora-tadbirlarni rejalashtirishni sinf rahbari o'z faoliyatining bosh mahsuli deb hisoblashi kerak;

- sinf rahbarida o'zi uchun birkutilgan sinfning pasporti bo'lishi kerak.

Sinfning ijtimoiy pasporti

(20___-o'quv yili uchun)

Sinf rahbari ...

O'quvchilar soni ...

Jumladan, qizlar ...

o'g'il bolalar ...

Tug'ilgan yili: qizlar ...

o'g'il bolalar ...

Oila tarkibi:

- ko'p bolali oilalar tarkibi (soni, ismi) ...
- to'liq bo'lmagan oila ...
- homiylikka va vasiylikka olingan bolalar ...
- bobo va buvilar bilan birga yashaydigan bolalar (soni va ism-sharifi) ...

• oilada yagona farzand — soni ...

• opa-singil va aka-ukalari bor oilalar (soni va ism-sharifi) ...

Yashash sharoitlari:

• kommunal kvartira (soni) ...

• alohida kvartira ...

• mahalla, xonadon ...

• dars xonasi mavjudligi ...

Ota-onalarning ma'lumot darajasi:

• oliy _____ ota, _____ ona;

• o'rta maxsus _____ ota, _____ ona;

• o'rta _____ ota, _____ ona;

• to'liqsiz o'rta _____ ota, _____ ona;

Sinfdagi tarbiyasi og'ir bolalar soni ...

Sinfning milliy tarkibi ...

O'quvchilarning salomatlik holati ...

Turli kasalliklar bilan og'rikan bolalar soni ...

O'quvchilarning maktabdan tashqari ta'limga jalb etilganligi:

- musiqa maktabida ...
- sport seksiyasi va klublarda ...
- teatr, muzeylarda ...
- ijodiyot markazlari va turli to'garaklarga qatnashadigan bolalar soni ...

3.3. Sinf rahbari ishini rejalashtirish

Sinf rahbari faoliyatini samarali tashkil etish ko'p jihatdan o'quvchilar jamoasi faoliyatining to'g'ri rejalashtirilishiga bog'liq.

Rejalashtirish — ta'lim-tarbiya jarayoni boshqaruvida o'quv-bilim, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning ketma-ketligini belgilab olish. U tarbiyaviy jarayonni boshqaruvchi va harakatlantiruvchi vazifalarning aniqligiga bog'liq.

Sinf rahbarining ish rejasini tuzishi

Sinfda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va rahbarlik qilishda asosiy yetakchilik vazifasini sinf rahbari bajaradi.

Sinf rahbari o'quvchilarga mehribon bo'lishi, ularga diqqat bilan e'tibor berishi, yordamga muhtoj o'quvchilarga ko'mak ko'rsatishi, har bir o'quvchiga yakka holda yondasha olishi lozim. Shu asosida ularda milliy g'urur, Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik, tevarak-atrofga mehr-muhabbatli, do'stlik, har qanday topshiriqqa mas'uliyatli, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'ota olish bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi lozim.

Sinf rahbari ota-onalar bilan yaqin aloqada bo'lsa, sinfdagi o'quvchilarning faolligi oshadi.

Sinf rahbari:

- o'quvchilar bilan hamkorlikda bolalarning o'qishiga ongli munosabatda bo'ladi hamda ularning o'qishlarini nazorat etadi;

- o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridan to'g'ri foydalanishga va ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga va har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi;

- o'quvchilar bilan olib boradigan har xil tadbirlarni davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazadi;

- u o'z ish faoliyatini tasdiqlagan ish reja asosida olib boradi.

Sinf boshqaruvida ish rejasi asosiy o'rin tutadi. Ish reja qisqa, lo'nda va tushunarli holda yozilishi lozim. Unda bajariladigan tadbirlarning muddati aniq ko'rsatilishi lozim.

Ish rejasi o'quv yiliga tuzilib, shu asosda yarim yillik, choraklik, haftalik ish rejasi tuziladi.

Sinf rahbarining ish rejasida quyidagi bo'limlar bo'lishini tavsiya etamiz:

1. Sinfdagi har bir o'quvchiga tavsifnoma.

2. O'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy ish jarayonining tahlili va yangi o'quv yili vazifalari.

Bu bo'limda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- sinf o'quvchilarining bilim samaradorligining tahlili;
- sinf o'quvchilarining jamoa ishlarida faol ishtiroki (qanday yangilik bilan o'quvchi jamoa ishida ishtirok etmoqchi).

3. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari.

4. Bolalar jamoasi bilan olib boriladigan ishlar:

- vatanparvarlik va baynalmilal komil inson tarbiyasi;
- huquqiy tarbiya;
- axloqiy tarbiya;
- iqtisodiy tarbiya;
- ekologik tarbiya;
- estetik tarbiya;
- jismoniy tarbiya va sport;
- mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirish ruhida tarbiyalash.

5. Ota-ona va mahalla bilan ishlash (Oila, mahalla, maktab konsepsiyasi asosida). Bunda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- o'quvchilar oilasini o'rganish;
- ota-onalarning pedagogik yo'nalishlardan xabardorligi;
- ota-onalarning sinf jamoasi bilan hamkorlik ishlari;
- sinf ota-onalar kengashida pedagogik rahbarlik;
- ota-onalarning, sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonidan xabardorligi.

6. Tarbiyasi og'ir va pedagogik nazoratdan chetda qolgan hamda salomatligi nochor o'quvchilar bilan ishlash.

7. Fan o'qituvchilari bilan ishlash.

8. O'quvchilar to'g'risida to'liq tahlil (diagnostikasi).

9. Salomatlik va gigiyena.

10. Qiz va o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash.

11. Xalqaro faoliyat.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:

1. Vatanga muhabbat va insonparvarlik.

2. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.

3. Ma'naviy tarbiya (axloq-odob).
4. Iqtisodiy tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.
6. Go'zallik tarbiyasi.
7. Jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun).
8. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.
2. Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi.
3. Tarbiyaviy tadbirlar uzviylik qoidasiga amal qilgan bo'lishi.
4. Mavzular o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishi.

Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» dasturi O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati dasturiga mos qilib olindi. Quyida keltirilgan reja taxminiy bo'lib, o'z shart-sharoitigizga qarab, unga ijodiy o'zgarishlar kiritish mumkin.

Tarbiyaviy tadbirlar rejalaridan namunalar

Dastlabki rejaga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va zirligining «Madaniy merosga ixlos» yuzasidan tuzilgan Nizomi asos qilib olindi, u quyidagi mazmunga ega:

1. Vatan g'ururi — kamolot mulkining asosi (1—2-sinf uchun):

- a) tug'ilgan uy, ko'cha, shahar va o'simliklar tarixi;
- b) bir bolaga yetti qo'shni ota-ona ekanligi;
- d) atrof-tabiatdagi o'simliklarning nomi va uni muhofaza qilish;
- e) o'lka tarixiga oid (tarixiy obidalar, kimlar yashagan, iqtisodiy boyligi, san'ati va kelajak rejalar) ma'lumotlar;
- f) kindik qoni to'kilgan joyning tuprog'i azizligi hissini singdirish.

2. *Turmush madaniyati:*

- a) sharqona oila;
- b) ota-ona mehri, ularning borligidan faxrlanish;
- d) oilada sharqona urf-odatlar, an'analar va qonun-qoidalarga amal qilish;
- e) qariyalarning hayot yo'li tarixini o'rganish, ularning yaxshi fazilatlari bilan chuqurlashish va g'amxo'rlik qilish;
- f) turmush va bozor iqtisodiyotiga sharqona munosabat uyg'otish;
- g) jismoniy barkamollik va sport.

3. *O'zbek tilining sofligi — xalq iftixori:*

- a) har bir millatning ona tili va unga mehrli milliy g'ururining gultojisi ekanligi (xalqning maqol, rivoyat, hikoyatlaridan foydalanish);
- b) o'zbek tilining tarixi, rivoji;
- d) o'zbek tilining istiqboli;
- e) «til bilgan elni biladi» (dunyo tillarining mohiyati haqida);
- f) millatlararo totuvlik.

4. *O'zbek milliy urf-odat, rasm-rusumlar va marosimlari:*

- 1. Oilaviy urf-odatlar;
- 2. Rasm-rusumlar va ularning tarixi;
- 3. Marosimlar va ularning turlari, tarixi va mazmuni.

3—4-sinf o'quvchilari uchun Vatan g'ururi kamolot mulkinging asosi:

- a) O'zbekiston hududi va uning tarixi haqida ma'lumot;
- b) O'zbekiston o'tmishidagi shoh va xonlar, ulardagi sifatlar;
- d) O'zbekiston tabiati, hayvonot va o'simlik olami;
- e) O'tmish va mustaqil O'zbekiston istiqboli;
- f) Butun dunyo o'zbeklari nima bilan faxrlanishlari;
- g) O'zbekiston madhiyasida milliy g'urur.

Turmush madaniyati:

- a) oilaning iqtisodiy ildizi, uni boshqarishda oila a'zolarining hamjihatligi, budjet taqsimoti;
- b) oilaviy an'analar va unga nisbatan sadoqat hissi;
- d) oilaviy marosimlar. Oilaning har bir a'zosining o'rni va burchi;
- e) oila istiqboliga xiyonat qilmaslik;
- f) oila a'zolarining burchi;
- g) zamonaviy oilaning shakli, ma'naviy go'zalligi. Sharqona oila jihozi. Sog'lom gap. Sport — xonadon ko'rki.

O'zbek tili sofligi xalq iftixori:

- a) tilning tarixini o'rganish. Dastlabki turkiy tilda yozilgan asarlarni o'rganish (Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy);
- b) tilshunos olimlar bilan uchrashuv;
- d) sof o'zbek tili sirlari, til o'rganish haqida donolar hikmatlari;
- e) sharqona o'qishning ohangdorligi haqida ma'lumot berish;
- f) sharqshunoslik va til, adabiyotlar ilm maskanlariga tashrif buyurish.

Milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlar:

- a) milliy urf-odatlar kelib chiqish tarixi, unga amal qilishning ijobiy tomonlari;
- b) xalq folklori va yodgorliklarida rasm-rusum, irim-sirimlarining asoslab berilishi;
- d) turli millat xalqlarining urf-odatlari va ularga munosabat;
- e) ajdodlarimizning kiyinishi, yurish-turishiga o'zbekona munosabat bildirish. Hozirgi zamon talablari to'g'rimi?

San'at va madaniyati, me'morchiligi:

- a) san'atning sharqona ko'rinishlari. Ajdodlarimiz san'ati tarixi;
- b) san'at ustalari (o'tmish va hozir);
- d) san'at maskanlari va uning turlari;
- e) san'atga munosabat;
- f) milliy san'atning kelajagi;

g) me'morchilik tarixi. Madaniy me'morchilik koshonalariga sayohat va ularni o'rganish;

h) qo'li gul ustoz-shogirdlar hayoti va kelajagi;

i) me'morchilik ko'rinishlari (tanlab o'rganish).

Bobolardan bolalarga nasihat va pandlar:

a) o'zbek xalqining qadimiy yodgorliklari;

b) Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, G'azzoliy, Haziniylar ijodiyotida odob-axloq masalalari;

d) o'zbek shoirlarining pandlari. Zebuniso, Zavqiy, Nodira, Anbar Otin ...

e) zamonaviy shoir va shoiralalar. Uchrashuv va kechalar tashkil qilish.

O'zbekona insoniy, yuksak axloqiy sifatlar:

a) allomalarning o'g'il va qizlarga aytgan nasihatlar — hikmatlar gulshani;

b) qizlik iffati, hayosi, g'ururi;

d) oila va jamoat mehnatiga to'g'ri munosabatda bo'lish;

e) inson go'zalligini anglatuvchi belgilar;

f) «yaxshilik» va «yomonlik»ni keltiruvchi omillar, uning sabablari, obro' qozonish oson ishmi?

g) sayoq yurgan — tayoq yer;

h) bozor qilish odobi;

i) tabiat go'zalligini saqlash.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Rahbar atamasini izohlang.
2. Abu Nasr Forobiy qaysi asarida rahbarga xos fazilatlar haqida fikr yuritgan?
3. Sinf rahbari ishining maqsad va vazifalarini asoslab bering.
4. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga qo'yilgan talablarni aytib bering.
5. Sinfning ijtimoiy pasporti haqida nimalarni bildingiz?
6. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda sinf rahbarining ilmiy-metodik salohiyati nimada?



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T., «O'qituvchi», 1991.
3. *V.A. Suxomlinskiy*. Bolalarga jonim fido. T., 1993.
4. *J. Hasanboyev*. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000.
5. Milliy g'oya — o'quvchi ma'naviyatining asosi (Tuzuvchilar: *J. Yo'ldoshev, U. Musayev, H. Akbarov, M. Shafiyev*). T., A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

MUSTAQIL ISH

Xalq ta'limi vazirining 2007-yil 20-yanvardagi 19-buyrug'i 2-ilovasi «Ta'lim muassasalari sinf rahbarlari to'g'risida»gi Nizomni o'rganish. «Milliy g'oya o'quvchi ma'naviyatining asosi» kitobi (113—118-betlar).

4-bob. JAMOADA SHAXSNI TARBIYALASH

I. Reja.

1. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.
2. O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar.

3. O'qituvchilarning o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usuli.

II. *Mavzuning maqsadi.* Bo'lajak o'qituvchilarga o'quvchilar jamoasi haqida nazariy bilim berish. O'quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasini tushuntirish.

III. *Mavzuning vazifalari.*

1. O'quvchilar jamoasi, uni tashkil qilish haqida bilim berish.
2. Jamoada shaxs tarbiyalashga qo'yilgan talablar.
3. Jamoa faoliyatini tashkil etishda sinf rahbariga ma'naviy-axloqiy sifatlarni tushuntirish.
4. O'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi usullarni bilib, amalda qo'llash.

IV. *Tayanch iboralar:* jamoa; jamoani tashkil qilish bosqichlari; jamoada o'ziga xos xususiyat tamoyillari, rasmiy va norasmiy jamoa tuzilmasi; jamoa va shaxs.

4.1. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash

Jamoa so'zi lotincha «*kollektivus*» so'zining tarjimai bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jamoa — bu kishilardan iborat guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Jamoa deganda, *birinchidan*, kishilarning istalgan tashkiliy guruhi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, korxon jamoasi, xo'jalik jamoasi va h.k.), *ikkinchidan*, yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchi (tarbiyalanuvchi)larning birlashmasi o'ziga xos muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so'z yuritimiz.

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash — tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanib, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishda o'zaro birlik, uzviy maqsadga muvofiq tashkil etiladi. Shu bois jamoa hayotining bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalganligi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etib, bo'linishga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'zini o'zi boshqarish organiga ega va umum-milliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umum-milliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatlaridan biridir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhning *yagona ijtimoiy tizimini o'rnata* olishdagi usuli, ya'ni *jamoani tashkil qilish* usuli ham muhim hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-

biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi.

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissining paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatining mazmuniga, ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. *Jamoaning rasmiy tuzilishi* deganda, jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma, *bir tomondan*, jamoa a'zolari qo'shilgan ishchanlik munosabatlarni ifoda etsa, *ikkinchi tomondan*, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikrogruhini tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'ringan o'rnini egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikrogruhlar) umum-jamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina, jamoa o'zini o'zi chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhleri qanchalik ahil va inoq munosabat zaminidan tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga

moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyati faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o'rnatish lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish — pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Ayni ko'rsatkich uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi.

4.2. O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar

Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi.

Shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilib, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim hamda yangi turdagi ta'lim muassalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.


Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in, bu — sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasida o'quvchilarning asosiy faoliyati o'qishdir. Aynan sinf jamoasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shu bilan birga, sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi — bu ijtimoiy ahamiyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi pedagog tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'zini o'zi nazorat,


o'zini o'zi boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analariga ega guruh hisoblanadi.

Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari.

Yuksak darajada uyushtirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi. Ular quyidagilar:



Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida, pedagog dastlab butun guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari, jamoa a'zolariga talab qo'yadi, so'ngra butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishini talab qiladi va nihoyat, shaxs o'ziga o'zi talabni quyidagicha bayon etishi mumkin:



Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkil ko'rsatkichi sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining xulq-atvori, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoa chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtayi nazardan jamoaning shakllanishini bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini rivojlanish bosqichlariga ajratish muhimdir. Bolalar jamoasi rivojlanishning har bir ta'sir ko'rsatish shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf guruhi)dir.

Tarbiyalanuvchilar talablar qo'yilishiga e'tiborsiz qarashadi. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatni tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli, asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga, tarbiyalanuvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqish paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi ma'lumotga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi, qat'iyliги, izchilligi, murosasizlik va jamoaning barcha a'zolariga talabni bir xil qo'ya olishi asosiy omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchilik, «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsa-da, guruh a'zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur.

Jamoani shakllantirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Jamoa hayotining *birinchi bosqichida* jamoa faoliyatining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Faollarning tarkib topishi demakdir. Jamoa faoli muayyan guruhning shunday a'zolariki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qilishib, pedagog faoliyati va talabiga nisbatan xayrxohlik bilan

munosabatda bo‘lishadi. Faol pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining pedagog talabini qo‘llab-quvvatlashi hamda, o‘z navbatida, uning o‘zi bu talablarni jamoa a‘zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagog jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zlari hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali, bu ishga uni jalb etadilar. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya‘ni jamoa o‘zini o‘zi boshqarishga o‘tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatning doimiy ravishda murakkablashib borishi — mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarining o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko‘rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a‘zolarida faoliyat motivlari (rag‘batlari)ning paydo bo‘lishi, ijodiy hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarining tez sur‘atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoda mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a‘zolari o‘rtasida hurmat qozona olishi, namuna bo‘lishi, o‘z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o‘z mavqelarini suiiste‘mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o‘rinda A.S. Makarenko jamoa faoligi nisbatan «jamoa vijdoni», deya bergan ta‘rifini eslab o‘tish joizdir. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo‘lsa-da, ayni paytda uning o‘ziga ham oshirilgan talablarning qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoa rivojlanishning bu bosqichida to‘xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko‘rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina, xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to‘xtatib qolinsa, jamoa faolini guruhning boshqa a‘zolari bilan qarama-qarshi qo‘yish xavfi tug‘ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a‘zolari faol faoliyatga o‘tishi zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S. Makarenkoning aniqlashicha,

bu davrda butun jamoa «ayrim oʻzini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qoʻya boshlaydi.

Bunga endilikda faqat faollar emas, balki uning butun aʼzolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yoʻnalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin.

Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birgalikdagi faoliyatini, uning aʼzolari xatti-harakati jamoa boʻlib muhokama qilinadi. Turli mavzularda suhbatlar va maʼruzalar uyushtirilib, oʻquvchilar oʻrtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-gʻoyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy-iqtisodiy va boshqa bilimlar targʻiboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa aʼzolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa aʼzolarining oʻzaro munosabatlarini shakllantirishga taʼsir koʻrsatadigan shakl va metodlardan foydalaniladi.

Jamoa oʻzining har bir aʼzosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa aʼzolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishi sababi, uning aʼzolarining yuksak aqliy mazmunga ega boʻlgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishining samarasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida koʻrsatib oʻtilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faolligini emas, balki jamoaning har bir aʼzosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qoʻya boshlashadi.

Jamoa rivojlanishining toʻrtinchi bosqichi uning barcha aʼzolari jamoa oldida turgan talablar asosida oʻz-oʻzlariga talablar qoʻya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa aʼzolarining oʻz oldiga muayyan talab qoʻyishi bilan tavsiflanadi, ammo qoʻyilgan har bir talab oʻziga xos yoʻnalishi (masalan, oʻyindan umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish oʻrtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

Xuddi shu jihatdan toʻrtinchi bosqich jamoa aʼzolarining oʻziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qoʻya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa aʼzolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi

tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘sib o‘tadi. Biroq, bu ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o‘rnini pasaytirmaydi. To‘rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas‘uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablar qo‘yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

4.3. O‘qituvchilarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash usuli

Bugungi kunda pedagog olimlar bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilishar ekan, uni quyidagi uch bosqichga bo‘lishadi:

A. Jamoani dastlabki jipslashtirish;

B. Jamoani shakllantirish — uning har bir a‘zosini individual rivojlantirish qurolidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichini ajratib ko‘rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, shaxsning rivojlanishda jamoaning yetakchi ahamiyatini ta‘kidlaydi. Rus pedagogi A.S. Makarenko o‘zining «Pedagogik poema» asarida jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko‘rsatgan edi:

1) major — doimo tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorligi;

2) o‘z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g‘ururlanish asosida o‘z qadr-qimmatini anglash;

3) uning a‘zolari o‘rtasidagi do‘stona birlik;

4) jamoaning har bir a‘zosidagi do‘stona birlik;

5) tarbiyali, ishchan harakatga yo‘lovchi faollik;

6) o‘z hissiyot va so‘zlarni boshqara olish ko‘nikmasi.

D. Jamoani shakllantirishda jamoa a‘zolari va ularning faoliyatlariga qo‘yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab o‘quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Puxta o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o‘rnatilishini ta‘minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo'yilishi kerak.

2. Qo'yilayotgan talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

3. Qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak.

4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Pedagog o'quvchiga qo'yiladigan talablar hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak.

O'quvchilarga talablar qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam sur'atda nazorat qilib borishdan iborat.

O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi. Bunda ta'lim muassasasi direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari istiqbolli rejalar va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha, sinf majlislarida, maxsus suhbatlar uyushtirish holida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq, aksariyat hollarda ularga rioya qilishmaydi. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish — madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Nazorat haqqoniy va muntazam bo'lishi kerak. Uning natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish lozim.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faolni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir pedagogning jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolligini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi, har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoada faolni shakllantirish — jamoaning u yoki bu faoliyatga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatini tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashishni tashkil etadi.

Jamoa faoli har bir a'zo zimmasiga muayyan vazifa yuklashi, ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishishi lozim. Pedagog aynan shu faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'zini o'zi boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun bo'lishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois pedagog faolning maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishi, bu — pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarning faol ishtirok etishidir. O'zini o'zi boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analari muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari, bu — barqarorlashgan odat bo'lib, ularni jamoa a'zolari birdek qo'llab-quvvatlashadi. Jamoa an'analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

- a) kundalik faoliyat an'analari;
- b) bayram an'analari.


Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari)ni, mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tqazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'analarga turli voqea va hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash, xususan, «Alifbe bayrami», Mustaqillik, «Navro'z» bayrami, Xotira va qadrlash kuni va boshqalar kiradi.

An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analarni mohiyatini anglab, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lishsa, uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

An'analarning yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'quvchilar bolalar jamoasiga u yoki bu ortiqcha an'anani yuklamasliklari kerak. Ularning vazifasi oshkor bo'lmagan holda hamda o'quvchilar yaratish zarurligini tushuntirish, tadbirlarni uyushtirish va o'tkazishda birgalikda ish olib borish, o'quvchilarni an'analarni davom ettirishga o'rgatishdan iborat.

Jamoani tashkil etish metodikasi

Ilmiy tadqiqotlar shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi quyidagi andozada yaratilishini ta'minlaydi.





NAZORAT SAVOLLARI

1. Jamoa nima?
2. O'quvchilar jamoasining ishlab chiqarish jamoalaridan farqi nimada?
3. Jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
4. Jamoani shakllantirish bosqichlarini sanang va ularning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtaling.
5. Jamoani tashkil etish metodikasi mazmunini so'zlang.
6. Jamoa an'analari deganda nimani tushunasiz?
7. Jamoani shakllantirishda o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish usullari haqida nimalarni bildingiz?



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
2. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar Konsepsiyasi. T., 1998.
3. *J. Hasanboyev*. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000.
4. *M.B. Bekmurodov, A. Begmatov*. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. T., 2003.
5. *O. Hasanboyeva, T. Shomaribxo'jayeva*. Pedagogika. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tarbiyaviy ishga tayyorlash metodikasi. T., 2005.
6. *O. Hasanboyeva*. Barkamol avlod ma'naviyati. T., «O'zbekiston», 2010.

MUSTAQIL ISH

O'quvchilar jamoasini jipslashtirishda jamoa uchun, jamoa orqali tarbiyalash tamoyilining mohiyatini biror sinf misolida asoslab bering.

5-bob. BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI VA VOSITALARI

I. Reja.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida muhim sanalarga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish.

2. Mavsumiy ertaliklarni tashkil etishda tarbiyachi mahorati.

3. O‘quvchilar barkamolligini tarbiyalashda ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi tadbirlar ahamiyati.

4. O‘quvchilar bilan musobaqa-o‘yin tarzida uyushtiriladigan tadbirlar.

II. Mavzuning maqsadi: o‘quvchilarning tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishida shakl, usul va vositalar, tarbiya haqida bilim berish va tadbirlarni tashkil qilish mahoratini shakllantirish.

III. Mavzuning vazifalari:

• shaxs barkamolligi uchun xizmat qiladigan tarbiyaviy tadbirlarni tushuntirish;

• ertaliklarning mohiyati va tuzish texnologiyasini o‘rgatish;

• ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar va ularni tashkil qilish metodikasi haqida bilim berish.

IV. Tayanch iboralar: ertalik, munozara, uchrashuv, sayr, mavsumiy tadbirlar, bayram, festival, xalq o‘yinlari, bayram tadbirlari.

5.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida muhim sanalarga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish

Barkamol avlod tarbiyasi — sinf rahbaridan yuksak iqtidor, mas‘uliyatni talab qiladigan faoliyatdir. O‘quvchilarning yuksak ma‘naviyatli, mustaqil fikrli bo‘lishi ular uchun mo‘ljallangan

har bir tadbir o'quvchi ongiga, odobidagi xatti-harakatlarida iz qoldirmog'i lozim.

Har bir tarbiyaviy tadbir xalqimizning o'tmish avlodlari qoldirgan boy merosi, hikmatlari bilan uyg'un bo'lsa, ota-bobo va mutafakkir, ma'rifatparvar olim-u ulamolarning ruhi shod bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov barkamol avlodning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratib, 2010-yilni «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilib, uning dasturi keng jamoatchilikka taqdim etildi.


Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni sinfda tashkil etishdan maqsad:

- o'quvchilarning umumiy ma'naviy saviyasini oshirish;
- ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish;
- tarbiyaviy tadbirlarda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini ta'minlash;
- o'quvchilar dunyoqarashlarini shakllantirish kabi yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish tamoyilining shakl-usullari va vositalari

Tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi sinfning tarbiyalangan darajasiga ko'ra, tadbirlarni samaralash maqsadli-istiqbolli qilib tanlash mahoratiga ega bo'lish lozim.

Tarbiyaviy tadbirlarning shakllari:



Tarbiyaviy tadbirlarning usullari:

- soʻz orqali ifodalash (suhbat, maslahat, hikoya, ifodali oʻqish);
- namoyish qilish — axborotlashtirish (videolavhalar, multik tasmalar, kinofilmlar);
- shaxsiy namuna bilan oʻrnak koʻrsatish, oʻzining ijobiy harakatlari orqali taʼsir koʻrsatish;
- ragʻbatlantirish — oʻquvchi mehnatini toʻgʻri baholash.

Tarbiyaviy jarayonda qoʻllaniladigan vositalar. Mavjud manbalar bilan tanishish hamda taʼlim-tarbiya amaliyotini oʻrganish asosida «vosita» tushunchasini quyidagicha taʼriflash mumkin, degan xulosaga kelindi: *vosita* — bu aniq belgilangan oʻquv yoki tarbiya maqsadiga erishish, kutilgan natijani qoʻlga kiritishda ishtirokchilar (oʻqituvchi — oʻquvchi, tarbiyachi — tarbiyalanuvchi, ota-onalar — farzandlar) oʻrtasidagi oʻzaro munosabatda bogʻlovchi vazifasini oʻtaydigan qurol. Yuqorida aytib oʻtilgandek, pedagogik jarayonda qoʻllaniladigan vositalar ikki turga boʻlinadi:

1. Taʼlimiy (didaktik) vositalar.

2. Tarbiyaviy vositalar.

Tarbiyaviy vositalarning turi, garchi, yuzga yaqin boʻlsa-da, biroq ularni mohiyati, qoʻllanilish oʻrni, mavjudlik shakli va xususiyatlariga koʻra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Subyektlar namunasini ifodalovchi vositalar (xalq qahramonlari, buyuk mutafakkirlar, zamondosh qahramonlar, urush va mehnat faxriylari, ota-onalar, keksa avlod vakillari, vasiylar, oʻqituvchilar, jamoatchilik aʼzolari hamda tengdoshlarining shaxsiy namunalari, milliy qahramonlar jasorati va boshqalar).

2. Tarbiyalanuvchilarda amaliy koʻnikma va malakalarni hosil qiluvchi vositalar (turli mavzulardagi koʻrgazmalar, tanlovlar, koʻriklar, sport musobaqalari).

3. Texnik vositalar (magnitofon, video va audio tasmalar).

4. Axborot vositalari (televideniye, radio, kompyuter, Internet tarmogʻi).

5. Muayyan gʻoyalarni ifodalovchi vositalar (hadislar, taʼlimotlar, nazariyalar, shiorlar).

6. Ijodiy faoliyat mahsuli (milliy urf-odat, marosim, anʼanalari, oila, taʼlim muassasalari yoki bolalar jamoalarining anʼanalari,

badiiy ijod namunalari, oilaviy an'analar, harbiy, sport va mehnat qo'shiqlari, allomalar, buyuk sarkardalar, ilm-fan, san'at, adabiyot namoyandalarning hayotidan ibratli hikoyalar, qo'shiqlar, teatr tomoshalari, sahna ko'rinishlari, nutq).

7. Tasviriy-g'oyaviy vositalar (davlat ramzlari, devoriy gazetalar, san'at asarlari, fotomontajlar, videosujetlar, plakatlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, badiiy asarlar, ish qurollari, tabiat manzaralari).

8. Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar va ular mazmunini ifodalovchi hujjatlar (O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli vazirlik hamda idoralarning ko'rsatmalari, yo'riqnomalar, ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari, «Talabalar turar joyi»ning Nizomi, «O'quvchi (talaba)lar qoidasi», ma'naviy-ma'rifiy ishlarning kalendar ish rejasini, ijtimoiy munosabatlar).

9. Harakatli vositalar (o'yinlar, didaktik, intellektual, ishbi-larmonlik, rolli o'yinlar, sport va xalq o'yinlari).

10. Madaniy-ma'rifiy muassasalar (axborot-resurs markazlari, ta'lim muassasalari, xalq ijodiyoti markazlari, muzeylar, me'moriy obidalar, madaniyat saroyi yoki klublari va boshqalar).

11. Ijtimoiy institut va birlashmalar faoliyati («Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Kamalak» bolalar tashkiloti, to'garaklar, ilmiy jamiyatlar va h.k.lar).

Pedagogik faoliyat jarayonida ushbu vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini berish bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, ta'sirchanligini oshiradi. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqishda tarbiyaviy vositalarning mavjudligi hamda ulardan qanday hollarda foydalanish usullarini belgilab olish pedagogik faoliyatning to'g'ri tashkil etilishiga yordam beradi.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishda tashkiliy shakl va metodlar bilan birga, tarbiyaviy vositalarning ham o'rni beqiyos. Aniq belgilangan o'quv yoki tarbiya maqsadiga erishish, kutilgan natijani qo'lga kiritishda ishtirokchilar (o'qituvchi — o'quvchi, tarbiyachi — tarbiyalanuvchi, ota-ona — farzandlar) o'rtasidagi o'zaro munosabatda bog'lovchi vazifani o'taydigan qurollarning bir ko'inishi sifatida namoyon bo'luvchi

tarbiyaviy vositalar pedagogik faoliyat jarayonining samarali, tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlash bilan birga ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Bu o'rinda eng muhim shart tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilayotgan shaxs (o'qituvchi, tarbiyachi, ota-ona, vasiy) tomonidan vositalarni oqilona tanlay bilishdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tamoyilining shakl va metodikasi

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning o'ziga xos umumiy pedagogik tamoyillaridan farqli o'laroq quyidagilarni nazarda tutish muhim:

1. Tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy yo'naltirilgan tamoyili. Tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'lganligi sababli, har bir tarbiyaviy tadbirni davlatimiz siyosati, qonun, qarorlari, me'yoriy hujjatlar bilan uyg'unlashtirish. Ayniqsa, ijtimoiy turmush tarzida mazmunli, ijtimoiy mehnatga munosabatlarni to'la aks ettirish lozim.

2. Tarbiya jarayonini mustaqil O'zbekistondagi bunyodkorlik bilan uyg'unlashtirish tamoyili. Tarbiyaviy tadbirlar mazmunini kundalik axborotlar, video tasmlari, obidalar, qurilishlar, bozor munosabatlaridagi o'zgarishlar bilan bog'lash.

3. Tarbiyaviy ishlar jarayonini insonparvarlik ruhida tashkil etish va o'quvchilardagi ijobiy sifatlarni rivojlantirish tamoyili.

4. Pedagoglikning parallel ta'sir etish tamoyili. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Bolaning oila, ota-ona, o'rtoqlari va jamoatning ta'siridagi holati, xarakter xususiyatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyaviy ishlar tamoyillaridan ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar shakl va metodlariga bog'liq. Bog'chada tarbiyaviy ishlar ko'proq mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning katta guruhida mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berish bilan bir qatorda, ularning sinfdan va maktabdan tashqari

faoliyatini tashkil qilish, barkamol insonni tarbiyalashdagi madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshiradi.

Bolalarda axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan metodlar: tarbiyaviy tadbirlarning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo'lish: tarbiyaviy ishlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishini yaxlit amalga oshirishdan iborat.

Bolalarda materiallarning rang-barangligi, qiziqarli, hayotiy bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmuni, shakli va usullarining birligini ta'minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati — ta'lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshirishga bog'liq.

Maktab yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda, metod tanlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

1. Bolada shakllanishi lozim bo'lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga;

2. Yoshi, ruhiyatiga, aql-zakovatiga, ma'naviy dunyosi va faoliyatiga ta'sir etishga ko'maklashuvchi bo'lishga;

3. Yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashtirishga;

4. Tarbiyaviy ta'sir etuvchi usul, metodlar kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida tarbiya vositasi hisoblangan — xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol, naql, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an'ana, teatr, amaliy san'atdan foydalanishga.

Ajdodlarimiz madaniy merosimiz — pandnomalar, bitiklar, yozma yodgorliklar, xalq kitoblari, urf-odat, bayramlar orqali o'z metodlarini amalga oshirishda foydalanishgan. Bu metodlar quyidagilar:

- har bir ishda kattalarning shaxsiy namunasi;
- pand-nasihat qilish, suhbat o'tkazish;
- o'yin va mashq;
- rag'batlantirish, tabassum, iljayish, barakallo, yaxshi va boshqalar;
- o'rgatish va tushuntirish;
- jazolash.

Yuqoridagi tarbiya metodlari xalq orasida kundalik hayotda qo'llanilib, u yo' ijobiy, yo' salbiy ta'sirga egadir. Bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda yuqoridagi metodlardan kompleks shaklda foydalanish hayot taqozosidir.

Tarbiya metodlaridan bogʻcha va maktabda oʻtkaziladigan turli ish shakllarida foydalaniladi: axloqiy mavzudagi suhbatlar, oʻyin, ertalik bayramlari, munozara, oʻtkir zehnlilar mushoirasi, bayram, marosimlar.

5.2. Mavsumiy ertaliklarni tashkil etishda tarbiyachi mahorati

Ertaliklar maxsus maqsadga qaratilgan tadbir boʻlib, oʻqituvchining tarbiyaviy rejasi asosida tashkil etiladi. Ertalikning tuzilishidagi asosiy bosqichlar:

Mavzu: mavzudan koʻzlangan maqsad — tarbiyaviy, rivojlan-tiruvchi ertalikni olib borishda tanlangan kompleks metodlar: tushuntirish, oʻyin, mashq.

Ertalikning jihozi: koʻrgazma, rasm.

Ertalikning borishi: uch qismdan iborat:

1. Kirish.
2. Oʻquvchilarning bilim saviyasi va tarbiyasiga taʼsir koʻrsatish.
3. Ertalik yakuni: ertalik natijasini aniqlovchi ish faoliyati (savol-javob, oʻquvchining mavzu mazmunidagi munosabati, sinf hayotidagi ruhiy oʻzgarishlar).

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar uchun oʻtkaziladigan suhbatlar mazmuniga koʻra, 10—15, 20—25 daqiqani qamrab olishi lozim.

Ertaliklarni yuqori saviyada tashkil qilishda oʻqituvchi quyidagi madaniyat qirralariga ega boʻlishi kerak:

1. Ruhiyat madaniyati — bolalarning maʼnaviy ehtiyojlariga toʻgʻri taʼsir koʻrsatish.

2. Siyosiy madaniyat — davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega boʻlish.

3. Maʼnaviy madaniyat — yaxshi oʻquvchilarning ijodiy, maʼnaviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish.

4. Mahorat madaniyati — har bir tadbirni zoʻr quvonch va qalbdan tashkil qilishdan iborat.

Ertaliklarni sinfda, bogʻchada, mahallalarda oʻquvchi va ot-onalar bilan hamkorlikda oʻtkazish mumkin.

Axloqiy mavzudagi ertaliklardan namunalar keltiramiz.

*Mashg'ulot mavzusi: «Mustaqillik va ezgulik monumenti»
surati ustida suhbat*

Maqsad: Bolalarda ona-yurtga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish. Bolalarga Toshkent — mamlakatimizning poytaxti ekanligi, Toshkent shahriga barchaning mehr-muhabbatini uyg'otish. Istiqlol yillarida Mustaqillik maydonidagi o'zgarishlar haqida so'zlash. «Baxtiyor ona» haykali haqida so'zlab berish bilan, uning o'ziga xos ma'nosini bolalarga tushuntira olish.

Mashg'ulotga kerakli jihozlar: surat, videolavha.

Suhbatning borishi:

O'qituvchi: Bolajonlar, hozir o'lkamizda qanday fasl?

O'quvchi: Bahor fasli.

O'qituvchi: Biz qayerda yashaymiz?

O'quvchi: Mustaqil O'zbekistonda.

O'qituvchi: O'zbekistonni kim boshqaradi?

O'quvchi: Islom Abdug'aniyevich Karimov.

O'qituvchi: Bolajonlar, madhiyani kim yozgan?

O'quvchi: A. Oripov she'ri, M. Burhonov musiqasi. (Bolalar madhiyani ijro etadilar.)

O'qituvchi: Yaxshi, bolalar, madhiyamizni ijro etayotganingizda sizlarning ko'nglingizdan nimalar kechadi?

Madhiyamizni ijro etgan bolalar ichki kechinmalarini so'zlab beradilar.

O'qituvchi: O'zbekiston nurli bo'ston,
Noming seni tilda doston,
Jahon ichra yagonasan
Xalqing ulug', mardonasan.

O'qituvchi: Vatan degani nima o'zi?

1-bola: Vatan — bu mening onam.

2-bola: Vatan — bu mening uyim.

3-bola: Vatan — bu mening mahallam.

4-bola: Vatan — bu mening bog'cham.

5-bola: Vatan — bu mening shahrim.

O'qituvchi suhbatni davom ettiradi:

Bolalar, istiqlool yillarida poytaxtimizdagi Mustaqillik maydoni betakror qiyofa kasb etdi. Bu maydonda Prezident I.A. Karimovning tashabbusi bilan misli ko‘rilmagan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Davlatimiz rahbari Mustaqillik maydoni — aziz mamlakatimizning muqaddas timsoli ekanligini ko‘p bor ta’kidlaganlar. Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoni — iftixor maydoni. O‘zbek xalqining mushtarak orzu-umidlari, ezgu istaklari va milliy bunyodkorlik amallarining ramziy timsollarini namoyon etgan maskan bu. Undagi har bir me’moriy namunalar o‘ziga xos ma’noni bildiradi.

Bugun biz siz bilan mustaqillik maydonidagi «Mustaqillik va ezgulik monumenti» surati ustida suhbatlashamiz. Monumentdagi «Baxtiyor ona» haykaliga diqqat bilan qarang. Bu aziz go‘shadagi baxtiyor ona siymosi ham xalqimizning onalarimizga bo‘lgan mehr-u muhabbat, bolajon xalq ekanligimizning ramziy ifodasidir. Onaning munis chehrasi, o‘zbekona libosi, ma’noli nigohi. Suratga diqqat bilan qarang. Bolasini sevinch nigohi bilan quchib turgan ona, unga dunyodagi yaxshi niyatlarni tilaydi. Yurtga, Yurtboshimizga sodiq, ota-onaga mehribon va do‘stga qadrdon bo‘lib ulg‘ayishini tilayotganini kuzatamiz. Bolalar, ona haykaliga qarab onangizni esladingizmi?

Onalarimiz bizga mehribon, onalar mehrini hech qanday dori-darmon bosa olmaydi. Ona uchun farzand aziz, farzanddan shirini yo‘q.

Onalarni qanchalik ulug‘lasak, biz oilamizni, Vatanimizni e‘zozlagan bo‘lamiz. Vatanni onaga qiyoslab ona-Vatan deymiz. Dunyoda onadek buyuk zot bormikan?

Aqlli, dono farzand bo‘laman degan bola ota-onasini hurmat qilishi kerak. Chunki farzand ota-onalar orzusi, quvonchi, baxti. Har bir ota-ona o‘z farzandiga sog‘liq tilaydi, uning baxtli bo‘lishini orzu qiladi. Xo‘sh, biz onalarimizni qanday qadrlaymiz? (Onalarimizga salom berishni kanda qilmaslik, barcha so‘zlarini qunt bilan tinglash. Ularni hurmat bilan o‘rnidan turib qarshi olish, kuzatish, qilayotgan ishlariga ko‘maklashish, ularni mutlaqo ranjitmaslik, ularga doimo rahmat keltirish.) Suratga diqqat bilan qarang, sizningcha, ona o‘z bolasiga qanday tilaklarni ayt-yapti? (O‘qituvchi bolalar bilan surat asosida suhbatlashib, ularning fikrini umumlashtiradi.)

O‘qituvchi:

Maydon maftun etdi ko‘plarni g‘oyat,
Bu joyda aytildi qancha rivoyat.
Bir kun ona-bola kirib keldi-yu,
Maydon egasini topdi nihoyat.

A. Oripov

O‘qituvchi: Kelinglar, endi qolganini sayrda davom ettiramiz.

* * *

Ertalik mavzusi: «MEHMONDO‘STLIK» (Toshkent shahridagi 4-maktab ish tajribasidan).

Ertalik maqsadi: o‘quvchilarda mehmon kutish odobi haqida bilim, malaka hosil qilish va sehrli so‘zlar ma’nosini tushuntirish. Tadbirni o‘tkazish jarayonida bolalarda mavjud bo‘lgan ahillik, do‘stlik, mehribonlik, xushmuomalalik tushunchalarini rivojlantirish lozim.

Ertalik jarayonida qo‘llaniladigan usullar: jonli so‘z, o‘rgatish, tushuntirish, pand-nasihat kabi bo‘lishi mumkin.

Ertalikka tayyorgarlik va jihozlash: suhbatni uyushtirishdan oldin quyidagi tayyorgarlik ishlari ko‘rildi: ikki-uch o‘quvchiga mehmon va mehmondo‘stlik haqidagi she‘r, maqol va hikoyalarni o‘qib, uni o‘rganish vazifasi beriladi.

Suhbatning rejasi tuzilib, suhbat o‘tkaziladigan joy: mahalla yoki klub belgilanadi. Tadbir o‘tkaziladigan joy:

- Yo‘qcha guruch osh bo‘lur,
Mehmon ko‘ngli shod bo‘lur.

* * *

- Mehmon kelar eshikdan,
Rizqi kelar teshikdan.

* * *

- Mehmon otangdan ulug‘.

* * *

- Mehmonga osh qo‘y,
Ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y,

kabi hikmatli soʻzlar bilan chiroyli qilib bezatiladi. Bino eshigiga «Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!» shiori ham yozib qoʻyilgan. Bir necha oʻquvchilar mehmonlarni ochiq chehra bilan kutib olishadi.

Suhbatni kirish soʻzi bilan Ziroat opa ochadi. «Hurmatli bolalar va aziz ota-onalar, dedi Ziroat opa mehmonlarga qarata, mehmondoʻstlik oʻzbek xalqiga xos boʻlgan fazilatlaridan biridir. Oʻzbek xalqi qadim-qadimdan uyiga kelgan qon-qarindosh, tanish-bilish va oʻrtoq-doʻstlarini ochiq chehra bilan kutib, ularning koʻnglini xushnud qilishgan. Shu anʼanalarni bizning ota-bobolarimiz davom ettirishadi. Mana bugun biz ham ana shu anʼanaga amal qilib, bu yerga toʻplandik. Biz mezbon boʻlib, mehmonlarimizga jon-u dilimiz bilan izzat-hurmatda boʻlamiz.

Soʻngra soʻzini 2-«b» sinf oʻqituvchisi Xolisxon opaga beradi. Xolisxon opa yigʻilganlarga mehmon va uning kutib olinishi haqida quyidagilarni gapirib beradi:

Xalqimiz «Mehmon oldida mushugingni ham pisht dema» naqliga amal qilib kelgan. Mehmonni «Xush kelibsiz», «bosh ustiga» degan soʻzlar bilan kutib olish lozimdir. Uyingizga kelgan mehmonni ochiq chehra, xush tabassum bilan kutib olish har bir oila aʼzosining muqaddas burchidir.

Bu ish barcha oila aʼzolarining ahillikdagi mehnati tufayli bajariladi. Agar oilaning hamma aʼzolari bir-biriga oʻzaro yordam berib, ahillik bilan mehmon kutishsa, u holda hamma ish joyida boʻladi. Mehmon mezbondan xursand boʻlib, uyiga qaytadi.

Shundan soʻng Ziroat opa: «Qani, kim mehmondoʻstlik haqidagi sheʼrlardan aytib beradi?», deb oʻquvchilarga murojaat qiladi.

Bir necha oʻquvchi yoddan sheʼrlar oʻqib beradilar:

«Mehmon» soʻzi bizga aziz,
Doʻst mehribon.
Boʻlsa tez-tez mehmon kutish,
Yaxshi qanday.
Dasturxonda mehmon soʻzi
Tugʻishganday
Shundanmikin mehmonlarni
Xush koʻrdik,
Uyga mehmon kelmay qolsa

Chiroyli konfetlarga,
Toʻlib ketdi dasturxon.
Yana ancha mehmonlar,
Kelishardi biz tomon.
Dasturxonga gul yasab,
Qoʻydik turli qogʻozdan.
Choy qaynatib barchaga,
Quyib berdik oz-ozdan...

Yana bir necha she'rlar o'qilgandan keyin o'qituvchi so'zni mehmonlarga beradi. Mehmonlardan shu mahallada yashovchi qahramon ona Mashhuraxon Ro'ziyeva quyidagilarni gapirib berdi: «Aziz bolalarim, mehmon bizning eng hurmatli odamimiz hisoblanadi, agar biznikiga mehmon kelsa, butun oila a'zolarimiz uning xizmatiga tayyor turamiz. Men ovqatga urinsam, nabiram Ozoda sabzi-piyoz to'g'raydi, ikkinchi nabiram Homit go'sht bo'laklaydi, uchinchi Hosil esa suv keltirib, o'choqqa olov yoqib beradi. Shunday qilib, mehmon uchun atalgan palovimiz tez tayyor bo'ladi. Chunki biz hammamiz ahillik bilan bir-birimizga yordam berib ishladik-da! Hurmatli bolalar, agar sizlar ham uyingizga mehmon kelganda ota-onalaringizga ahil bo'lib yordam bersangiz, u holda mehmonlaringizni yaxshi kutib olgan, ko'nglini xushnud qilgan bo'lasiz».

Shundan so'ng o'qituvchi: «Qani, kim uyiga mehmon kelganda qanday xizmat qilishi haqida gapirib beradi?» deb o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi. Bu savolga bir necha o'quvchi javob beradi. Quyida ba'zi o'quvchilarning javobidan namunalar keltiramiz:

— «Bizning uyimizga mehmon kelsa, bayram bo'lib ketadi. Biz juda xursand bo'lamiz. Men mehmonni intizor qilib qo'ymaslik uchun oyimga yordam beraman va ukalarimga qarayman».

— «Mehmon kelganda men darrov qo'liga suv quyib, oyoq kiyimlarini to'g'rilab, changlarini artib qo'yaman».

— «Bizning qo'shnimiznikiga mehmon kelsa, bolalari ko'chaga o'ynagani chiqib ketishadi. Oyisi yolg'iz o'zlari hamma ishni qiynalib bajarishadi. Ularning uyida mehmon uchun taomlar ham tez tayyor bo'lmaydi».

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi: «Mehmon kutish juda yaxshi odat. Mehmon kelganda, odam juda xursand bo'ladi. Mehmonning ko'ngli juda nozik, shuning uchun mehmonni ochiq chehra bilan kutib olmoq lozim. Hozir Vali aytganidek, uyga mehmon kelsa-yu, bolalar hamma ishni tashlab, ko'chaga o'ynash uchun chiqib ketsa yaxshi bo'ladimi? Yo'q, albatta.

Shuning uchun uyimizga mehmon kelganda, biz oyimiz, dadamiz va ukalarimiz bilan birgalashib, xizmat qilsak, tahsinlarga sazovor bo'lamiz». Suhbat oxirida o'qituvchi: «Bolalar, qani kim

ahil jamoa mehnati haqida maqol va she'rlardan aytib beradi?» deb o'quvchilarga murojaat qiladi. O'quvchilar biroz o'ylanib olishgach, javob berishadi.

Quyida ana shunday javoblardan namunalar keltiramiz.

- Kuch — birlikda.
- Yakka otning changi chiqmas,
Changi chiqsa ham dong'i chiqmas.
- Parokanda lashkar ishga yaramas,
Yuzta ahil lashkar 100 mingtaga bas.
- Ahil bo'lsa, olov ichra ham inson,
Ahil kishilarga olov ham oson.

Yuqoridagi kabi mahalla bolalari va ota-onalar birgalikda Quddus Muhammadiyning «Bir mayizni qirq bo'lib yeganlar» she'ri asosida ham axloqiy suhbat o'tkazishlari mumkin.

Suhbatning asosiy maqsadi: o'quvchilarda ahillik, do'stlik va hamjihatlikni tarbiyalash. Quyida ana shu mavzudagi suhbatni o'tkazish metodikasini bayon etamiz.

Suhbat mazmunini bolalar ongiga yetkazish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozimdir:

1. «Bir mayizni qirq bo'lib yeganlar» maqolining kelib chiqish tarixini tushuntirish. Bunda o'qituvchi quyidagi misralarni o'qib berib, uning mazmunini so'zlab berishi mumkin.

O'qituvchi: Bir mayizni qirq bo'lib,
Yeng deyishgan bobolar.
Bobolarimiz so'ziga
Qiziqishar bolalar.
Qirq og'ayni ham bo'ldik,
Qirq tan-u jon bo'ldik.
Bir mayizni qirqqa bo'ldik,
Mayiz qirqqa bo'lingach,
Ko'zga, qo'lga ilinmas
Bobolar qanday bo'lgan
Og'zida ham bilinmas
Bobolar qanday degan.
Buni o'ylab topaylik
Maqol mag'zini chaqaylik.

O'quvchilarga maqolning mag'zi va asl mohiyatini tushuntirish uchun keltirilgan she'rlar davomini o'quvchilarga o'qitib va mazmunini so'zlatib, uni o'quvchilar hayoti bilan bog'lash kerak. So'ngra o'qituvchi bir mayizni qirqqa bo'lish maqol ekanligini, bu maqolning ma'nosini bir jon-u bir tan bo'lib, og'ayni, inoq do'st bo'lishi, bir-birini qo'llashdan iborat ekanligini tushuntirmog'i lozim. O'qituvchi o'z fikrini quyidagi she'riy misra bilan mustahkamlashi mumkin:

Tolibni so'zi a'lo,
Bir mayizni qirqqa bo'lish
Bu emas mayiz bo'lish
Bu butunlay boshqa ish
Mayiz teng qirqqa bo'lish
Odam fe'lini keng qilish
Bu katta yo'l-yo'riq ish
Hamma bir teng do'st bo'lish
Bekam-u beko'st bo'lish
Og'ayni, o'rtoq bo'lish
Bir-biriga inoq bo'lish
Bir-birini qo'llash
Bir-biriga yordam berish
Bir kishi mingni demoq
Ming kishi birni demoq
Hamma jon-u tan bo'lmoq
Olam bir Vatan bo'lmoq.

O'qituvchi yuqoridagi she'rni o'qib bergach, o'quvchilardan maqolning asl mazmuni:

Bobolarning orzusi
Bir mayizni qirq bo'lish
Qirqilmas o'rtoq bo'lish.

ekanini alohida ta'kidlashi va o'quvchilar o'rtasida ham mustahkam hamkorlik, ahillik bo'lishi lozimligini uqtirmog'i maqsadga muvofiqdir. Shundan so'ng o'qituvchi suhbatni mustahkamlash va bolalarga ahillik, hamjihatlik bilan bajarilgan mehnat haqidagi tasavvurini shakllantirish maqsadida quyidagi savollarni berishi o'rinlidir:

1. O‘qilgan she‘r orqali bolalar nima haqida fikr yurgizishdi?
2. O‘tmishda ota-bobolarimiz qo‘llab kelgan maqollar xususida qaysi o‘quvchi to‘g‘ri fikr yuritdi?
3. Bobolarimiz qanday yashaganlar, ular bizlarga qanday bo‘lishni nasihat qilganlari ilhom bag‘ishladi?
4. O‘rtoq-do‘st ahil bo‘lishini qanday tushunasiz?

Bolalarda hamjihatlik hislarini shakllantirishga katta hissa qo‘shuvchi yuqoridagi suhbatlar maxsus tayyorgarlik ko‘rish orqali o‘tkazilgandagina yaxshi natija beradi. Tadbir katta ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqining o‘tmishi va o‘z ozodligi uchun kurashgan shaxslarning hayotiga doir uyushtiriladigan axloqiy suhbatlar ham o‘quvchilarda juda katta taassurot qoldiradi.

Mavsumiy ertaliklar tabiatning insonga in‘om etgan yil fasllaridagi rasm-rusum, marosim va bayramlarga bag‘ishlanadi. Ular: «Hosil bayrami», «Sumbula sayli», «Choy momo marosimi», «Navro‘zi olam» kabilarga bag‘ishlangan ertaliklar bolalarda moddiy va ma‘naviy hayot uyg‘unligini ta‘minlaydi.

5.3. O‘quvchilar barkamolligini tarbiyalashda ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi tadbirlar ahamiyati

O‘quvchilar barkamolligini tarbiyalashda mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlar tashabbuskori sifatida Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning o‘rni alohidadir. Barkamol avlod tarbiyasi jarayonida o‘z shaxsining namunasi va faoliyati bilan har bir inson uchun ibrat bo‘layotir. Shu sababdan davlatimizda inson omiliga muntazam e‘tibor berib kelinmoqda:

I-yo‘nalish. I.A. Karimov o‘zining «Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch» asarida shu nuqtayi nazardan qaraganda, zamini-mizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta‘kidlab¹, jumladan,

1994-yilni — Ulug‘bek yili;

1996-yilni — Amir Temur yili;

¹I.A. Karimov. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma‘naviyat», 2008, 41-bet.

1997-yilni — Inson manfaatlari yili;
1998-yilni — Oila yili;
1999-yilni — Ayollar yili;
2000-yilni — Sogʻlom avlod yili;
2001-yilni — Onalar va bolalar yili;
2002-yilni — Qariyalarni qadrlash yili;
2003-yilni — Obod mahalla yili;
2004-yilni — Mehr va muruvvat yili;
2005-yilni — Sihat-salomatlik yili deb eʼlon qildi.

Tarbiyaviy tadbirlar mavzularini tanlashda, yuqoridagi sanalar uchun yaratilgan dasturlardan foydalanish zarur.

2-yoʻnalish. Qadriyatlarimizni ulugʻlash, milliy bayram va marosimlarni tashkil etish metodikasi.

Maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil qilish oʻquvchilar ongiga, qalbiga quyidagi maʼnaviy-madaniy gʻoyalarni singdirishda muhimdir:

- «Xalqning maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, tarix sinovlaridan oʻtishda xalqning ruhini koʻtarib, ularga tayanch va suyanchiq boʻladigan avlod boʻlish.

- Jamiyatimiz va davlatimizda boʻladigan koʻplab hayotiy muammolarga duch kelganda, ularning samarali yechimini topish qobiliyati shakllangan boʻlishi.

- Maʼnaviy qadriyatlarimizni, ilm-fan taraqqiyoti yutuqlari bilan boyitib borishda tashabbuskor boʻlish.

- Oʻzligimizni chuqurroq anglash.

- Zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlaridan unumli foydalanish kabi sifatlarga egalik qilishda xalqimizning boy milliy qadriyatlari ijobiy ahamiyat kasb etadi.

3-yoʻnalish. Umumxalq bayramlarini nishonlash va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

1-sentabr — Mustaqillik kuni.

2-sentabr — Bilimlar kuni.

1-oktabr — Oʻqituvchi va murabbiylar kuni.

21-oktabr — Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun.

8-dekabr — Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun.

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni.

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni.

21-mart — «Navro‘z» bayrami.

9-may — Xotira va qadrlash kuni.

1-iyun — Bolalarni himoya qilish kuni.

Yuqoridagi tadbirlarni tashkil qilish metodikasi:

1. Sinf saviyasi va tarbiyalanganligi darajasini hisobga olish.

2. Bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish.

3. Tadbirlarni zamonaviy talablar bilan boyitish, moddiy va ma‘naviy bilimlarni uyg‘unlashtirish.

4. O‘qituvchining kasbiy mahorati.

1-sentabr — «Mustaqillik kuni» bayramini o‘tkazishda quyidagi bilim va tushunchalarni bolalarda shakllantirish muhim:

1. Mustaqillik mamlakatimizda yuksak ne‘mat ekanligi, O‘zbekiston istiqbol va istiqloliga munosib bo‘lish.

2. Xalqimizning boy ma‘naviy merosi va ajdodlarimizning merosini o‘rganish, o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratish.

3. Mustaqillik tufayli farovon va tinch hayot kechirayotganimizni misollarda ko‘rsating.

4. Mustaqillik ne‘matlaridan g‘ururlanish tuyg‘usi bilan yashash kabi g‘oyalarni o‘quvchilarga singdirish, bayramni samarali tashkil etishning bosh maqsadidir.

21-mart — «Navro‘z» bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirdan namuna.

«NAVRO‘Z»

Maqsad: o‘quvchilarning qadriyatlarimiz to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularga «Navro‘z» bayramining xalqimiz hayotida tutgan o‘rnini tushuntirish: tevarak-atrof, bahor o‘simliklari va gullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Navro‘z taomlariga ishlatiladigan ko‘katlar bilan tanishtirish. Go‘zallik va nafosatga mehrini orttirish.

Kerakli jihozlar: ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, ko‘k manti uchun ishlatiladigan ko‘katlar, kuy-qo‘shiqlar qo‘yish uchun magnitofon.

Tadbirda tayyorgarlik: bolalar bilan birgalikda daladan ko‘katlar terib kelish, bog‘cha hovlisida joy hozirlab, dasturxon yozish, uning atrofiga kichkintoylarni o‘tkazish, ko‘katlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, bayram haqidagi she‘riy parchalarni yodlash.

Tadbirning borishi:

Sinf rahbari: Bolalar, biz siz bilan avvalgi mashg'ulotlarda qadriyatlar to'g'risida suhbatlashgan edik. Qani, kim aytadi: «qadriyat» deb nimaga aytiladi?

O'quvchilar javobi: ...

O'qituvchi: Bugun xalqimiz qanday bayramni nishonlayapti?

O'quvchilar javobi: ...

O'qituvchi: To'g'ri, 21-mart «Navro'z» kunida xalqimiz yangi yil bayramini nishonlagan. Shu kundan boshlab, tabiat jonlana boshlagan. Shu kuni odamlar uy-joylarini tozalab, ko'kat va gullar bilan bezagan, ota-onalarni, yaqin kishilarni borib ko'rishgan. O'tgan yaqinlarining qabrlarini ziyorat qilishgan.

Bayramlarda bahor va uning ne'matlarini madh etib kuylangan. Qani, kim «Navro'z» haqida she'r aytib beradi?

1-bola: Bog'lar daryolarniki
Tog'lar lolalarniki
Kim nima desa desin
Bayram bolalarniki
Bayram bolalarniki.

2-bola: Bog' bahorsiz qolmasin
To'kmasin tog' lolasin
O'zbekiston bag'rida
Navro'zlar omon bo'lsin
Navro'zlar omon bo'lsin.

(Shukur Qurbon)

O'qituvchi: «Navro'z» bayrami qaysi jihatlar bilan sizga yoqadi?

O'quvchi javobi: ...

O'qituvchi: Bugun taomlarning ba'zi birlarini qanday tayyorlashni sizga ko'rsatish bilan birga, ularga ishlatish uchun terib kelishgan ko'katlarimiz to'g'risida gaplashib olamiz. Qani, oldimizda turgan ko'katlar qanday nomlanishi va qandayligini kim aytadi?

1-o'quvchi (otquloqni qo'liga olib): Otquloq.

O'qituvchi: Xo'sh, u qanday ko'kat ekan?

2-o'quvchi: Barglari otning quloqlariga o'xsharkan.

O'qituvchi: To'g'ri, bundan tashqari uchburchak, tuxumsimon. Keng poya bog'larida ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, to'pgulli. Otquloq qayerda o'sishini kim aytadi?

3-o'quvchi: Nam yerlarda.

O'qituvchi: To'g'ri, nam yerlarda, o'tloqlarda, tog' yon-bag'irlarida o'sadi. Bundan tashqari, u tabobatda ichak kasalligi va ichdan qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladi. Unda *K*, *C*, *B* va boshqa darmondorilar bo'lgani uchun ovqatga solinadi. Yana qanday ko'katlar terib keldik, qani kim aytadi?

3-o'quvchi: Mana bu ko'katning nomi chumchuqko'z. Bu ko'kat gullari chumchuqning ko'ziga o'xshar ekan. Barglarning ba'zilari tekis, chetlari sal o'yilgan. Gullari qiyshiq.

O'qituvchi: Bo'yi, balandligi qancha ekan?

O'quvchi: Bo'yi bir qarich keladi.

O'qituvchi: To'g'ri, 10 sm. Sizning qarichingizda bir qarich.

4-o'quvchi: Mana bu jag'-jag'.

O'qituvchi: Ba'zi viloyatlarda ochambiti deb ham ataladi.

5-o'quvchi: Barglari to'p-to'p. Bir xillari mayda, poyasi ketma-ket joylashgan. Yo'l yoqalarida, bog'larda, ekinzorlarda o'sadi.

O'qituvchi: Yaxshi, bundan tashqari, gullar oq, mayda, shingilga to'plangan bo'ladi. Tarkibida *C*, *K* darmondorilari bor, tabobatda qo'llaniladi. Keyingi ko'katning nomi nima ekan, kim aytadi?

5-o'quvchi: Ismaloq, barglari naysimon, qirqilgan bo'larkan. Tabobatda foydali ekan.

O'qituvchi: Ular yovvoyi holda ekinzolar va o'tloqlarda uchraydi. Ismaloqning ba'zi turlari sabzavot sifatida ham yetishtiriladi. Ulardan bahorda somsa va boshqa taomlar pishiriladi.

O'qituvchi: Yana qaysi ko'kat qoldi, bolalar?

6-o'quvchi: Yalpiz, barglari cho'ziq, tukli, nam yerlarda, ariq bo'ylarida o'sadi, juda xushbo'y.

O'qituvchi: To'g'ri, yalpiz gullari bandli, binafsharang bo'ladi. Tabobatda ishlatiladi. Ana endi ko'katlarni tozalab maydalaymiz, yog' qo'shib sizlarga ko'k somsa, manti, ko'k chuchvara pishiramiz.

(Davraga Dehqonbobo kirib keladi.)

Dehqonbobo: Assalomu alaykum!

O'qituvchi: Vaalaykum assalom. Keling, keling Dehqonbobo. Bolalar Dehqonbobo bilan salomlashishi:

Dehqonbobo: Nevaram Bahoroydan sumalak pishirish uchun bug‘doy berib yuborgan edim.

O‘qituvchi: Rahmat, bobojon, ana o‘sha bug‘doydan qozonga sumalak solib qo‘ydik, pishyapti.

Dehqonbobo: Qadrli bolajonlar, sizning bugungi bayramingizdan xabarim bor. Bolajonlarning yig‘ini qanday o‘tarkan, deb tabiatni, tevarak-atrofni kuzatdim. Qarasam, qora qarg‘a qolgan qorlar ustida o‘ynamadi, otxonada turgan ot xirillamadi, demak, havo aynimas ekan, deb kelaverdim.

O‘qituvchi: Dehqonbobo! Bizga sizning kuzatishlaringiz juda yoqdi. Siz ob-havoni yana qanday kuzatasiz? Bizga ham o‘rgating. Chunki biz uni faqat radio, televideniye yoki gazetalardagi ob-havo ma‘lumotidan bilib olamiz.

Dehqonbobo: Juda yaxshi, bo‘lmasa, eshitinglar, agar qumursqa va chivin qanotlanib, havoda o‘ynasha, o‘rgimchak to‘r to‘qisa, qisqichbaqa quruqqa chiqsa, qurbaqa qattiq qurillasa, qaldirg‘ochlar cho‘milishsa, ilon isinsa, turna sayrab, qarg‘a past uchsa, mushuk eshikni timdalasa, bilingki, yomg‘ir yog‘adi.

Ot tepinib, sigirlar sutini tortsa, bug‘doy o‘rilganda, poyaning ko‘ki o‘roqqa yuqsa, o‘rimdan keyin ang‘izdan suv chiqsa, tutunlar havoga ko‘tarilmasa ham yomg‘ir yog‘adi.

Yana yomg‘ir yog‘ishini ko‘rsatadigan alomatlar bor. Suv ko‘piklanib oqadi. Shudring tushmaydi, shabada kun chiqish tomondan esadi, falakda yulduzlar kichkina ko‘rinadi, osmondagi kamalakning har ikki uchi suvga tushadi, kun juda qattiq qiziydi.

O‘quvchilar: Dehqonbobo, qachon kun sovushini aytib bering.

Dehqonbobo: Mayli, bolalarim, eshitinglar bo‘lmasa. Chuvalchanglar yerga kirishsa, qaldirg‘ochlar balandlab uchsa, boy-o‘g‘lilar sayrasa, o‘rdaklar cho‘milishsa, g‘ozlar boshini yashirib, tumshug‘ini taqillatsa va bir oyog‘ini qanotining ostiga tiqsa, bilingki, sovuq tushadi. Bundan tashqari, it qorga ag‘anasa, sigir orqa oyog‘ini taqillatsa, ertalab quyosh yuzini tuman qoplasa ham sovuq tushishini anglatadi.

O‘qituvchi: Dehqonbobo, siz bu gaplarning hammasini tabiatni kuzatib o‘rganganmisiz?

Dehqonbobo: Yo‘q, albatta, bobolarimizdan eshitganman, ularga qarab, ekin-tikinlarni rejalashtirganmiz.

Tarbiyachi va bolalar Dehqonboboga minnatdorchilik bildirishadi.

O'qituvchi: Endi, Dehqonbobo, yo'l bosib kelgansiz, damingizni oling, bolalarimiz sizga she'rlar o'qib berishadi.

1-o'quvchi: Osmon tiniq ko'k shoxi,
Oq bulut kezar gohi
Gullarga ko'miladi
Qandak o'rikning shoxi.
Bog'bon chiqar bog'iga,
Cho'pon ketar tog'iga
Bolarilar g'uvillab
Qo'nar gul yaprog'iga.
Qushlar uchib keladi
Shamol g'ir-g'ir yeladi
Quyosh gullar yuzini
Shu'lalarga beladi.
Suvlar shildirab oqar
Qo'shig'i dilga yoqar.

(Uyg'un)

2-o'quvchi: Yomg'ir, yomg'ir, yog'aver
Yog'ib bo'lg'in ming chelak
Yomg'ir, yomg'ir, yog'aver
Dalalarga sen kerak.
Yomg'ir, yomg'ir, yog' chaqqon,
Bizlarga ham sen kerak
Yog'ib o'tsang sen qachon
Ko'rinar naykamalak.

(Aziz Abdurazzoq)

O'qituvchi sumalak to'g'risidagi rivoyatni so'zlab beradi. Bu orada sumalak suzilib, dasturxonga tortiladi. Dehqonbobo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar ularni birga baham ko'rishadi.

O'qituvchi ko'kat terishda, ularni aniqlashda, chuchvara, somsa va manti tugishda o'rnak ko'rsatgan tarbiyalanuvchilarni rag'batlantirib, ularga sovg'alar ulashadi. Sho'x musiqa yangraydi. Hamma raqsga tushadi va tadbir yakunlanadi.

5.4. O'quvchilar bilan musobaqa-o'yin tarzida uyushtiriladigan tadbirlar

O'quvchilar bilan musobaqa-o'yinlar tarzida uyushtiriladigan tadbirlar. Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda Qoqbosh-So'qqabosh ismli odam bo'lgan. Uning farzandlari bo'lmaganligi, yolg'iz o'zi yashagani uchun unga odamlar shunday ism qo'yishgan.

Lekin u hamisha quvnoq, ochiq chehrali, odamshavanda bo'lib, ayniqsa, bolalarni jon-dilidan sevgan. Shuningdek, u savodxon, bilimdon bo'lish bilan birga san'atni, ashulalarni yaxshi qadrlagan va hamqishloqlar orasida eng aqlli, hurmatli kishilardan hisoblangan. Jamoada erkaklar ov bilan, ayollar don-dunlarni yig'ishtirish, chorva mollarini boqish bilan shug'ullanganlar.

O'sha davrda bir qabila bilan ikkinchi qabila o'rtasida musobaqa o'tkazilib, kimdir ovoz beradi-da, tez o'rniga borib o'tiradi. Agar ko'zi bog'langan bola uning kim ekanini topsa, ovoz bergan bola qarshi guruh tomonga o'tadi, topmasa, o'zi qarshi guruh tomonga o'tadi.

O'yinning tarbiyaviy ahamiyati. Bolalarning sezgirligini oshiradi, eshitish qobiliyatini o'stiradi, tez harakat qilishga o'rgatadi. O'yinning bola tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish, o'quvchilar jamoasini yaxshi bilish, o'yin jarayonini diqqat bilan kuzatish asosida o'yinlarga rahbarlik qilish — tarbiyachilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bolalarning o'yinlarini tashkil etish, boshqarish, jazolash va hokazolar hali barcha metodistlar va tarbiyachilarning diqqat markazida turayotgani yo'q.

Biz quyidagi bolalar o'yinlarining ta'lim-tarbiyadagi beqiyos ahamiyatini ilg'or ish tajribalari asosida ilmiy jihatdan ishlab chiqish va kengroq yoritish, o'qituvchi tarbiyachilar uchun tegishli yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar bayon etamiz va bu ishning sifati va samaradorligini yaxshilashga bevosita yordam beradi, degan umiddamiz.

O'yin turlari:

1. Xalq o'yinlari.
2. So'z o'yinlari.
3. Ma'naviy o'yinlar.
4. Harakatli o'yinlar.
5. Boshqotirma o'yinlar.
6. «O'ylab top» kabi o'yinlar.

O'zbek xalq o'yinlaridan namunalari

Xalq o'yinlaridan: «Qo'zi», «Zag'izg'on», «Chir aylanma», «Kim chaqqon», «Ro'mol tashlash», «Uchdi-uchdi», «To'qilgan ro'mol», «Topar bo'lsang, topa qol», «Qoch bolam, qush keldi», «Cho'ponko'l», «Soqqa yoki tosh tashlash», «Bekinmashoq», «Jami», «G'ir-g'ivon», «Chaviri», «Durra», «Chori patak», «Kosagul bo'lay», «Ur to'qmoq», «Oq terakmi, ko'k terak?», «Arqon tushish» o'ynaladi.

«Arqon tushish»

O'yinning tavsifi. O'ynovchilar aylana bo'ylab turgandan keyin qo'lida arqoni bor o'yin boshlovchi o'rtaga chiqib, «O'yin boshladim» deydi. Shundan so'ng arqonning tugilgan joyidan ushlab, aylana bo'ylab aylantiradi. O'ynovchilar sakrab turib, arqonni oyoqlarining tagidan o'tkazib yuboradi.

Kimda-kim arqonni o'tkaza olmay, oyog'ini tekkizib olsa, aybini bo'yniga oladi. Yengilgan hisoblanadi. Ko'pchilikning xohishiga ko'ra, o'rtaga chiqib, hunar ko'rsatadi hamda o'yin boshlovchi bilan o'rin almashtiradi.

Nimaning pati?

O'yinga tayyorlanish. O'yin sport zali, maydon yoki maysazorda o'tkazilishi mumkin. O'ynovchilar doira hosil qilib o'tiradilar. O'yin rahbari o'rtada turadi.

O'yinning tavsifi. Rahbar bolalarga ketma-ket «Nimaning pati?» deb savol beraveradi. Bolalar javob qaytarib (o'rdakniki, qarg'aniki, burgutniki), har gal har xil qushning nomini aytadilar. O'yin shu tariqa davom etaveradi. Agar biror bola ilgari aytilgan qushning nomini takrorlasa, rahbarning iltimosini bajaradi (qo'shiq aytadi, o'yinga tushadi, she'r aytib beradi va h.k.). Keyin o'yin yangidan boshlanadi.

O'yinning tarbiyaviy ahamiyati: Bu o'yin bolalarni ziyrak, hozir-javob, idrokli va ko'proq qushlarning nomini bilib olishga o'rgatadi.

«Topar bo'lsang, topa qol» o'yini haqida

O'yinning tavsifi. O'yin ko'pchilik bo'lib o'ynaladi. Bolalar doira bo'ylab turadilar. Topuvchi o'rtada bo'ladi. Bolalar tugmaga o'xshagan biror narsani qo'lma-qo'l orqadan uzatadilar va

ulardan biri o'zida olib qoladi (berkitadi). O'rtadagi bola ularni kuzatib turib, biror boladan gumon qiladi.

«Tugma Valida!» deydi. U to shu so'zni aytguncha, bolalar xor bo'lib:

Topar bo'lsang, topa qol,
Topar bo'lsang, topa qol!
Topolmasang, qola qol!

deb aytib turadilar. Tugma haligi bolada bo'lsa, ko'rsatishi kerak. Demak, u o'rtaga tushadi, topolmasa, biror vazifani bajarib berishga majbur bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy ahamiyati: Bu o'yin bolalarni kuza-tuvchan, ziyrak bo'lishga o'rgatadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Barkamol avlodning ma'naviy-ma'rifiy, milliy, axloqiy tarbiyasi istiqboli haqida nimalarni bilasiz?
2. Tarbiyaviy tadbirlar tashkil qilish tamoyil, shakl, usullari va vosi-talarini izohlab bering.
3. Mavsumiy ertaliklardan namuna keltiring.
4. Bayram sanalari haqida nima bilasiz?
5. Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlar metodikasini izohlab bering.
6. O'yin va uni tashkil qilish metodikasiga izoh bering.
7. Axloqiy o'yinlardan misollar keltiring.



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 1997.
2. A. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'qitish. T., «O'qituvchi», 1994.
3. O. Hasanboyeva. Odobnoma o'qitish metodikasi. 1—4-sinf. T., 2003.
4. Q. A'zamov va boshq. Ma'naviy va ma'rifiy ish. T., 2005.
5. O. Hasanboyeva. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. T., 1996, 2005.
6. Z. Jumayev. O'zbek xalq tarixiy rivoyatlari. T., «Fan», 2008.
7. J. Hasanboyev. «Pedagogika» fanidan izohli lug'at. T., «Fan va texnologiyalar», 2009.
8. Milliy-ma'naviy qadriyatlar va komil inson. T., 2011.

MUSTAQIL ISH

«Ona mehri» mavzusida tarbiyaviy tadbir ssenariysini tuzish.

6-bob. OILADA BOLA TARBIYASI

I. Reja.

1. Oilada bolani to'g'ri tarbiyalash shart-sharoitlari.
2. Oilada odob-axloq qoidalari va ota-onaning roli.
3. Bola tarbiyasida milliy an'analardan foydalanish.

II. Mazkur mavzuning maqsadi: oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama ravnaqi va jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasida milliy iftixor, uning jamiyat negizi ekanligi, oila ichidagi oila kamolotini ta'minlash.

III. Mavzuning vazifalari:

1. Bolaning barkamol tarbiyasi borasidagi muammolar va uning yechimi.
2. Oilada ota-ona obro'si va uning turlari, obro'siga erishish mahorati.
3. Farzand tarbiyasida ota-onaning burch va mas'uliyati.

IV. Tayanch iboralar: komillik, kamtarlik, insonparvarlik, insof, vatanparvarlik.


6.1. Oilada bolani to'g'ri tarbiyalash shart-sharoitlari

Darhaqiqat, inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Insonning inson bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida, el ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak odob-axloq qoidalarini o'zida mujassam etishida oila asosiy o'rinni egallaydi.

Islom dinida oila va unda bola tarbiyasiga bo'lgan munosabat masalasi alohida o'rinni egallaydi. Islomda hayotning mazmuni, yashashning muammosi bola tarbiyasi bilan bog'langan holda ochib berilgan. Islomiy ma'naviyatning negizida odam bolasiga bo'lgan mehr-muhabbat, uni bu yorug' olamning ne'mati sifatida ulug'lash g'oyasi yotadi. Har bir musulmon oldida farzandlarini bi-

limli qilish, ularga odob-axloq saboqlarini berish mas'uliyati turadiki, uni bajarish ota-onalar uchun ham farz, ham qarzdir.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim- tarbiya masalalari muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berishgan. Zero, yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajagini belgilaydi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni to'g'ri tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.



Mutafakkirlarning qomusiy asarlarida va maxsus odob-axloqqa bag'ishlangan risolalarida ularning pedagogik qarashlari ifodalangan. Bular jumlasiga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Kaykovusning «Qobusnoma», Shayx Sa'diyning «Bo'ston va Guliston», A. Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Mahbub ul-qulub» kabi pand-noma, nasihatnoma tarzida yozilgan asarlari kiradi.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'rikenglik, mehridaryolik, o'ta fidoyilik o'zbeklargagina xos xususiyatdir. Shu boisdan ham ota-onalarimiz farzandlarining baxti va kelajagi uchun qayg'uradilar. Ularning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, odob-axloq qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash mustahkam poydevorli jamiyat barpo etishning garovidir. Bola tarbiyasi murakkab, uzoq davom etadigan sermashaqqat jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- Bo'lajak ota-onaning sog'-salomatligi.
- Nasl-nasabi.
- Dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi.
- Axloq-odobiga alohida e'tibor berilgan.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur farzand tarbiyasini, ularni uylantirish va turmushga berishni davlat siyosati darajasiga ko'targanlari bejiz emas. Hayotning shirinligi, qaynoqligi, achchiqchuchukligi, tasodifga boyligi farzand bilan. Shuning uchun ham xalqimiz ichida: «Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor», «Bolali xotin gul xotin, bolasiz xotin tul xotin», «Qizginamning bolasi, bog'imning gullolasi», «Bolali bosh bo'lar, bolasizlar yosh bo'lar», «Odobli o'g'il ko'kdagi yulduz, odobli qiz yoqadagi qunduz» kabi ko'plab maqollar bejiz aytilmagan.

Oilada farzand tarbiyasini u paydo bo'lmasdan oldin boshlamoq zarur. Ya'ni, homilador ayolning kayfiyati doimo ko'tarinki, asablari sokin, foydali taomlar iste'mol qilmog'i lozim. O'z vaqtida mehnat qilib, dam olib, sayr qilib, ovqatlanib, tug'ilajak bola taqdirini o'ylash onaning vazifasidir.

Bir kishi yangi tug'ilgan chaqaloqni donishmand oldiga olib kelib, «Taqsir, bolamga qachondan tarbiya bera boshlay?» debdi.

«Bolangiz dunyoga kelganiga necha kun bo‘ldi?» debdi donishmand. «Ikki oy, taqdir» debdi ota. «Attang, siz ancha kech qolib-siz, tarbiyani ona qornidaligidan boshlashingiz kerak edi», debdi donishmand.

Oilada ota-ona barcha farzandlariga nisbatan bir xilda mehr-muhabbat, talab qo‘ymog‘i lozim. Rizouddin ibn Faxriddin shunday deydi: «Adolatli insof o‘rgatmak uchun hojatlarni o‘taganlik va keraklarini tahsil etganingizda hammasini barobar ko‘ringiz, hadiya berganingizda barchasiga bir xil beringiz, biriga yashirib bir narsa berib, «ehtiyot bo‘l, akang-ukalaringga bildirma», demoq kabi narsalardan saqlaningiz, chunki bunday etmoq ularni jabr, zulm, aldamoq, xiyonat kabi narsalarga o‘rgatadi. Baxillik va xubbinafs (o‘zini o‘zi sevmog‘) kabi buzuqlik urug‘larini ko‘ngillariga sochadir»¹.

Oilada har bir bolaning xatti-harakatiga nisbatan rag‘batlantirish yoki qattiqqo‘llik bilan munosabatda bo‘lish, tanbeh berish, jazolash tarbiyada sinalgan usullardandir. Ona bolani qilgan xatti-harakati uchun jazolayotganda, nasihat qilayotganda ota uning tarafini olmasligi, ota tarbiyaviy ish olib borayotganda esa ona aralashmasligi kerak. Bu bolani ikkiyuzlamachi, hech qanday tanbeh va jazodan, yolg‘on so‘zlovchi, ota-onaning har ikkisini ham hurmat qilmaydigan, obro‘siz qilib qo‘yadi.

Oilada farzand tarbiyasida sinalgan tarbiya metodlaridan biri namunadir. Bobo, buvi, ota-ona, atrofdagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlari, yurish-turishlari muammosi, o‘zlarini tutishlari, jamiyatga, tabiatga munosabatlari namuna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bolaga aqliy, axloqiy, estetik, diniy, mehnat tarbiyasi asoslari ota-ona namunasi asosida singdirib boriladi.

Ota-ona farzand oldida o‘z aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi, shirinso‘zligi, qat‘iyatligi, yolg‘on gapirmasligi, mehnatsevarligi, oila yuritishdagi adolatparvarligi, ilmparvarligi bilan namuna bo‘lmog‘i lozim. Bola xarakteriga ota-onaning o‘zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, yolg‘on so‘zlash, kiyinishida, ro‘zg‘or yuritishdagi pala-partishligi, mehnatni sevmasligi tezda o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

¹*Faxriddin ibn Rizouddin*. Nasihat. T., «Cho‘lpon», 1993, 65-bet.

Ota-onaning bir-biriga nisbatan yuksak axloqiy munosabatini koʻrgan, bilgan bola kelgusida oila qurganida ham oʻz turmush oʻrtogʻi bilan shunday yashashga odatlanib boradi. Hayot ilmida ona qiz bola uchun, ota oʻgʻil bola uchun ustoz-murabbiydir. «Onasini koʻrib qizini ol, qirgʻoq koʻrib, boʻz ol» deb bejiz aytilmaydi.

Ota-onaning, avlod-ajdodlarining nojoʻya xatti-harakatlaridan, nopok ishlardan farzand ham aziyat chekadi, shunday odamlarning farzandi boʻlganidan afsuslanadi. Baʼzi ota-onalar farzandlari kelajagini faqat moddiy tomondan taʼminlashdan iborat deb bilishadi. Shuning uchun ham turli yoʻllar bilan mol-dunyo toʻp-lab, ochkoʻzlik kasalligiga muhtalo boʻladilar. Inson jismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni insoniylikdan mahrum etadi, turli jinoyatlar, noaxloqiy xatti-harakatlar sodir etishga yetaklaydi. Bunday boʻylik farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ota-onadan behisob mol-u dunyo emas, ilm-u maʼrifatga intilish, insof-u diyonatga sadoqat, mehr-u shafqat, xalq, millat, Vatan uchun jonfidolik sifatleri meros boʻlib qolmogʻi kerak.

Bolani soʻkishga, qoʻpol gapirishga oʻrgatish, uni haddan tashqari erkalash nomaqbul usuldir. Xalq pedagogikasida taʼkidlanganidek, «Bola aziz, odobi undan aziz», «Bola tarbiyasi beshikdan», «Erkalatsa onasi, tanti boʻlar bolasi» kabi purmaʼno aqidalar mavjud. Erka, tantiq bolada xudbinlik, manmanlik, kibr-havo, oʻjarlik kabi xususiyatlar chuqur tomir otib, hayotda oʻz taʼsirini oʻtkazadi. «Bola erkatoyligi, tantiqligi qancha oshsa, ota-onani shuncha tashvish va tahlikaga soladi»¹.

Oilada bolani tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka oʻrgatish, dunyoviy ilmlar, hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar sirlari qonuniyatlarini egallashlari uchun sharoit yaratib berish, uning hayot soʻqmoqlaridan adashib qolmasligida yordam beradi.

Otalar oʻgʻillariga savdo-sotiq, uy-roʻzgʻor ishlarini, onalar esa qizlariga uy tutish, oziq-ovqat tayyorlashni oʻrgatishlari qadimiy urf-odatlarimizdan sanaladi.

Ota-bobolarimizning oʻz farzandlarini tejamkor boʻlishga undaganlarini xalq ogʻzaki ijodi misolida ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, tejamkorlik mavzusi xalq maqollarida oʻz aksini topgan.

¹R. Usmonov. Saodatnoma. T., «Oʻqituvchi», 1995, 245-bet.

Maqollar kishilarning tarixiy tajribasi sifatida ko'pgina sinovlardan o'tib shakllanadi va chuqur ma'no kasb etadi. Mana ularning ayrimlari:

- «Tejagan birga birni qo'shar, tejamagan birni ham boy berar».
- «Pul topish uchun kuch-quvvat kerak, tejash uchun fahm-farosat».

- «O'zingnikini bir bor tejasang, xalqnikini ming bor teja».
- «Tejamkor olqish olar, isrofgar koyishga qolar» va h.k.

Hattoki, ota-onalarimiz tejamkorlik ruhida tarbiyalash vazifasiga, farzandlarining baxtli-saodatli bo'lishining bir sharti, axloqiy tarbiyaning bir ko'rinishi sifatida qarashgan.

O'zbek oilalarida bolalarga ro'zg'or buyumlarini ehtiyotlab, asrab-avaylab tutish lozimligi uqtirib kelingan. Masalan, bola be-xosdan biror buyumni sindirib qo'ysa, darrov darg'azab bo'lmasdan, «ehtiyot bo'lmaganing uchun sindirding, endi yangisini olish uchun pul sarflashga to'g'ri keladi», deb bosiqlik bilan dashnom berishgan. Bunday muomala qilish bolaga kuchli ta'sir qilishi tabiiy.

Hayotiy tajribada bolalarni tejamkorlikka o'rgatishning yana bir usuli mavjud. Bu ota-onalarning u yoki bu nasihatlarini o'z nomlaridan aytmasdan, balki «mana shunday qilishni ota-onam aytardilar, men esa ularning gaplarini qaytarmasdan bajarar edim», degan iborasini qo'shib gapirish ham katta tarbiyaviy samara bergan.

Chunki bolaga bu so'z tez ta'sir qilishi, bir qadar o'ylantirishi turgan gap. Yoki, «bolam bu idishni sindiribsan. Bu menga ota-onamdan meros edi», deyishgan. Bunday so'zlar bola ongiga tez singiydi va shubhasiz, bu gaplarni qadriyat sifatida qabul qiladi.

Hozirgi zamonda butun dunyoda ko'zga tashlanayotgan oziq-ovqat, ichimlik suvi, foydali qazilmalar va shu kabi zaxiralarning kamayib borayotganligi, shuningdek, aholi sonining ortib ketayotganligi qator muammolarni keltirib chiqarayotganligi tejamkorlik, ishbilarmonlik kabi qadriyatlarning umumbashariy ahamiyati zarurligini ko'rsatib bormoqda. Shunga ko'ra, bola ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik ko'nikmalarini tarkib toptirish juda dolzarb masala.

6.2. Oilada odob-axloq qoidalari va ota-onaning roli

Oilada odob-axloq qoidalarini o'rgatishda ota-onaning roli katta. Farzandiga tarbiya berish, ularni komil inson qilib tarbiyalash kelajakda ota-onaga rahmat olib keladi.

O'g'il-qizlarimizga tarbiya berish judayam mas'uliyatli, lekin farzand ota-onaning mevasi degandek, ota-onasiga o'xshaydi.

Qiz bolaning baxti uning axloq-odobi mevasidir.

Shirinso'zlik, samimiylik, sermulohazalik, go'zal xulq, yaxshi muomala, saranjom-sarishtalik qiz bolaning ko'rkidir. Uning ko'r-kiga ko'rk qo'shuvchi, odamiylik fazilatlarini zebo qilib boruvchi ota-onadir. Ota-onaning pand-nasihatlarini dillariga jo qilgan yigit-qizlar hayotda qoqilmaydilar, qiyinchiliklarga sabr-bardoshli bo'lishadi. Zero, ularning kelgusi hayot yo'llari ham porloq bo'ladi.

Luqmoni Hakim rivoyati. Bir kuni Luqmoni Hakim o'tib ketayotsalar, bir ona qiziga nasihat qilib, yaxshi odatlarni o'rgatayotgan emish: «Qizim, sen ham balog'at yoshiga yetib qolding. Ertaga birovning xasmiga borasan, menikiga esa mehmonga kelasan, xolos. Sen yaxshi hayot kechiraman, obro'-e'tiborli bo'laman desang, qaynonangni hurmat qil. Hammadan erta tur! Hammadan kech yot! Qo'ling egri bo'lmasin, boshingga qilich kelsa ham, rost gapir. Yolg'onchi, chaqimchi, ikkiyuzlamachi, g'iybatchi bo'lma, qo'lingdan kelgan xizmatini ayama, kelgan mehmonni hurmat-izzatini joyiga qo'yib kuzat. Qaynonangni, oila a'zolarini birovga yomonlama, ziyrak, dono, aqlli bo'l! Kuyovingning hurmatini joyiga qo'y, ko'chadan kelganda kutib ol! Ketganida kuzatib qo'y. Boriga shukur qil. Nafs ovorasi bo'lma, sabr-toqatli, chidamli bo'l! Salomni kanda qilma. Shundagina baxt sening yo'ldoshing, g'am-tashvish esa kundoshing bo'ladi», debdi.

Shunda Luqmoni Hakim: «Onani ko'rib qiz ol, qirg'oq ko'rib bo'z ol!» deganlari shu bo'lsa kerak deb, yo'llarida davom etgan ekanlar.

Qiz bola kelin bo'lib tushgan xonadonda uning ichki go'zalligi bilan bir qatorda, tashqi go'zalligi ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun doimo u o'ziga qarab yurishi, toza-ozoda bo'lib, o'ziga yarashganini kiyishi, ro'zg'or yumushlarini bajarishda, mehmon kelganda yoki mehmonga borganda, ishda, to'y-u ma'rakalarda o'ziga mos ravishda kiyinish qoidalariga rioya etishi, ortiqcha bo'yanmasligi zarur. Kiygan kiyimi qaddi-qomatiga mos bo'lishi, gigiyenik qoidalarga amal qilish atrofidagi kishilarga estetik ta'sir etadi, iliq munosabat uyg'otadi.

Xalqimizda «kamtarga kamol, manmanga zavol» degan purhikmat maqol bor. Qiz bolaning qanday oilada o'sishidan qat'i nazar,

uni kamtar, ortiqcha zeb-u ziynatga, me'yordan ortiq kiyinishga, tirnoqlarini o'stirib, haddan tashqari bo'yanishga yo'l qo'ymaslik yanada go'zalroq qiladi. Kamtarinlik qiz bola uchun bebaho ziyinatdir. Ota-onasining boyligi, mansabidan mag'rurlanib, kelin bo'lib tushgan xonadon sohiblariga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish o'z kelajagi ildiziga bolta urishdir.

«Shirin til ilonni inidan chiqarar» deganlaridek, qiz bolaning muloyimligi, shirinso'zligi, o'ylab, mulohaza bilan so'zlashi, baqirchaqirmasdan, har bir gapining oxirini o'ylab gapirishi uning hayo ko'rkidir. «Falonchining qizi gapirganda yetti mahalla larzaga keladi, falonchining qizini esa qattiq gapirganini eshitmaysan, tarbiya bergan ota-onasiga rahmat», degan so'zlar qizlarga berilgan bahodir. Har bir ota-ona «tarbiya bergan ota-onangga rahmat» degan el olqishini olish darajasida farzand tarbiyalashga intilmog'i zarur.

Muloqot qoidalari

Muloqot madaniyatimizda xalqimizning asrlar davomida sayqallanib kelingan urf-odatlarini, an'analari, axloq normalari mujassam bo'lib, maqollar, hadislar, hikmatli so'zlar, pand-nasihatlar, axloq-odob durdonalari shakllarida xalqni ma'naviy yetuklikka boshlab kelmoqda.

Bir kishi ikkinchi bir kishi bilan salomlashar ekan, «Assalому alaykum» (arabcha so'z bo'lib «sizga tinchlik tilayman» ma'nosini anglatadi) so'zini aytadi, javob beruvchi esa «Vaalaykum assalom» (ma'nosi: «sizga ham tinchlik tilayman», «sizga ham tinchlik bo'lsin») deydi.

Salomlashish beg'araz, chin qalbdan bo'lishi bilan bir qatorda, biron kishi bilan muloqot qilishdan oldin salomlashishning quyidagi qoidalari amal qilish joizdir: ertalab uyqudan turgach, yuvinib, ota-ona, oila a'zolari bilan muloqotni iltifot bilan salom berib, «yaxshi dam oldingizmi?» deyish bilan kunni boshlash kerak.

Katta yoshdagi kishilarni, qo'ni-qo'shni va qarindoshlarni, ustozlarni, tengdoshlarini uchratib qolgudek bo'linsa, ko'ksiga qo'lni qo'yib sharqona diyonat bilan salom berib, hol-ahvollari so'raladi. Kattalar, ayollar, qiz-juvonlar bilan uchrashganda, ularga qarshi borib salomlashish odobdandir. Agar ko'pchiliklar

ichida biron-bir do'stini, qarindoshini yoki tanishini uchratib qolinsa, u kishining o'ziga emas, shu yerda o'tirgan yoki turganlarning barchasiga salom beriladi.

Kichik yoshdagilar bilan muloqotda bo'lganda, ular hurmat bilan salom berishsa, iloji boricha hammalarining salomlariga umumiy so'rashilgan holda javob berishga harakat qilinadi.

Ota-ona, opa-singil, do'stlar, ustozlar, qarindosh-urug'lar va boshqalar bilan muloqot qilishning debochasi, salomlashib bo'lingach, ular bilan haqiqiy muloqot boshlanadi. Imom G'az-zoliy aytganidek, «O'zingga nisbatan kishilardan qanday muomalani kutsang, ularga nisbatan ham xuddi shunday muomalada bo'lgin»¹.

Oilada bo'ladigan muloqotning sofliqi, mazmundorligi, oiladagi bolalarning xulq-atvoriga, ma'naviy kamolotiga ta'sirini kuchaytirish ko'p hollarda ota-ona o'rtasidagi va ularning bolalar bilan bo'ladigan o'zaro muloqotiga bog'liqdir. Oiladagi kundalik muloqot bu hayotiy ehtiyoj, bolani ijtimoiy va madaniy hayotga tayyorlashning asosidir. Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiy, urning xotinga, xotinning erga nisbatan o'zaro hurmati, iffati asosida qurilsagina, bunday oilada musaffo ma'naviy muhit vujudga keladi.

Ayniqsa, ota-ona munosabatidagi sabrlilik, o'ylab, aql-zakovat bilan oilaviy yumushlarning birgalikda maslahatli hal etilishi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xilda muomalada bo'lishi, har ikki tomonning qarindosh-urug'larga, qo'niqo'shnilarga bir xilda mehr-muhabbat, hurmat bilan qarashi, bir so'zlilik, haqiqatni gapirish kabi ijobiy fazilatlarga ega bo'lish, shuningdek, ichish, chekish, yolg'onchilik, maishiy buzuqlik, dimog'dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi bo'lishi oiladagi muomala madaniyatining sofligini ta'minlovchi xususiyatlardir.

Ota-onaning bir-biriga «adajonisi» yoki «oyijonisi» deb murojaat etishlari, «rahmat», «marhamat», biron joyga borilayotganda «yaxshi borib keling» yoki «bexatar borib keling», «yaxshi keldingizmi?» kabi so'zlar muomalani to'g'ri yo'lga qo'yadi,

¹«Islom nuri» jurnali, 1990-yil, № 32.

farzandlarining ota-onaga nisbatan hurmatini, mehr-muhabbatini oshiradi, ota-ona ular uchun ideal bo'lib qolishlariga yordamlashadi.

O'z davrining yetuk mutafakkirlari ham er-xotin munosabatlarining sofliги naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etishgan. Bu masalaga Rizouddin ibn Faxriddin shunday yondashadi: «Go'zal muomalali bo'lmoq islom shariatining birinchi qoidalaridandir. Go'zal muomalaning eng lozim qismi xotun bilan bo'lajak muomaladir...»

Sir saqlash qoidalari

O'zaro muloqotda sir saqlash qoidalariga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Sir xususiyatiga ko'ra, bir necha xil, ya'ni davlat siri, oila siri, er-xotin siri, do'stlar siri, qarindosh-urug'lar siri, yigitlar siri, qizlar siri va boshqalardan iboratdir.

Muloqot jarayonida ko'pchilik bilishi lozim bo'lmagan so'zlarni, ya'ni sirni gapirmaslik, uni saqlay bilish ham mahoratga, irodaga ega bo'lmasa, sirni oshkor etsa, u kishi sirning asiriga aylanib qoladi, jamoa, oila a'zolari, qarindosh-urug'lar, do'stlar oldidagi ishonchini yo'qotadi, o'zining irodasizligini namoyon etadi. Donishmandlarimiz aytganidek, «Sirning oshkor bo'lishini xohlamasang, do'stingga ham aytma».

Muloqotning samimiyati, sofliги, musaffoligi hamsuhbatlarining hamfikrligiga, qarashlarning birligiga, do'stona munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liq. Muloqotda gapni topib gapirib, kishining ko'ngliga ozor yetkazmasdan muloyim, tavoze bilan gapirishda hikmat ko'p.

Uy tutish qoidalari

Har bir kishi o'z ro'zg'orining badastur, yetarli va qulay bo'lishiga umr bo'yi intiladi. Avvalo, yashash uchun uy quradi, keyin ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlanishiga harakat qiladi.

O'zbek xalqi mehmondo'st, bolajon, oliyhimmat xalq. Shuning uchun musulmon millatiga mansub har bir oilada mehmonlar uchun alohida mehmonxona, bolalar, ota-ona uchun alohida-alohida yotoqxonalar, oila a'zolari uchun dam olib, suhbatlashadigan umumiy xona, oshxona va boshqa qo'shimcha xonalar qurilib jihozlanadi.

Ma'lumki, oilaning asl tayanchi ayodir. «Xotinlar uyning gullari-yu, xonalarning chechaklaridir», deb bejiz aytishmagan. Oilada ro'zg'or ishlarini yuritish, uy tutish, bolalarni tarbiyalash va ularni ro'zg'orshunoslik ilmi bilan qurollantirish ayol kishi zimmasiga yuklatilgan. Bunday mas'ul ishni amalga oshirish ayol kishidan farosatli, sabr-toqatli bo'lishni, tashabbuskorlik hamda ijodkorlikni talab etadi.

Uy tutishda oilada otaning va bolalarning ham o'z o'rinlari, vazifalari va oila oldidagi burchlari mavjud. Ota — oilani ro'zg'or ashyolari bilan ta'minlaydigan mas'ul shaxsdir. Ona rahbarligida bolalar ro'zg'or ashyolarini toza, ozoda, pokiza, saranjom-sarishta qilib, avaylab saqlash, undan uy tutish qoidalariga asoslanib, unumli foydalanish ishlari bilan shug'ullanadilar.

Uy tutish odobi qoidalari nimalardan iborat?

Xonadon oila a'zolari uchun mo'ljallangan yotoqxonalarga alohida e'tibor berish lozim. Yotoqxona uchun shinam, shovqin-surondan xoli, bahavo xona ajratiladi. Yotoqxonada ko'rpalar alohida, ko'rpachalar alohida sandiq va quti ustiga chiroyli qilib, did bilan yig'ib, oq choyshablarga o'rab qo'yiladi. Ota-ona uchun alohida, o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun alohida-alohida yotoqxonalar zarur. Yotoqxonalarga har bir qiz yoki o'g'il bola uchun imkoniyat bo'lsa, karavotlar, kiyim qo'yadigan shkaflar qo'yiladi. Har bir kishiga yuvib, almashtirib turish uchun ikkitadan choyshab, ko'rpa va yostiq g'iloqlari bo'lishi zarur. Yotoqxona ortiqcha narsalar, devorlari osilgan gilamlar, televizor, muzlatgich va shunga o'xshash anjomlar bilan to'ldirilmaydi. Chunki uxlaganda erkin, toza nafas olish zarur. Yotoqxona derazasi oldiga gul qo'yiladi, chunki gul xonaning havosini tozalaydi. Yotoqxona har kuni namlangan latta bilan artib, shkaf, deraza tokchalari, devor va shiftdagi changdan tozalab turiladi.

O'zbek xonadonlarida mehmonga nisbatan alohida izzat-hurmat, e'zoz bilan munosabatda bo'linadi, shu boisdan qadimdan xalqimiz mehmonlar uchun alohida mehmonxonalar qurishgan. Bu xonalar mehmonlar uchun zarur bo'lgan uy anjomlari bilan bezatilgan. Qadimda uylar ichkari va tashqari bo'lib, tashqari uy mehmonxona hisoblangan. Mehmonxonada faqat erkak mehmonlar kutilgan. Ayollarning erkaklar bilishi shart bo'lmagan sir-asrorlari, o'zlarining gaplari bo'lganligi uchun ham erkaklar bilan ayollar bir joyda mehmondorchilik qilishmagan.

Ikkinchidan, erkak kishi ulug‘ hisoblangan, shariat erkak kishi bilan ayol kishining turli marosimlarda, mehmondorchilikda birga o‘tirishi, hatto bir eshikdan kirib chiqishi gunoh hisoblangan. Alohida mehmonxonalar mehmon kutish udumi hozirgi kunda ham jumhuriyatimizning barcha viloyatlarida saqlanib qolgan.

Hozirgi kunda mehmonxonalar qanday bo‘lishi kerak? Har bir xonadonda mehmonlar uchun alohida mehmonxonalar quriladi. Agar buning iloji bo‘lmasa katta, shinam, yorug‘, mehmon kutish qulay bo‘lgan bir xona mehmonxona uchun tanlanadi. Xonada ortiqcha buyumlar, qimmatbaho mebellar, me‘yoridan ortiq billur va boshqa idish-tovoqlarning bo‘lishi shart emas. Uning oddiy qilib bezatilishi muhim. Mehmonxona hamma vaqt toza, ozoda, yig‘ishtirilgan bo‘lishi lozim. Hind donishmandligida shunday deyiladi: «Har qanday yig‘ishtirilmagan xona yuqori darajada rivojlangan va ozoda kishining nafratini keltiradi».

Mehmonxonaga kirgan mehmon bahri dili ochilib, shu xonadan zavq olib chiqib ketishi kerak. Mehmonxona sharqona uslubda bezatiladigan bo‘lsa, gilam to‘shalib, xona o‘rtasiga xontaxta, uning atroflariga ko‘rpachalar to‘shaladi va bolishlar qo‘yiladi. Zaruriy idish-tovoqlar uchun tokchalar yoki maxsus taxta shkaflar bo‘lishi mumkin. Mehmonxonaga yevropacha tartib beriladigan bo‘lsa, odatda, unda stol va atrofida stullar bo‘ladi. Zarur buyumlar uchun devor va shkaflari qo‘yiladi. Eng asosiysi, ularning changini tozalab, artib, xonani supurib, yuvib, hamma vaqt mehmon kelishiga tayyorlab turishdir. Mehmon kuzatilgach, eshik-derazalar ochilib, mehmonxonaning havosi almashtiriladi, ishlatilgan idishlar yuvilib, dasturxon va sochiqlar yuvib, dazmollanib, yana mehmon kelishiga hozirlab qo‘yiladi.

O‘zbek xonadonlarida oilaviy o‘tiradigan umumiy xona ham mavjud bo‘lib, unda ishdan, o‘qishdan so‘ng televizor tomosha qilinadi, radio tinglanadi, oilaviy davra suhbatlari quriladi. Bu xonada xizmatdan charchab kelgan xonadon sohiblari bemalol, sharqona taomilga ko‘ra, «yonboshlab» hordiq chiqaradilar.

Xonadonlarning ko‘pchiligida hozir ishxonalari, ijodxonalari, bolalar uchun darsxonalar mavjuddir. Bu xonalarda yozuv stoli, orom kursilari, kitob javonlari, yozuv-chizuv asboblari qulay qilib joylashtiriladi. Bu xona yorug‘, yozuv stollarining usti ortiqcha kitob, daftar, gazeta-jurnal, yozuv-chizuv asboblari holi bo‘lishi lozim.

Mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalarni jihozlashda devor, deraza va eshik pardalari rangining bir-biri bilan mutanosibligiga e'tibor beriladi.

Oilada ayol kishining ko'p vaqti oshxonada o'tadi. O'zbek xalqida xonadonga sovchi yoki mehmon kelsa, avvalo, oshxonadagi saranjom-sarishtalikka e'tibor beradi. Shuning uchun uy tutishda oshxona anjomlaridan foydalanish va ularni saqlashda xonadon egalariidan alohida mas'uliyat talab etiladi.

Oshxona uchun yorug', shamollatib turish oson, mehmonxona va boshqa xonalarga o'tish uchun qulay xona tanlanadi. Bu xona ham chiroyli qilib oqlangan, gaz o'choqning atrofi tez-tez yuvib turish uchun qulay qilib bo'yalgan yoki plitalangan bo'lishi kerak.

Oshxona uchun zaruriy asboblari va ashyolari: sovitgich, xontaxta yoki stol, stullar, idish-tovoq, sochiqlar, dasturxonlar, kapgir, cho'mich va ularni joylashtirish uchun taxta tokchalar (shkaf), gaz o'choq (yoki sharoitga qarab boshqa narsalar), xamir yoyish, sabzi, piyoz, go'sht maydalaydigan oshtaxtalar, taom tayyorlash uchun ishlatiladigan tuz, ziravorlar, yog' uchun alohida idishlar, turli hajmdagi kastrulkalar, laganlar, tovoqlar, mantiqasqon, chovli, taxta o'qlov, juva, elak, go'sht maydalagich, g'alvir va boshqalardir.

Oshxona kuniga bir marta tozalanib, yuvib, shamollatib turiladi, ovqat ozodalik qoidalariga rioya etilgan holda pishiriladi. Oshxonada sabzavot, meva-po'choqlar uchun alohida, suyak va ovqat qoldiqlari uchun alohida chelaklar ajratiladi, ular har kuni bo'shatilib, yuvib-tozalanib joyiga qo'yiladi.

O'zbek oilalarida mehmon kutish odobi

Mehmondo'stlik, odamgarchilik do'stona mehr-muruvvatning muhim belgilaridan bo'lib, xalqimizning asrlar davomida sayqallanib kelayotgan udumlaridan biridir. Uyg'a mehmon kelishi yaxshilikning, to'kin-sochinlikning, mehr-oqibatning, insoniylikning, muhabbatning ramzi. Mehmon kelgan uyg'a tinchlik, osoyishtalik kirib keladi, oiladagi ko'ngilsiyohliklar, gina-kuduratlar barham topadi, oila a'zolari o'rtasida tinch-totuvlik hukmron bo'ladi.

Mehmondo'stlik odamlarda insonparvarlik, saxiylik, xushmuomalalik, xushfe'llik kabi sifatlarni tarbiyalaydi, xasislik, xud-

binlikni, manmanlik, shuhratparastlik, qo‘pollik kabi illatlarni bartaraf etadi. Negaki, mehmon kelgan uyda osoyishtalik, saranjom-sarishtalik, ozodalik hukm suradi.

Xalqimiz «Mehmon otangdan ulug‘» deb bejiz aytmagan. Mehmonning ulug‘ligi bois uydagi tutilmagan idish-tovoqlar, uy asboblari ishlatiladi, ko‘pdan buyon chiqmagan qo‘ni-qo‘shnilar chiqishadi, yig‘ilib qolgan gaplar gapiriladi, maslahatli ishlar bitadi. Mehmonning shirin suhbatini mezbanning saxovatini, mehurmuruvvatini, dilxushligini oshiradi, uni zukkolikka, chaqqonlikka, ochiqyuzlilikka o‘rgatadi.

Har bir xalqning mehmon kutish udumlari turlicha, lekin qaysi millat bo‘lishidan qat’i nazar, eshikdan kelgan odamni imkoniyatiga yarasha, o‘z rasm-rusumlariga ko‘ra, kutib olishga, milliy taomlari bilan xursand qilishga harakat buyuradi.

O‘zbek xalqi azaldan mehmondo‘st xalq. Agar uyiga mehmon kelsa iloji boricha yaxshiroq siylashga, uyidagi eng yaxshi uy anjomlarini mehmon uchun ishlatishga, eng yaxshi taomlarni pishirib, ochiq chehralik bilan kutib olishga, bisotidagi barcha yaxshi narsalardan mehmonni bahramand qilishga harakat qiladi. Sharq xalqlari: «Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan» maqoliga rioya qilib, to‘satdan kelib qolgan mehmon uchun ham alohida saqlab qo‘ygan quruq mevalar, taomlar bilan dasturxon bezab, mehmonning hurmatini joyiga qo‘yadi, o‘zi yemagan narsalarni mehmonga yedirishga harakat qiladi. Bu bizning ota-bobolarimizdan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan eng yaxshi odatdir.

Mehmondorchilik turlari. Mehmon mezbannikiga ikki xil yo‘-sinda, ya‘ni maxsus taklif bilan va tasodifiy tashrif buyuriladi.

Mehmondorchilik mehmonga taklif etilishidan boshlanadi. Mezbon mehmonlarning bo‘sh vaqtini bilib, ularga qulay bo‘lgan vaqtda ularni mehmonga taklif etadi. Mehmonga oilaviy, tengdoshlar, do‘stlar, kasbdoshlar, qarindoshlar diydor ko‘rishishi, o‘zaro suhbatlashish, biron-bir tantanani nishonlash maqsadida taklif etiladi. Odamlarning mansabiga, obro‘-e‘tiboriga, davlatiga qarab yoki biror maqsadni ko‘zlab mehmonga taklif etish johil kishining ishidir.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» asarida mehmonga taklif etish qoidalarini: «Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif

qilgin va lekin taraddudlarini yaxshi ko‘rib qo‘y. Idish-tovoq, dasturxon, uy-joy, libos pokiza bo‘lsin, pokiza ko‘rpacha yoygin, ovqat va ichimliklar yaxshi bo‘lishi kerak. Ovqat va ichimliklar pokiza, totli, yaxshi bo‘lsin, qo‘l uzatgan havas bilan yesin. Taklif qilmasang, osh-suvning kamchiliklari bitta bo‘ladi, taklif qilsang, uni ko‘rgan birni ming qiladi. O‘yla, sen yeb-ichiladigan narsalarni yaxshi, pokiza qilgin, kelgan yaxshilar to‘yib turib ketsinlar. Do‘stlarni, qarindoshlarni, ular xoh uzoq, xoh yaqin bo‘lsinlar, barchasini ziyofatga taklif qil, haqlariga rioya qilgin.

Keladigan keladi, agar kelmasa, uning ko‘ngli taklif qilinganligi uchun qolmaydi»¹.

Mehmondorchilik qoidalari. Taklif etilmagan kishini, iloji bo‘lsa, yosh bolalarni to‘y, ziyofat va turli ma‘rakalarga birga olib bormaslik kerak. Mezbon qo‘ygan ovqatni maqtab, tanovul qilish, mehmon uchun quvonch bag‘ishlaydi. Mezbondan so‘roqsiz dasturxondan noz-u ne‘matlarning bir qismini olib ketish uyat hisoblanadi.

Mehmonlarning qolgan ovqatini zo‘rlab yoki tabarruk deb yedirish yoki «oshatish» o‘ta madaniyatsizlikning ko‘rinishidir. Ziyofat tugagach, mezbonga rahmat aytib, ezmalik qilmasdan, ketishiga ijozat so‘rash lozim.

Mehmon faqat taklif etilganidagina kelmasdan, tasodifan shu xonadon sohiblarining ko‘nglini so‘rash, holidan xabar olish, hamsuhbat bo‘lish uchun ham keladi. O‘zbek oilalarida har bir xonadonda mehmon uchun quruq va ho‘l mevalar, shirinliklar saqlanib qo‘yiladi. Mehmonxona doimo ozoda va saranjom bo‘lib, mehmon kutishga shay bo‘lib turadi.

O‘zbek xalqi tez-tez bir-birinikiga, turli marosimlarda yig‘ilishib diydor ko‘rishib turishga odatlangan. Bunday marosimlarning turlari ham xilma-xil bo‘lib, har biri o‘ziga xos xususiyatga egadir.

Bunday marosimlarning xususiyatiga qarab kiyim kiyiladi, muomala, o‘zini tutish madaniyatiga rioya etiladi, mehmon kutish qoidalariga rioya etiladi, mehmon kutish qoidalariga e‘tibor beriladi. Masalan, to‘y, xursandchilik, bazm, marosimlarda chiroyli kiyinish va raqsga tushib, o‘yin-kulgi qilish, shod-u xurramlik bilan ko‘ngilni olishga harakat qiladi.

¹Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. T., «Fan», 1972, 694-bet.

Motam marosimlarida esa aksincha, shu xonadon egalarining qayg‘usiga sherik bo‘lish, har qanday o‘yin-kulgidan o‘zini tutish, o‘ylab so‘zlash, kiyinishda ham shu marosimga mos qilib kiyinish, qayg‘uli, alamli mezbonning ko‘ngliga malham bo‘ladi.

Ichkilikbozlik va giyohvandlikning zararli oqibatlari va naslga ta’siri. Bunday imkoniyatlar O‘zbekistonning o‘z mustaqilligiga erishishi natijasida va erkin fikrlashga to‘liq imkoniyatlar pedagogikada sog‘lom aql, ijodiy muhit, milliy ruhiyat va an’analar, urf-odatlar, marosimlarga mos tarzda ta’lim-tarbiyani olib borish imkoniyati yaratildi. Zamonaviy milliy pedagogikamizda millat ruhiyatining nozik jihatlariga kirib borish va dunyo tarbiyashunosligida eng so‘nggi yutuqlarni ham hisobga olish uchun yo‘l ochildi. Ana shu sababli ham bugungi milliy pedagogikamiz muntazam ravishda taraqqiy etmoqda va unga barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifa qo‘yilgan.

Ayni paytda barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta’lim-tarbiya jarayonining obyektigina emas, balki subyekti, ya’ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e’tibor berilmoqda. Bu ta’lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning mustaqil hamda erkin fikrlarini ta’minlashga imkon bermoqda. Eng asosiysi, yoshlarda tarbiyalash va o‘qishga ehtiyoj uyg‘otishga yo‘naltirilgan holda ta’lim-tarbiya ishlari olib borilmoqda.

Inson dunyoga kelar ekan, baxtli bo‘lishni orzu qiladi va unga intiladi. Baxt — keng qamrovli tushuncha bo‘lib, inson hayotining mazmuni hisoblanadi. Insonning baxtli hayot kechirishini ta’minlovchi omil — bu uning sog‘lom turmush tarzidir. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga to‘sqinlik beradigan zararli odat oqibatida qanday avlod paydo bo‘ladi?

Zararli odatlardan biri — spirtli ichimliklarni iste’mol qilish bo‘lib, yoshlar o‘zlarida bu boradagi bilimlarining yetarli emasligi tufayli ularni iste’mol qilishga ruju qo‘yadi. Shu bois 5—9-sinf o‘quvchilarining ushbu odatning inson organizmiga salbiy ta’sir etishi borasidagi tushunchalar bilan qurollanishi muhim ahamiyatga ega. Manbalarda ko‘rsatilishicha, 14—16 yoshli o‘g‘il yoki qiz bolaga bir qadah vino katta yoshli odamning bir shisha aroq ichganidek yomon ta’sir etadi.

Ulug‘ rus yozuvchisi L.N. Tolstoy: «Vino insonlarning salomatligini, fikrlash qobiliyatini, oilasining tinchligini buzadi va

ayniqsa, eng yomoni ongini va naslini zaharlaydi» desa, tibbiyot otasi Gippokrat: «Idiotizm, epilepsiya singari kasalliklar — homila paydo boʻlgan kuni vino ichishning oqibati», degan fikrni bildiradi.

Spirтли ichimlikni isteʼmol qilish — salomatlik ofati. Buning eng yomon jihati — uzluksiz ichish natijasida organizm unga oʻrganadi, kishi ichmasdan tura olmaydigan boʻlib qoladi. Muntazam ravishda ichishga oʻrganish oqibatida esa, organizm qattiq zaharlanadi va kishi ichkilikbozlik kasalligiga duchor boʻladi.

Oilada bolaning tugʻilishi baʼzan quvonch emas, tashvish, gʻam keltiradi. Ichuvchi ota-onadan ishyoqmas, maʼnan qashshoq, aqlan zaif, beqaror, xunuk, badfeʼl, jinnisifat, dovdur farzandlar tugʻiladi. Bunday bolalar ota-ona uchun ham, jamiyat uchun ham falokatdir.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, 1000 ga yaqin tentak bolalarning 500 tasining onasi, 70 tasining otasi ham, onasi ham spirтли ichimlik isteʼmol qilar ekan. Fransuz shifokori Demma 28 yil davomida eri ham, xotini ham ichkilikbozlikka berilgan oʻn oilani kuzatgan. Bu oilalarda tugʻilgan 57 bolaning 25 tasi yoshiga yetmay oʻlgan, 5 tasi tutqanoq, 5 tasining bosh miyasida suv yigʻilgan, 12 tasi jinni boʻlgan, faqat 10 tasigina sogʻlom tugʻilgan.

Tutqanoq kasali bilan ogʻrigan har 100 boladan 60 tasining ota-onasi ashaddiy badmast ekan. Spirтли ichimlik turli jinoyatlar qilishning asosidir.

Keyingi yillarda aqlan zaif, jismonan nogiron bolalar sonining keskin kamayishi kuzatilmayapti. Birgina Toshkentdagi aqli zaif bolalar internatida yuzlab nogiron, basharalari qiyshiq, oyoq-qoʻli gʻujanak, koʻzlarida qoʻrquv alomati bor, mayib-majruh bolalar tarbiyalanadi. Bunday bolalar hayot lazzatidan, quvonchlari-yu tashvishlaridan bir umr mahrumdirlar. Xoʻsh, bolalarda nima ayb? Haqiqiy gunohkorlar ota-onalar va ularning atrofdagilaridir.

Zararli odatlardan yana biri — giyohvandlik XX asr vabosi sifatida tez va keng miqyosda tarqalmoqda. Oʻsmir va oʻspirinlarga bu xususida tushunchalar berish ularning ushbu odatlar bilan shugʻullanishning oldini oladi. Giyohvandlikning jismoniy va maʼnaviy zararlari toʻgʻrisida dunyo ommaviy axborot vositalari orqali koʻp maʼlumotlar tarqalyapti. Oʻzbekistonda ham bu borada bir qator xalqaro anjumanlar oʻtkazilmoqda, giyohvandlikka qarshi profilaktik ishlarni yoʻlga qoʻyish maqsadida mahalliy bir qancha tashkilotlar taʼsis etildi, xalqaro tashkilotlar faoliyat olib borayotgan boʻlsa ham, afsuski, bu ofat doirasi hanuzgacha keng yoyilmoqda.

Giyohvandlikning e'tiqodi yuksak insonlar tomonidan iste'mol qilinishi, ayrimlarning moddiy daromad orttirish maqsadida giyohvand moddalar bilan savdo qilishi hamda ko'plab yoshlarning uning qurboni bo'layotganligi achinarli holdir.

Giyohvandlik xatarli ruhiy kasallik hisoblanadi. U odamni halokatga yetaklaydi. Markaziy asab tizimida kimyo aralashmalar (marixuana, heroin, ko'knori va h.k.) yordamida qo'zg'atish uyg'otib, sarxushlikni hosil qiladi. Biroq, buning oqibatida asab tizimining faoliyati buziladi.

Bunday holatlardan qutulish uchun giyohvandlik moddasini yana qabul qilish kerak bo'ladi. Buning iloji bo'lmasa, o'zini o'ldirishi yoki og'ir jinoyatga qo'l urishi mumkin. Giyohvandlik kasalligining oxirgi bosqichida, a'zolar darddan qutulish kuchidan ajraladi. Kundan kunga holsizlanib, sog'liq yo'qoladi. Mehnat qilish qobiliyatidan butunlay mahrum bo'ladi, bamisoli tirik murgacha aylanadi. Oilaning pok turmush tarzi, dunyoqarashi, otanonaning halolligi, pokligi, mehnatsevarligi, e'tiqodi farzandlarini ichkilikbozlikdan, giyohvandlikdan, kashandalikdan asrovchi mezon hisoblanadi.

Ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandachilikning oldini olishda maktab, kollej, oila va jamoatchilik hamkorligi alohida o'rin tutadi.

Umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida, mehnat jamoalarida ichkilikbozlikning, giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida tushuntirish, targ'ibot ishlari olib borish, ko'rgazmali vositalardan, videotasmalar, kinolavhalar, ommaviy axborot vositalari, matbuot materiallari, diafilmlardan foydalanish, ko'rgazmali burchaklar tashkil etish, mutaxassislar bilan suhbatlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

6.3. Bola tarbiyasida milliy an'analardan foydalanish

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida mustaqillik yillari davomida tub o'zgarish yuzaga kelmoqda. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odobaxloq an'anasiga e'tiborini kuchaytirish shular jumlasidandir. Yurtimizda buyuk rejalar va bunyodkorlik ishlari tarixiy an'ana va tajribalarga asoslanib, aql-idrok bilan amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda, Yurtboshimiz I.A. Karimovning «Shuni aytishimiz lozimki, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda», degan fikrlarini eslatishni o‘rinli deb hisoblaymiz.

Oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar va umumiy o‘rta ta’lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, qolaversa, o‘zimizga xos bo‘lgan milliy urf-odatlarni, marosimlarni yoshlarga singdirish orqali ma’naviy jihatdan yetuk insonni tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

An‘ana har bir millatning o‘ziga xosligini ifodalab, uning ijtimoiy muhiti, turmush tarzi, yashash sharoitidan kelib chiqib, an‘analari mazkur millatning jamiyat va odamlarga bo‘lgan munosabatini ifodalasa ham, uning zamirida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi barcha xalqlarga xos bo‘lgan g‘oyalar ilgari surilganligi ham umuminsoniy ma’no kasb etadi. Xuddi shu ma’no bola tarbiyasida yetakchi o‘rinni egallashi lozim. Chunki bola ongida o‘z xalqiga xos bo‘lgan milliy an‘analarni sevish va ulardan faxrlanish tuyg‘usi milliy kalondimog‘lik darajasiga o‘tmasligi, balki har qanday millat an‘analari o‘zlari uchun qimmatli ekanligini anglab yetgan holda ularni kamsitish kerakmasligini ham tushunmoq zarur.

Har bir xalqning ta’lim-tarbiyaga oid an‘analari borki, ular pedagogik fikr taraqqiyotiga xizmat qilib, bola tarbiyasi haqidagi tasavvur va qarashlar ifodalanadi. Har bir ota-ona o‘z farzandining barkamol bo‘lishini istaydi. Bolalari har bir yutug‘idan quvonadi, mag‘lubiyatidan behad tashvishga tushadi. Farzandini baxtli ko‘rish uning uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «Farzandlar kamoli ota-ona jamoli» degan naql bor. Xuddi mana shu narsa, ya’ni ota-onalarning orzu-umidi ham, an‘ana sifatida avloddan avlodga o‘tib keladi. An‘ana pedagogikada bola tarbiyasidagi ko‘nikmalar va qobiliyatlarni bir avloddan ikkinchi bir avlodga o‘tishini ifodalaydi. Shuningdek, tarbiya vositalari, usullari va metodlari ham keyingi avlodga an‘ana tarzida o‘tadi.

Xalq pedagogikasini atroflicha o'rganish, uni oilaviy hayot mazmuniga tatbiq etish bolalarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda, tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Undan samarali foydalanib kelayotgan oilalarda yaxshi natijalarga erishilayotganini kuzatish mumkin.

O'zbek xalqida bolalar bilan bog'liq juda ko'plab yaxshi ibratli an'analar mavjud. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-shavqat, ularni sevish, parvarish qilish, ta'lim-tarbiya berish, ehtiyotlash kabi insoniy qarashlarni targ'ib qilib kelgan.

Sharq xalqlarida, ayniqsa, o'zbek xalqida bolajonlik sifati o'ta shakllangan. Bola oila quvonchi va er-xotinni bog'lab turuvchi rishtadir. Shu jumladan, bolalar kattalarning panohi, mehr-muhabbati va g'amxo'rliqi tufayli o'sadi, ulg'ayadi, kelajakda shaxs sifatida hayotda o'z o'rnini topadi. O'zbek xalqi o'ta bolajonligi uchun ham o'z farzandlarini «suyanchig'im», «belimning quvvati», «yuragimning darmoni», «hayotim quvonchi», «uyimning chirog'i» kabi so'zlar bilan erkalashadi va o'zlari ham bundan ma'naviy oziqa oladilar.


O'zbek xalqining oila, turmush an'analari orasida juda ko'p tarbiyaviy ahamiyatga molik ajoyib an'analari mavjud. Ayniqsa, insonparvarlik an'anasi o'ziga xos boshqacha bir xususiyat kashf etib, o'zbekona, sharqona tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, bu asosan, ota-onasiz qolgan bolalarni asrab olishda, ularga insoniylik, g'amxo'rlik ko'rsatishda, ota-ona mehr-muhabbati bilan parvarish qilishda, kasal va nogironlarni borib ko'rishda, ko'ngli o'ksik yetimlarga g'amxo'rlik qilishda, yaqinlari vafot etgan oilalarga ta'ziya bildirishda, dafn etish marosimlarida faol ishtirok etishda va azador xonadon sohibi ko'nglini har kim imkoniyatiga yarasha ko'tarish (moddiy va ma'naviy tomondan) kabilarda ko'rinadi. Bunday o'ziga xoslikni boshqa hech qaysi mamlakatda va millatda uchratish mumkin emas. Zero, bunday xususiyatlar bolalar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Buni biz o'zbek xalqining juda ko'pgina marosimlarida, to'y-hashamlarda, kundalik turmush tarzida ko'rishimiz mumkin.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, oilaning mustahkam bo'lishi, kishilar ma'naviy qiyofasining tarkib topishi inson turmush tarzining naqadar yuksaklik bilan tashkil etilganligi turmush madaniyatining yuksalib borishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bola shaxsiga oila sharoitida ta'sir etish doirasi kengayib borishi bilan ota-onalarning ma'naviy-axloqiy tarbiya usullaridan foydalanish ham ortib boradi. Oila, turmushning undagi bola uchun zarur sharoitini to'g'ri tashkil etish natijasida kattalarning hayotiy tajribasi, bilim malakalari, oilaviy urf-odatlar va an'analar sifatida bolaga singdirilib boriladi.

O'zbek oilalariga mansub an'analar va ularning bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'zni nihoyatda katta ekanligini hayot tajribasi isbotlagan. Bular:

1. Diniy va zamonaviy bayram an'analar.
2. Kundalik turmush an'analar.
3. Oilaning maishiy, madaniy turmush an'analar.



To'ylarning mohiyati

O'zbek xalqi qadim zamonlardan buyon to'y qilib, elga osh berib kelgan. To'ylar, odatda, kichik bayramlardek o'tkazilgan. To'yning turlari ham ko'p bo'lib, beshik to'yi, xatna-sunnat to'yi, nikoh to'yi, payg'ambar oshi to'yi, hovli to'yi, yosh sanalari bilan bog'liq to'ylar o'tkazib kelingan.

Qadimda to'ylardan ota-bobolarimiz kurash, ko'pkari, askiya, masxarabozlik, dor o'yinlari, boshqa turli tomoshalar va ko'riklarini o'tkazishgan. Zamon o'zgarishi bilan yangi-yangi g'oyalarning kirib kelishi natijasida to'ylarimizning ham shakl-u shamoyili o'zgarib bormoqda.

Oltin to'y, kumush to'y, brilliant to'y, 50, 60, 70, 80, 90, 100 yillik to'ylarni ko'pchilik bilan nishonlash odat tusiga kirib keldi. Bu marosimlarni osiyocha, yevropacha o'tkazishyapti. Xalqimizning odat-marosimlari bir-biriga qo'shilib ketdi. Bundan yangi shakl va mazmun hosil bo'ldi.

Demak, to'y marosimlari yangi qiyofaga kirdi va boyidi.

Marosimlar millat g'ururi

Xalqimizning yana bir an'anaviy marosimi hayit bayrami bo'lib, hayitlar diniy bayram sifatida nishonlanadi. Hayitlarning ikki xili mavjud bo'lib, Qurbon hayiti, Katta hayit, ya'ni Ramazon hayiti deb ataladi. Ramazon hayiti ro'za tugallangan kunning er-tasiga o'tkaziladi. Bir kun oldin arafa kuni qo'shnilar bir-birlariga taom ulashishadi.

Hayitning birinchi kuni saharda katta-yu kichik jome masjidlariga borib, hayit namozini o'qiydilar. Bechoralarning holidan xabar olinadi, o'tganlarga qurbonlik qilinish, is chiqariladi. Qabristonlarga borib, o'tganlarning ruhiga fотиha o'qiladi.

Hayitlarning har ikkisi ham odamlar o'rtasidagi mehr-oqibatni mustahkamlagan. Keksa-bemor, marhumlarni ziyorat qilishning amaliy namunasi, yoshlarga beqiyos katta maktab vazifasini o'tagan. Hayitlar ham «Navro'z» kabi xalqning qadimiy, udumiy bayramlaridir.

O'zbek oilalarida bolalarni to'g'ri tarbiyalashda, ularga axloq-odob qoidalarini tushuntirishda ota-onalar oldiga qator talablar qo'yilgan va ular an'anaviy tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan.

Chunonchi, ota-onalar bolalarni yaramas ishlardan saqlab, yaxshi ishlarga qiziqtirishar, yomon qiliqlardan asrab, odob-axloqqa, umuman, tarbiyaga zid soʻzlarni gapirmasliklari shart boʻlgan.

Umuman, oilada bolani maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy anʼanalarni ota-onalar toʻgʻri tushunib olishlari, qaysi anʼanalar qanday maqsad uchun xizmat qilishini yaxshi anglab yetishlari juda muhim. Chunki, mazkur talqin etilgan anʼanalar, urf-odatlar mazmunini, avvalo, ota-onalarning oʻzlari yaxshi oʻzlashtirib, kundalik hayotda qoʻllay olsalargina bolalarga uning taʼsiri samaraliroq boʻladi.

Mana shu maʼnoda oilalarda oʻrnashib qolgan, kuzatilgan, oʻrganilgan, xalqimiz turmush tarzida koʻp qoʻllanilayotgan anʼanalar bilan birga, butun mustaqillik sharoiti talablaridan kelib chiqib, bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda yaxshi samara berishi mumkin boʻlgan anʼanalardan oʻz xalqi va ona-Vatani bilan faxrlanish, oʻz Vataniга mehr-muhabbat bilan qarash, oʻz Vatani oʻtmishi va tarixiga cheksiz hurmat, oʻz xalqining milliy anʼanalarini eʼzozlash, mustaqil respublikamizning milliy mafkurasiga xayrxohlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik: diniy va dunyoviy urf-odatlar va marosimlariga hurmat nazari bilan qarash hamda bevosita ularga hayotda amal qilish, shuningdek, milliy onggi shakllangan, milliy eʼtiqodi zoʻr vatanparvarlarni tarbiyalash mumkin va zarur.

Yuqoridagi anʼanalarni bolalarning ongiga, tabiatiga singdirish ota-onalarning muhim vazifasi boʻlib, uni muvaffaqiyatli bajarish, ularni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda yanada keng imkoniyat yaratadi.

Xullas, oʻzbek xalqi anʼanalarga boy, ularning hammasi uning turmush tarzi, milliy xususiyati, ijtimoiy psixologiyasi, tafakkurlash usulidan kelib chiqqan boʻlib, mazkur xalqning maʼnaviyatini belgilab beradi.

Anʼanalar oʻz holicha mavjud boʻlmaydi, balki kishilarning keyingi avlodga oʻtishi uchun, ularning ijtimoiy ideallarini roʻyobga chiqarishga yordam berganliklari uchun saqlanib kelinmoqda.

Shunga koʻra, oilalarda bolalarni eng yaxshi anʼanalar ruhida tarbiyalashga intiladilar. Binobarin, anʼanalar, bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyat sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekiston Respublikasida nechanchi yil «Oila yili» deb e‘lon qilingan?
2. O‘zbek oilalarida farzandlarga nisbatan qanday xususiyatlar mavjud?
3. Oilada farzand tarbiyasini qaysi davrdan boshlamoq kerak?
4. Farzand tarbiyalashda ota-ona qanday fazilatlarini bilan namuna bo‘la oladi?
5. Oilada farzandlarni axloqiy tarbiyalashning qanday usullari mavjud?
6. O‘zbeklarga xos qanday an‘analarni bilasiz?



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. *Yusuf Xos Hojib*. Qutadg‘u bilig. T., «Fan», 1972.
2. *Faxriddin ibn Rizouddin*. Nasihat. T., «Cho‘lpon», 1993.
3. *R. Usmonov*. Saodatnoma. T., «O‘qituvchi», 1995.
4. *M. Inomova*. Oilada bolalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999.
5. Oila pedagogikasi (Professor O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., «Aloqachi», 2007.
6. *A. Muhsiyeva*. Oilada milliy tarbiyani tashkil etishning metodik asoslari. T., «Fan», 2009.
7. «Islom nuri» jurnali, 1990-yil.

7-bob. MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGI

I. Reja.

1. Maktab, oila va mahalla hamkorligining mazmuni. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar tizimi, ota-onalar bilim saviyasi.

2. Hayotiy tajribalarning bola tarbiyasida tutgan o‘rni, o‘qituvchining ota-onalar bilan ishlash usullari.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda oila-mahallaning hamkorligi.

4. «Maktab, oila va mahalla hamkorligi» Konsepsiyasi. «Maktab, oila va mahalla hamkorligi» Konsepsiyasining mazmuni, shaxs yetukligi va tarbiya samaradorligini oshirish.

II. Mazkur mavzuning maqsadi: oilada tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarimizdan hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasining yutuqlaridan keng foydalanish, barcha mahallalar qo‘mitalari qoshidagi yoshlar bilan ishlash bo‘limlari ishini o‘rganish, tahlil qilish. O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘zgarishlar «Oila, mahalla va maktab hamkorligi» yo‘nalishida bola tarbiyasida oila, mahalla va maktabning asosiy vazifalari mazmunini yangilab, hayotga tatbiq etish.

III. Mavzuning vazifalari:

- oilaning mahalla va qo‘ni-qo‘shnilar, maktab bilan yaqin aloqada bo‘lishi;

- oilada milliy qadriyatlarga to‘liq amal qilinishi;

- oilada muomala munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi — shu kunning dolzarb vazifalari.

IV. Tayanch iboralar: hamkorlik, konsepsiya, usul, jamoa, mahalla.

7.1. Maktab, oila va mahalla hamkorligi

Oilada bola tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda ta’lim muassasalarining va o‘zbek mahallalarining roli kattadir. Chunki qadimdan o‘zbek xalqi mahalla-kuy, qo‘ni-qo‘shnilar bilan hamjihatlikda yashab

kelishgan. Har bir oila biron-bir tadbir o'tkazmoqchi bo'lsa, avvalo, mahalla bilan, uning obro'li oqsoqollari bilan maslahatlashgan, o'zlarining muammolarini shu yerda hal qilishga harakat qilishgan. Mahalladoshlar o'rtasida mehr-oqibat kuchli bo'lgan. Ayniqsa, mahalla, qo'ni-qo'shnilar bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Yosh oilalar uchun turli maslahatlarini darig' tutishmagan.

Milliy mustaqillikka erishishimiz sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz tiklanishi, mahallalarning an'anaviy faoliyatini keng yo'lga qo'yishga imkon tug'ildi. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning Farmoni bilan «Mahalla» xayriya jamg'armasi tuzildi. «Mahalla» xayriya jamg'armasi mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan va ular bir maqsadga qaratilgan holda olib boradigan ko'ngilli mahalliy boshqaruv hisoblanadi. Uning eng muhim vazifalaridan biri mahalladagi oilalarni mustahkamlash, oilada bola tarbiyasini jamoatchilik asosida nazorat qilishdan iboratdir. Mahallalar orqali oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda oila bilan jamoatchilik hamkorligini ta'minlash bugungi kunda umumdavlat ahamiyatiga molik ishga aylandi.

Mahalla arabcha so'zdan olingan bo'lib, «Mahalla» — joy, o'rin, makon ma'nolarini bildiradi. U O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitda ma'muriy-hududiy birlik, uyushma hisoblanadi. Mahallalar qadimgi Movarounnahr hududida vujudga kelgan bo'lib, Narshaxiyning IX asrda yozilgan «Buxoro tarixi» asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir necha mahalla bo'lganligi qayd etilgan. Mahalla o'zini o'zi boshqaruv tizimining muhim milliy-ijtimoiy organi bo'lib, u O'zbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy ko'rinishidagi shakli hamdir.


1992-yili respublikamizda 8 mingga yaqin, Toshkentda 279 mahalla mavjud edi. 1993—1994-yillarda mamlakatimizda 12 mingdan ortiq, Toshkent shahrida esa 481 dan ortiq mahalla faoliyat yurita boshladi.

Yoshlar muomala qilish madaniyatini, avvalo, oiladan, ustozidan, keyin qo'ni-qo'shnilardan o'rganishi barchaga ayon. O'g'il-qizlar kelajakda qanday inson bo'lib kamol topishida qo'ni-qo'shnilar katta ahamiyat kasb etadi. Qo'ni-qo'shnichilik odobi va madaniyati o'zbek axloqiga xos hayotiy ma'no va mazmun mavjudki, buni yoshlar tushunib yetishi, bevosita qo'ni-qo'shnichilik, mahallachilik odobiga amal qilishi, ular kelajakda namunali insonlar

bo‘lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, «Qo‘shning bor, oshing bor», «Qo‘shning tinch, sen tinch», «Hovli olma, qo‘shni ol» kabi xalq maqollari zamirida katta hayotiy, falsafiy mantiq bor. Zero, biz kattalar yoshlarga mahallaning ahilligini, tinchligini ta‘minlovchi qo‘ni-qo‘shnichilikning asl mohiyatini tushuntirib borishimiz lozim.

Shuni ta‘kidlash lozimki, qo‘ni-qo‘shnichilik udumlarini mensimaydigan, uni oyoq osti qiluvchi kimsalar ham uchrab turadi. Qo‘ni-qo‘shnichilikning qadriga yetish, uni pokiza saqlash, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlab borish muhimligining qator maqollarda ifodalanganini ko‘rish mumkin. «Qo‘shning yomon bo‘lsa, ko‘chib qutulasan», «Qo‘shning sirini qo‘shni ochadi» kabi maqollarda hasadgo‘y, nomard kishilarning fe‘li ifodalanganligini ko‘rish mumkin.

Xalqimizning bebaho udumlari, odatlari va tarbiya usullari shunchalar serqirradi, uning har bir ko‘rinishida juda katta ma‘no yotadi. Qadimda agar ota uyda o‘tirgan bo‘lsa, bola botinib, shu uyning tomiga chiqishga jur‘at etmagan. Bu uyda otam o‘tiribdi-



lar, men u kishining boshiga qanday chiqaman, degan andishaga borilgan. Yoki ot minib o'tayotgan yigit choyxona oldiga kelganda otdan tushib, o'tirganlarga salom berib, ancha nariga borgach, yana otiga minib, yo'lida davom etar ekan. Bularni ko'rgan mahalla bolasi undan ma'lum xulosa chiqarib olishi tabiiy holdir.

Shaxs kamolotidan respublikaning barcha ijtimoiy tashkilotlari va mehnat jamoalari, shuningdek, aholining barcha tabaqalari oila mushtarakligini kuchaytiradi va yoshlar ta'lim-tarbiyasi mazmunining xalqaro me'yorga ko'tarilishiga olib keladi.

Maktab — aholining, birinchi navbatda, ota-onalarning pedagogik o'quvini amalga oshiradi, har bir oilada o'zaro hurmat, bir-biriga yordam, insoniy munosabatlar muhiti yaratilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Oila esa, o'z navbatida, o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda maktabga yaqindan yordam berib, o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoni barcha jabhalarini egallashlari uchun maktab jamoasiga yaqindan ko'maklashadi.


Bugungi kunda barkamol yoshlarning kamol topishida ko'pgina tarbiyaviy omillar, ya'ni maktab, oila va jamoatchilikning o'zaro kelishilgan hamkorligiga muhtojlik tobora kuchaymoqda. Chunki, maktab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq omillariga, imkoniyatlariga ega.

Maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiya esa ko'pgina pedagogik, psixologik qoidalarga amal qilinmagan, maktab tomonidan qo'yiladigan talablar bilan kelishilmagan holda amalga oshiriladi. Natijada maktab tomonidan o'tkazilgan tarbiyaviy ta'sir o'z kuchini yo'qotadi. Bunday holat bolalarning nazoratdan chetda qolishi, oxir-oqibatda, tarbiyasi qiyin bolalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Maktabdan keyingi tarbiyaviy ishlarda murakkab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Mana shunday ko'ngilsiz holatlarning oldini olishda maktab, oila va jamoatchilikning hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Unda mahallalar bilan yaqindan aloqa o'rnatish, mahalla va maktab tarbiyaviy dasturida o'zaro aloqadorlik bo'lishi, ota-onalar qo'mitasi va bolalar bilan ishlash nazoratchilarning ish dasturlari mahalla ahli va oqsoqollar kengashida muhokama qilinishi tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishishda yordam beradi.

Jumladan:



Maktab, oila va jamoatchilikning yoshlar tarbiyasi borasidagi faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida zamon talablaridan kelib chiqqan holda zaruriy uslublarni ishlab chiqish, ular hamkorligining mazmunini aniqlash, maqsad va vazifalarini belgilash muhimdir.

Mazkur masala yuzasidan respublika maktablarida oila va jamoatchilik bilan hamkorlik olib borilayotgan ishlar o'rganilib, tahlil qilinganda quyidagi ish uslublari mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi:

- *birinchidan*, ota-onalar bilan ishlashda, asosan, onalar maktabi, otalar maktabi, pedagogik bilim berish universiteti, oilaviy tarbiya, tajribalarni o'rganish bo'yicha konferensiyalar, savol-javob kechalari, dam olish kuni jamiyati va klublari, oilalararo musobaqalar va turli tanlovlar (bola tarbiyasi, ozodalik, saranjom-sarishtalik, oilada bolalar burchagi tashkil qilish, sport, to'g'ri mehnatni yo'lga qo'yish, namunali oilalar, eng yaxshi ota-onalar, hovlilar, tarbiyali farzandlar to'g'risida) tashkil etish;

- *ikkinchidan*, maktab o'quvchilarining ota-onalar bilan ishlashi, ya'ni o'qituvchilar maktab tarixi, qishloq yoki shahar o'tmishi va hozirgi kundagi faoliyati, uning aholisi, tarkib topgan xalq an'analari bilan muntazam tanishtirib boriladi. Ilmiy-amaliy konferen-

siyalar, dam olish kechalari, tarixiy obidalar va turli qadamjolariga sayohatlar uyushtiriladi. Ota-onalarning maktab kabinetlarini jihozlashda, obodonlashtirish, bezatishda qatnashishlari ta'minlanadi;

- *uchinchidan*, o'quvchilar bilan ishlash yuzasidan dam olish klublari, jonajon o'lka bo'ylab yurishlar, «Balli, qizlar», «Balli, yigitlar», «Nima, qayerda, qachon?» musobaqasi va tanlovlar, kasb haqida suhbatlar, to'garaklar, seksiyalar, turli jamiyatlar va boshqalarning ishlarida faol ishtirok etishlari ta'minlanadi.

Oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishi ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi — ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Bu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o'tkazilgan tadbirlarning ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz.

1. Ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar.

Suhbatlar yakka hamda umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarining ijtimoiy onglikka hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlari o'tkazish mumkin. So'rovnomalar ikki turda bo'lib, ulardan birinchisi har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga, ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalardir. Quyida birinchi turdagi so'rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz.

«Siz o'z farzandingizni qay darajada bilasiz?» so'rovnomasi quyidagicha:

1. *Farzandingiz ushbu o'quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?*

2. Farzandingizning so‘nggi o‘quv yilidagi o‘zlashtirish darajasi sizni qoniqtiradimi?

3. Farzandingizning fanlarga bo‘lgan munosabati qanday?

4. Uning fanlarga bo‘lgan qiziqishini baholay olasizmi?

5. Ijtimoiy munosabatlar (oilada, jamoada, keng jamoatchilik o‘rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?

6. Farzandlaringiz mansub bo‘lgan mikromuhitning ma‘naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do‘stlashgan, ularning ma‘naviy qiyofasi sizning talablaringizga javob bera oladimi?

7. Salbiy aloqa yoki ta‘sir guvohi bo‘lganmisiz?

8. Uning oilada tutgan o‘rni qanday?

9. O‘quv yurtida, oilada vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

II. Maktabning o‘quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

a) guruh ota-onalar majlisi. Majlis o‘quv yili davomida 5 marta o‘tkaziladi, ya‘ni o‘quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o‘quv yurtining ichki tartib-qoidalariga, umumjamo‘a ijtimoiy me‘yorlarga rioya etish holati, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil qilinadi, navbatdagi davr uchun qilinadigan ishlarni ijobiy hal etish chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda tarbiya va ta‘lim olayotgan, jamo‘a hayotida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida faollik ko‘rsatayotgan, o‘qishda, mehnatda alohida o‘rnak bo‘layotgan tarbiyalanuvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

Ayrim ota-onalarning o‘quv yurtida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol qatnashmasliklari aytib o‘tilib, buning sabablari aniqlanadi, bunday holatlarga barham berish borasida fikrlashib olinadi;

b) umumta‘lim maktab ota-onalar majlisi. Ota-onalar umumiy yig‘ilishida o‘quv yili davomida o‘quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o‘quvchilarning intizomiy xulq-atvori, ijtimoiy me‘yorlarga amal qilishlari, o‘quvchilarni ma‘naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishilayotgan natijalar bilan tanishtiriladi.

O‘quv yili yakunida bo‘lib o‘tgan umummaktab ota-onalar majlisida maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, huquqiy mazmundagi tadbirlarni uyushtirishda alohida ibrat ko‘rsatgan,

shuningdek, muayyan fanlar olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashgan bir guruh o'quvchilar va ularning ota-onalari rahmatnomalar bilan taqdirlanadi.

Bunday ma'ruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy, shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, bu borada ta'lim muassasasi bilan hamkorlik o'rnatish kabi masalalarni hal etishi zarur.

7.2. Maktab, oila va mahalla hamkorligi Konsepsiyasi

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida oilaning jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyatini anglab yetadigan komil insonni tarbiyalashdagi o'rniga alohida e'tibor beriladi. Mamlakatimizda qabul qilingan ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan mustaqil fikrlovchi kadrlar tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi. 1993-yilda ishlab chiqilgan «Oila, mahalla va maktab hamkorligi» Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalari g'oyalari sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim hujjat bo'ladi.

«O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onalar har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vataniga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlari va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlarga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;
 - farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
 - o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;
 - ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishlari;
 - bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;
 - oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;
 - sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarini singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
 - oila, maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir;
 - sog'lig'ida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-korlik berishdan iborat.
- Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari

«Bir bolaga yetti mahalla — ota-ona» degan naqldan kelib chiqib kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish va oqilona yechimlarni topishda faollik ko'rsatish;
- mahalla o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarning bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi;

- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;

- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

- ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy ongliklik, baynalmilallik kabi xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;

- yoshlarga diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

- mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalari, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlari targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

- «Sog'lom avlod uchun», «Mahalla», «Ekosan», «Ulug'bek», «Nuroni» jamg'armalari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash ishida muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarning imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish;

- mahalla hududida o'quv-tarbiya masalalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish;

- turli yo'nalishda iqtidorli bo'lgan o'quvchi-bolalarni maktablar tavsiyasiga ko'ra, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- ilg'or pedagog xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko'rsatish;

- farzandlariga ta'lim-tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida «Oila saboqlari» mashg'ulotlarini tashkil qilish;

- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va «Usta — shogird» rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari ajratilishiga erishish;

- har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish.

O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va respublika rahbariyatining dasturi mazmunidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak, ya’ni;

- maktabda bolaga biron-bir kasb-korni egallash uchun mustahkam poydevor yaratish;

- o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordam berish, ularning bo‘sh vaqtlarini, imkoniyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘arak mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

- bolalarga ta’lim berishni ilg‘or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o‘quv-uslubiy dasturlari asosida tashkil etish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta’minlash;

- o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo‘yicha kasb asoslariga yo‘naltirish va ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy-tarbiyaviy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

- o‘z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo‘lida muvofiqlashtirish;

- tarbiyasi og‘ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;

- bolalar tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorlikda o‘rganib, tajribalarini ommalashtirish;

- o‘qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo‘liga kirib ketgan o‘smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko‘rib, ota-onalar yig‘ilishlarida muhokama qilish;

- tarbiya subyektlari bo‘lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va «Ekosan», «Qizil yarim oy» kabi barcha jamg‘arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo‘yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarinig bola tarbiyasiga bo‘lgan mas’uliyat va javobgarlikni muvofiqlashtirish;

- turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma’naviy, ma’rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi maktab bo‘lishiga erishish;

- o‘quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ‘ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g‘oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashni tashkil qilish;

- ta’lim muassasalari nizomlari asosida o‘quvchilarni maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o‘quvchilar libosida ta’lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta’minlash;

- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish, o‘smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish;

- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma’naviy va ma’rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar universitetlari» faoliyatini tashkil qilish.

O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

- ta’lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilar harakatining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;

- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;

- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalar berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, «Yosh onalar va otalar maktablari» faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhlari, «yakshanbalik maktablari» ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6—11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, ularning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlar (11—16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql-zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhlari va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarning (16 va undan ortiq) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish, Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.



NAZORAT SAVOLLARI

1. «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasi qachon qabul qilindi?
2. O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida oilaning vazifalarini sanab bering.
3. Yoshlar tarbiyasida mahallaning qanday vazifalari bor?
4. Oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari qaysilar?



TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. *Rizouddin ibn Faxriddin*. Oila. T., «Mehnat», 1991.
2. *O. Musurmonova*. Oila ma’naviyati — milliy g‘urur. T., «O‘qituvchi», 1999.
3. *M. Inomova*. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999.
4. Oilada barkamol avlod tarbiyasi (Professor O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., «Fan va texnologiyalar», 2010.
5. *O. Hasanboyeva, M. Ortigov, M. Mamajonov*. Oilada o‘smirlarni tadbirkorlikka tayyorlashda moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligi. T., «Fan va texnologiyalar», 2011.

**8-bob. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB
O‘QITUVCHISI VA O‘QUVCHILARINING ODOB-
AXLOQ QOIDALARINING TA‘LIM-TARBIYA
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mamlakatimizni rivojlantirishning ma’naviy negizlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatdi:

- umumiy insoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Yurtboshimiz bildirgan yuksak ma’naviy tarbiyani amalga oshiruvchi g‘oya va ko‘rsatmalari barkamol avlodning odob-axloq tarbiyasini yanada samarador bo‘lishga chorlaydi.

Xalq ta’limi vazirining 2013-yil 28-fevral 74-buyrug‘i asosida umumiy o‘rta maktab o‘qituvchi va o‘quvchilarining «Odob-axloq qoidalarini» tasdiqlandi va ta’lim muassasalarida tatbiq etildi.

Mazkur buyruqni amalda oshirishda maktab jamoasi, o‘qituvchi, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha yetakchilar, ota-onalar mas’uldirlar.

Mazkur «Odob-axloq qoidalarini»ning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, yosh avlodga zamon talablari va milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish, ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonining sifati va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga sharoit yaratishdan iboratdir.

«Odob-axloq qoidalarini»ning asosiy vazifalari:

- umumiy o‘rta ta’lim maktablari a’zolarining ma’naviy immunitetini shakllantirish va mustahkamlash;
- o‘quvchilar orasida odob-axloqni buzishni, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni tashviq qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarning oldini olishga, yoshlarni ichkilikbozlik va giyoh-

vandlik illatlaridan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, past saviyali «ommaviy madaniyat» xurujlaridan himoya qilishga ko'maklashishdan iborat.

Jamoa a'zolarining odob-axloqiga oid qoidalar.

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida hamjihatlik, o'zaro ishonch, hurmat, bir-biriga g'amxo'rlik qilish hamda ahil-inoqlik jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir.

- Jamoa a'zolari umumiy o'rta ta'lim maktabiga muassasa Ustavida belgilangan kiyimda kelishi lozim.

- Ta'lim muassasasida har bir jamoa a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini o'zaro hurmat qilinishi, jamoa a'zolari o'zaro munosabatlarda «Siz» deb murojaat qilishi odat tusiga kirishi lozim. Ularning bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, o'zaro munosabatlarda behayo so'zlar ishlatishi qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

- Jamoa a'zolari umumiy o'rta ta'lim maktablari hududida yurganda bir-biriga o'zaro hurmat ko'rsatib, yo'lak yoki koridorning o'ng tomonidan yurishlari, bir-biriga duch kelganda, albatta, salomlashishlari kerak. Bunda o'quvchilar o'qituvchilarga, o'g'il bolalar qizlarga, kichik yoshdagilar katta yoshdagilarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi (ushbu holatlarda qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar yoki xotin-qizlar birinchi bo'lib qo'l uzatganidan keyingina ularga javoban qo'l uzatish mumkin).

- Ta'lim muassasalari binolariga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, o'quvchilar o'qituvchi va xodimlarga, o'g'il bolalar qizlarga, yuqori sinf o'quvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilariga yo'l berishlari lozim.

- Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki umumiy o'rta ta'lim maktabining ichki munosabatlariga taalluqli masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

- Kompyuterlarda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, foydalanish va targ'ib etish qat'iy man etiladi.

- O‘qituvchilar va o‘quvchilar tasdiqlangan mashg‘ulotlar javdali asosida ishga va darsga o‘z vaqtida kelishi, ish kuni va dars jarayonidan unumli foydalanishlari lozim.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlari.

- O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlari «ustoz-shogird» an‘anasiga asoslanishi lozim.

- O‘qituvchi sinfga kirib kelishi bilan o‘quvchilar hurmat yuzasidan o‘rinlaridan turib kutib olishlari va baravariga «Assalomu alaykum!» deb salom berishlari, o‘qituvchi ruxsatidan so‘ng o‘rinlariga o‘tirishlari odobdan hisoblanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv kunining birinchi dars soatida, yuqori sinf o‘quvchilari har bir darsda sinfga kirgan fan o‘qituvchisiga xuddi shunday tartibda munosabatda bo‘ladilar.

- O‘quvchilarning dars mashg‘ulotlari davomida o‘zboshimchalik bilan maktabdan tashqariga chiqib ketishi taqiqlanadi.

- Maktabda dars mashg‘ulotlarining boshlanishi va tugashi «Kirish» va «Chiqish» qo‘ng‘iroqlari bilan tartibga solinadi. «Kirish» qo‘ng‘irog‘i dars boshlanganligini bildirib, u chalingandan so‘ng barcha o‘quvchilar va dars jadvalida belgilangan fan o‘qituvchilari zudlik bilan tegishli sinf xonalariga kirib, mashg‘ulotni boshlashlari lozim.

- Dars mashg‘ulotining tugaganligini bildiruvchi «Chiqish» qo‘ng‘irog‘i o‘qituvchi uchundir. O‘qituvchi mashg‘ulot yakunlanganligini e‘lon qilgandan keyingina o‘quvchilarning sinfdan chiqishlariga ruxsat beriladi. «Chiqish» qo‘ng‘irog‘i chalingandan so‘ng o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni uzoq vaqt sinf xonasida ushlab turishga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘qituvchi sinfdan chiqayotganda o‘quvchilar o‘rinlaridan turib, «Xayr, salomat bo‘ling!» deb hurmat ko‘rsatadilar.

- Dars mashg‘ulotlari va tadbirlar vaqtida qo‘l telefonlaridan foydalanish barcha uchun taqiqlanadi. Maktabda o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilar) boshlanishidan oldin o‘quvchi va o‘qituvchilar qo‘l telefonlarini o‘chirib qo‘yishlari lozim. Shuningdek, maktab hududiga kirib kelishda har bir o‘quvchi, o‘qituvchi, xodim va boshqa tashrif buyuruvchi shaxslar o‘z qo‘l telefoni abonentining chaqiruv ovozi to‘liq o‘chirib qo‘yishi (telefonni «ovozsiz» rejimga o‘tkazishi) shart.

O'qituvchilarning o'zaro munosabatlari.

- O'qituvchilar o'zaro munosabatlarda — yagona jamoa, o'zaro hurmat, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga amal qilishlari lozim.

- O'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish man etiladi.

- Maktab ma'muriyati va o'qituvchi-xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo'yicha hamkorlik qilishda bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o'tkazishiga yoki shunga harakat qilishiga, shuningdek, adolat tamoyillariga yoki ta'lim muassasasi manfaatlariga zid bo'lgan qarorlar tayyorlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

- Jamoada biron-bir masala bilan ma'muriyatga murojaat qilish o'rnatilgan tartibda tashkil etiladi.

- O'qituvchi va boshqa xodimlarning ta'lim muassasasida ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

- Ma'muriyat o'qituvchilar va xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuter, Internet tarmog'i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek, dam olishlari va jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish choralari ko'radi.

Maktab jamoasi a'zolarining odob-axloqqa oid majburiyatlari.

O'qituvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari:

- maktab manfaatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish;
- biron-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, zudlik bilan ma'muriyatni xabardor qilish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabining sha'ni va nufuziga dog' tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;

- dars jarayonida o'quvchilarga odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni keng tushuntirib borish;

- yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni zararli odatlardan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, past saviyali «ommaviy madaniyat» xurujlaridan ogoh etib borish.

O'quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari:

a) ta'lim muassasasi hududida:

- maktabga mashg'ulotlar boshlanishidan 10—15 daqiqa oldin, ta'lim muassasasi Ustavida belgilangan o'quvchilar libosi (formasi)da kelish;

- toza va orasta kiyinish, saranjom-sarishta yurish, sochlarni ozoda va tartibga keltirilgan holda tutish (o'g'il bolalar sochlarining uzunligi me'yor (2—3 sm) dan oshmasligi, qiz bolalar ixcham zirakdan tashqari, boshqa taqinchoqlarni taqmasligi lozim);

- chiqindilarni faqat maxsus belgilangan idishlarga tashlash;

- ustozlar va maktab mehmonlari bilan uchrashganda salom berish;

- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;

- ta'lim muassasasi mulki (parda, stol, stul, doska, o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokazolar)ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- maktab yo'laklarida tinchlikni saqlash, baland ovozda gaplashmaslik;

- maktabga o'quv qurollari, dars jadvalida belgilangan darsliklar va daftarlar bilan kelish (o'quvchilar uchun mo'ljallangan papka tutishi, kundalik daftarining bo'lishi, ma'naviyatga zid rasmlar tushirilgan yozuv daftarlaridan foydalanmasligi);

- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik.

b) dars vaqti (sinf xonalari)da:

- dars jarayoniga halal beradigan harakatlar qilishdan saqlanish;

- uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish;

- dars vaqtida o'rinsiz gaplashmaslik;

- jihozlarni asrab-avaylash, partalarga, stol va stullarga chizmaslik;

- qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;

- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

d) tanaffusda:

- tanaffusdan unumli foydalanish;

- o'z o'qish joyini toza saqlash va tartibga keltirish;

- navbatdagi dars bo‘ladigan xonaga o‘z vaqtida o‘tish;
- fan o‘qituvchisining ko‘rsatmasi bo‘yicha sinfni kelgusi darsga tayyorlash;
- katta tanaffus vaqtida navbatchi o‘quvchilar tomonidan sinf xonasining tozaligini ta‘minlash.

e) maktab oshxonasida:

- ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘llarni yuvish;
- umumiy ovqatlanish joylarida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;
- taomlarni olishda «navbatga turish» tartibiga rioya qilish;
- tirbandlik holatida ustozlar, yosh bolalar va qizlarga hurmat ko‘rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
- issiq va suyuq ovqatlarni olishda va iste‘mol qilishda ehtiyotkorlik ko‘rsatish;
- oshxonadan olingan ovqat va ichimliklarni oshxonaning o‘zida iste‘mol qilish;
- ovqatlangandan so‘ng idishlarni yig‘ishtirib qo‘yish.

f) maktab kutubxonasi va axborot-resurs markazi (ARM)da:

- kutubxona va ARM xodimlari bilan hushmuomalada bo‘lish;
- kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- baland ovozda so‘zlashmaslik va boshqa kitobxonlarga xalaqit bermaslik;
- qog‘oz va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

g) sport majmualarida:

- sport majmuasiga xos bo‘lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- sport inventarlaridan oqilona va samarali foydalanish;
- mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga to‘liq rioya qilish.

Bundan tashqari, o‘quvchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- o‘zining namunaviy xulqi va bilimi bilan atrofda qilishda o‘quvchilik odobi haqida ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;

- ko‘cha-kuyda bemaqsad yurmaslik, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish, jamoat transportlarida kekxa, nogiron va yosh bolali yo‘lovchilarga joy berish;

- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur anglash;

- o‘z maktabi manfaati, uning sha‘ni va nufuzi to‘g‘risida qayg‘urish, ularni saqlashda jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

Maktab jamoasi a‘zolarining odob-axloqida man etiladigan holatlar.

Quyidagilar o‘qituvchilarga man etiladi:

- jamoa a‘zolari va boshqalarning shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish;

- o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlaridan asossiz chiqarib yuborish;

- o‘quv mashg‘ulotlarida diniy tashviqot olib borish;

- o‘quv mashg‘ulotlariga spirtli ichimliklar iste‘mol qilgan, soch-soqolni tartibga keltirmagan va kiyinish odobiga rioya qilmagan holda kelish;

- maktab hududida spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish.

Quyidagilar o‘quvchilarga man etiladi:

- mashg‘ulotlar yakunlangunga qadar maktab hududidan o‘qituvchilar ruxsatisiz tashqariga chiqish;

- o‘qituvchilarga va boshqa o‘quvchilarga nisbatan hurmatsizlik qilish;

- o‘qituvchilarni chalg‘itish bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish;

- yozma ishlar va oraliq nazoratlarini bajarish vaqtida chetdan yordam so‘rash, o‘zgalarga yordam ko‘rsatish;

- boshqa o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirish;

- mashg‘ulotlarga kechikib kelish yoki qatnashmaslik;

- moddiy jihatdan yaxshi ta‘minlanganligini turli yo‘llar bilan namoyish qilish.

Rag'batlantirish va chora ko'rish tartibi.

O'quv yili davomida «Odob-axloq qoidalari»ga to'liq rioya qilgan, ta'lim muassasasida yuksak ma'naviy-axloqiy muhitning qaror topishiga va yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a'zolari quyidagicha moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi:

- o'qituvchilarga maktab direktorining buyrug'i bilan tashakkurnoma e'lon qilish, ularni tarmoq va davlat mukofotlariga tavsiya qilish;
- «Faxriy yorliq» bilan taqdirlash;
- qimmatbaho va esdalik sovg'alar bilan mukofotlash;
- maktab radiosi orqali e'lon qilish;
- «Eng faol o'quvchi» nominatsiyasini berish;
- o'quvchilar ota-onasining ish joyiga yoki mahalla fuqarolar yig'iniga tashakkurnoma yuborish.

Jamoa a'zolari «Odob-axloq qoidalari»ni buzganida ularga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llaniladi:

- o'qituvchilarga maktab direktorining buyrug'i bilan «hayfsan» e'lon qilish;
- o'quvchining kundaligiga tanbeh yozish;
- boshqa sinfga o'tkazish;
- sinf jamoasi orasida muhokama qilish.

«Odob-axloq qoidalari»ga rioya etilmaganlik holatlari ta'lim muassasasidagi «Kamolot» YIH, xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkilotlari va ota-onalar kengashlarida ham muhokama qilinishi mumkin.

«Odob-axloq qoidalari» har bir o'quvchiga va ularning ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ga hamda o'qituvchilarga imzo qo'ydirilgan holda yetkaziladi. «Odob-axloq qoidalari» maktabda barchaga ko'rinarli tarzda joylashtirib qo'yiladi. «Odob-axloq qoidalari»ning talablarini har bir o'qituvchi va o'quvchilar to'liq bilishi va unga qat'iy amal qilishi shart.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi va o'quvchilarining «Odob-axloq qoidalari»dan foydalanishi sinf va maktabda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar rejasi bilan uyg'unlashtirilganda ijobiy ahamiyat kasb etadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. «Odob-axloq qoidalari» qachon va kim tomonidan joriy etilgan?
2. «Odob-axloq qoidalari»ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabati qanday bo'lishi kerak?
4. O'quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari nimalardan iborat?

MUSTAQIL ISH

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2013-yil 28-fevraldagi 74-buyrug'i bilan tasdiqlangan «Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchi va o'quvchilarining «Odob-axloq qoidalari»ni har tomonlama puxta o'zlashtirib olish.

TEST SAVOLLARI

1. Tarbiyaning maqsadini belgilaydigan omillar qaysilar?

- A. Muayyan jamiyatdagi ilg'or fikrli odamlarning qarashlari va intilishlari;
- B. Jamiyat rivojlanishining moddiy, ijtimoiy negizlari va obyektiv ehtiyojlari;
- D. Jamiyatdagi taraqqiyotning darajasi;
- E. Muayyan jamiyatdagi pedagogik nazariyaning ahvoli va maktab oldidagi vazifalar.

2. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi»ning asosiy manbalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang:

- A. Asosiy umuminsoniy qadriyatlar, islom ta'limoti, milliy urf-odatlar, donolar bisoti, O'zbekiston Respublikasining ramzlari, madhiyasi, bayrog'i, Konstitutsiyasi, O'zbekiston maktablaridagi ilg'or tajribalar;
- B. Pedagogik mahorat va tarbiyachilik san'ati;
- D. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi;
- E. To'g'ri javob yo'q.

3. Tarbiya metodlarini klassifikatsiyalash qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy;
- B. Suhbat, kuzatish, anketa, ilmiy amaliyot o'tkazish, reyting;
- D. Suhbat, ma'ruza, shaxsiy namuna;
- E. Topishmoq, pedagogik talab, maqtash, jazolash.

4. Ibn Sinoning qaysi asarida tarbiyaning usullari sanab o'tilgan?

- A. «Tib qonunlari»;
- B. «Donishnoma»;
- D. «Yakbirmoma»;
- E. «Tadbir al-manozil».

5. «*Shirin soʻz koʻngillar uchun bamisli asaldir*». Ushbu hikmatli soʻz muallifi toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni aniqlang:

- A. Kaykovus;
- B. Xorun ar-Rashid;
- D. Alisher Navoiy;
- E. Zahiriddin Muhammad Bobur.

6. *Jamoa — bu ...*

A. Odamlarning biron-bir muayyan ijtimoiy ahamiyati boʻlgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy formasidir;

B. Guruh rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzishda guruh faollari, talabalar, ota-onalarni jalb qiladi;

D. Oʻqitish va oʻqishning dialogik savol-javob usuli;

E. Oilaga xizmat koʻrsatishga doir mehnat koʻnikmalari rivojlanishi bilan talabalarning mehnat faoliyati sohasini kengaytirishdir.

7. *Barkamollik funksiyasi bir necha omillarga bogʻliq:*

A. Yuksat maʼnaviyatlilik;

B. Komil inson boʻlish;

D. Yuqori texnologiyalarni oʻzlashtirish;

E. Barcha javoblar toʻgʻri.

8. *Guruh faoliyatining turlari va asosiy vazifalari:*

A. Geografik mavzular mazmunini qiyoslash, taqqoslash va tahlil qilish;

B. Dunyoqarash asoslarini shakllantirib tarbiyalash, siyosatni tushunish, olamning bir butun materiya ekanligi, tabiat qonunlari va hodisalarini sharhlash, tarixiy kunlarni nishonlash, pok vijdonlilik ruhida tarbiyalash;

D. Mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga yoʻllash;

E. Fan va texnika yangiliklari, kino, ilmiy ommabop kitoblar, boy manbalar bilan tanishtirish.

9. *Tarbiyaning tamoyillari toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni belgilang:*

A. Kuzatish, savol-javob, suhbat, ilmiy tajriba;

B. Onglilik, koʻrgazmalilik, mustahkamlik, mustaqillik, erkinlik;

D. Ijtimoiy ongni shakllantirish, koʻrgazmalilik, insonparvarlik va demokratlilik;

E. Maqsadga qaratilganligi, hayot bilan bogʻliqligi, ong bilan xulq birligi, oila va maktabning hamkorligi, talabchanlik, hurmat, sistemalilik, yosh va insonparvarlik xususiyatlarini hisobga olish, uzluksizlik tamoyillariga amal qilish.

10. Guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

A. Shaxs sifatida o‘rganish, rejimga rioya qilish;

B. Yuqori g‘oyaviylik va onglilik, obro‘, ehtirom va hurmatga ega bo‘lish, madaniy qobiliyat, pedagogik mahorat, pedagogik odob talablariga ijodiy munosabatda bo‘lish, mustaqil bilim olish qobiliyati, tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo‘lish;

D. Tarbiyalashni tashkil etish, pedagogik mahorat, hurmat va ehtiromga ega bo‘lish;

E. Guruh rahbarining tashqi ko‘rinishi, odobi va muomala madaniyati.

11. Mehnatga oid maqollar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang:

A. Intilganga tole yor.

* * *

Sabrning tagi sariq oltin.

B. Ona bilan bola, gul bilan lola.

* * *

Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada.

D. Hurmat qilsang, hurmat topasan.

* * *

Sog‘ tanda, sog‘ aql.

E. Temir o‘tda toblanadi, odam mehnatda.

* * *

Mehnat — mehnatning tagi rohat.

Ish ishtaha ochar,

Dangasa ishdan qochar.

12. Ijtimoiy foydali mehnatga nimalar kiradi?

A. Jamoat ishi, o‘ziga o‘zi xizmat qilish, unumli mehnat;

B. Jamoat ishlariga va jismoniy maqsadlarga xizmat qiladigan mehnat;

D. Mehnatning majburiy turlari;

E. To‘g‘ri javob yo‘q.

13. Mashg‘ulot bosqichlari:

A. Tayyorlov, nazorat, shakllantiruvchi;

B. Asosiy, tayyorlov, tashkiliy;

D. Tayyorlov bosqichi, o'yinga kirish, asosiy taklif, o'zini o'zi baholash, muhokama, xulosalash;

E. Taklif, shakllantiruvchi, nazorat, namuna, xulosalash.

14. Ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari necha turga bo'lib olib boriladi?

A. Sakkiz turga;

B. O'n turga;

D. Besh turga;

E. Olti turga.

15. Oliyjanoblik — bu ...

A. Pedagogik mahorat, mantiqiy ijodkorlik;

B. Erkin fikrlash va o'z fikrini mustaqil bayon eta olish;

D. Hurmat, sokinlik, poklik, mehr-muhabbatlilik, g'urur, samimiy munosabat;

E. To'g'ri javob yo'q.

16. O'qituvchiga bo'lgan zamonaviy talablar, asosan, uch asosiy vazifalarni qamrab oladi. Ular:

A. Tarbiya tizimi, pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi;

B. Pedagogik mahorat, innovatsiya, amaliyot;

D. Fan bo'yicha, pedagogik mahorat;

E. Oldindan berilgan samara bilan mos ravishda o'qish jarayonini loyihalashtirish.

17. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Sinfдан va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi» nechanchi yilda tasdiqlangan?

A. 1992-yilda;

B. 1993-yilda;

D. 1994-yilda;

E. 1995-yilda.

18. Ulcha erur tilg'a shoista ish,

Bilki, kichiklikda erur parvarish.

Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,

El boshiga chiqquncha topdi sharaf.

Ushbu she'riy parcha muallifi ko'rsatilgan qatorni belgilang:

- A. Ahmad Yassaviy;
- B. Alisher Navoiy;
- D. Amir Temur;
- E. Gʻafur Gʻulom.

19. «*Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor boʻlishni bilishi lozim, u oʻzini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin*» deb yozgan edi ...

- A. A.S. Makarenko;
- B. A. Voljskiy;
- D. A.I. Mixenko;
- E. V. Kotov.

20. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 3.2-bandida nimalarga eʼtibor berilgan?*

- A. Oila, mahalla, oʻquv bilim yurti;
- B. Iqtisod, siyosat, madaniyat-maʼnaviyat;
- D. Taʼlim oluvchilarning oʻqishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratishga;
- E. Dasturlar, moddalar, konsepsiyalar.

21. «*Tarbiyaviy ishlar metodikasi*» fanining vazifalari:

A. Oʻquvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini oʻrganib, unga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish mahoratiga ega boʻlishi, tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, koʻzlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini koʻra bilish;

B. Xalqimiz yaratgan milliy urf-odat va anʼanalarni tiklash, «Qurʼoni Karim» va «Hadisi Sharif»dagi inson kamoloti haqidagi gʻoyalarni yoshlarga oʻrgatish;

- D. Adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-eʼtiqodni tarbiyalash;
- E. Barcha javoblar toʻgʻri.

22. *Inson tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi fan — bu ...*

- A. Psixologiya;
- B. Pedagogika;
- D. Tarix;
- E. Falsafa.

23. «Kishining ish joyi, idish-tovogʻi, ish qurollari — hammasi ozoda boʻlmogʻi kerak...». Ushbu ozodalikka taʼrif kimning qaysi asaridan olingan?

- A. Alisher Navoiy, «Mahbub ul-qulub»;
- B. Abu Ali ibn Sino, «Tib qonunlari»;
- D. Abu Rayhon Beruniy, «Mineralogiya»;
- E. Zahiriddin Muhammad Bobur, «Boburnoma».

24. Oʻzbek xalq oʻyinlari toʻgʻri yozilgan qatorni belgilang:

- A. «Zagʻizgʻon», «Ivanushka», «Chaviri», «Uloq»;
- B. «Estafeta», «Uchdi-uchdi», «Dzyu-do», «Chillak»;
- D. «Kim chaqqon?», «Durra», «Oq terakmi, koʻk terak?», «Zagʻizgʻon»;
- E. Barcha javoblar toʻgʻri.

25. Ertalik bayramlarini oʻtkazishga pedagogik talablar ...

A. Ertaliklarni oʻtkazishdan oldin bolalarning ruhiyati, qiziqishlarini uygʻota bilishda tarbiyachining tadbirkorligi lozim boʻladi;

B. Ertalik ssenariysini tuzganda, bolalar jamoasining tarbiyalangan jamoasini hisobga olish lozim;

D. Ertalik bayramlarini rejalashtirishda hamma bolalar maʼlum topshiriqqa ega boʻlishlari kerak;

E. Barcha javoblar toʻgʻri.

26. «Adolat — bu insonlarning bir-biriga yaxshilik koʻrsatishidir». Ushbu adolat haqida keltirilgan hikmat muallifi toʻgʻri yozilgan qatorni belgilang:

- A. Abdulla Avloniy;
- B. Husayn Voiz Koshifiy;
- D. Amir Temur;
- E. Alisher Navoiy.

27. Maktab oila bilan hamkorlikni ikki shaklda amalga oshiradi, yaʼni ...

- A. Ota-ona va mahalla;
- B. Mehnat jamoasi va ota-ona;
- D. Oila, mahalla jamoasi;
- E. Ota-onalar jamoasi va yakka ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar.

28. *Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘tkaziladigan suhbatlar mazmuniga ko‘ra, necha daqiqani qamrab olishi lozim?*

- A. 10—15, 20—25;
- B. 30—35, 40—45;
- D. 20—25, 30—35;
- E. 5—10, 15—20.

29. *«Topar bo‘lsang, topa qol» o‘yinining tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang:*

- A. Ko‘z bilan to‘g‘ri mo‘ljallashga;
- B. Sanash qobiliyatini mustahkamlashga;
- D. Kuzatuvchan, ziyrak bo‘lishga;
- E. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga.

30. *Qattiq yerdan qatlab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

Ushbu she‘riy parcha qaysi ertalikka tegishli?

- A. «O‘zbekiston Vatanim manim» ertaligi;
- B. «Hosil bayrami» ertaligi;
- D. «Gulchi qizlar» bayrami ertaligi;
- E. «Boychechakning ochilishi» ertaligi.

31. *Jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari:*

A. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi, birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi, majburiy mas’uliyat munosabatining yo‘lga qo‘yilishi;

B. Adolat va adolatsizlikning asriy ko‘rinishlari, insonning qilmishi, harakati, tili, muomala madaniyati, tashqi qiyofasida o‘z aksini topadi;

D. Jamoada bilim nihoyatda zarur;

E. Har bir jamoa shaxsi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish, tarbiyaviy ish rejasini tuzish.

32. *Bolalar dastlab «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini qayerda o‘zlashtiradi?*

- A. Bolalar bog‘chasida;
- B. Maktabda;
- D. Oilada;
- E. Mahallada.

33. «Har mamlakatda ziyorat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim... Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim». U o'zining pand-nasihatlarida ham yosh avlodni adolatli bo'lishga chorlaydi. Ushbu pand-nasihatlar muallifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang:

- A. Alisher Navoiy;
- B. Mirzo Ulug'bek;
- D. Amir Temur;
- E. Zahiriddin Muhammad Bobur.

34. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ...

A. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur;

B. Har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bepul ta'lim olish huquqiga ega;

D. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'z davlat ramzlariga ega: gerb, bayroq, madhiya;

E. Barcha javoblar to'g'ri.

35. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy muomala mahorati haqida shunday degan edi ...

A. «Suxandonlik birla baland martabali bo'lur»;

B. «Qo'pol muomala qilish, o'qituvchining izzati va obro'siga putur yetkazadi»;

D. «Muomala — bu insonlarning bir-biriga yaxshilik ko'rsatishidir»;

E. «Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisli asaldir».

36. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ...

A. Chuqur bilim egasi bo'lish;

B. Pedagogik mahorat;

D. Adolat bilan ish yuritish;

E. Chaqqonlik.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» nomli risolasida tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabatda bo'lish to'g'risida so'z yuritib, shunday degan edi...

A. Xalqimizning kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy — davlatning o'zi. Ma'naviyat — juda nozik tarbiyaviy soha, buni o'zbilarmonlikka tashlab qo'yib bo'lmaydi;

B. «Savob ishni har kim, har kun qilishi kerak»;

D. Qishloq joylarda sportni ommalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda yaqindan yordam berish;

E. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini yoshlar ongiga singdirish.

38. Axloqiy sifatni shakllantirishda, metod tanlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

A. Jamoa an'analariga, norasmiy liderlik, munosabatlarning muvofiqligiga, tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasiga;

B. Bola shakllanishi lozim bo'lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga ko'ra, yoshi, ruhiy aql-zakovatiga, ma'naviy dunyosi va faoliyatiga ta'sir etishga ko'maklashuvchi bo'lishi;

D. Yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashtirish, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida tarbiya vositasi hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari — maqol, naql, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an'ana, teatr, amaliy san'atdan foydalanish;

E. Barcha javoblar to'g'ri.

39. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» o'quv qo'llanmasining muallifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang:

A. E.G'. G'oziyev, B.R. Qodirov;

B. O.U. Hasanboyeva, G.J. Shomaribxo'jayeva;

D. N.M. Egamberdiyeva, M. Umarova;

E. D.R. Holiqov, K. Hoshimov.

40. Ertalik bayramlarini tashkil etish tartibi quyidagicha:

A. Mavzuning dolzarbligi va uning mazmunini rejalashtirish;

B. Mavzuning maqsadi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ertalik o'tkazish uchun jihozlar;

D. Ertalik oldidan uning tartibotini yozish (xalq og'zaki ijodiyotidan, bolalar yozuvchilari ijodidan namunalar keltirib, lapar, qo'shiqlardan foydalangan holda);

E. Barcha javoblar to'g'ri.

41. BMT tomonidan «Bola huquqlari» Konvensiyasi qachon qabul qilingan va u nechta moddadan iborat?

A. 1996-yilda, 38 moddadan iborat;

B. 1992-yilda, 56 moddadan iborat;

D. 1998-yilda, 54 moddadan iborat;

E. 1998-yilda, 58 moddadan iborat.

42. Ota-onalar bilan sinf majlisini o'tkazishdan maqsad:

A. O'quvchilardagi ijobiy va salbiy o'zgarishlardan ota-onalarni xabardor qilish;

B. Ta'lim-tarbiyaga oid muammolar bilan fikr almashish;

D. Har bir o'quvchi va uning oilasi haqida ma'lumotga ega bo'lish maqsadida;

E. Har bir ota-onalar majlisi keng qamrovli, ulkan maqsadga qaratilgan, turli shakllarda tashkil qilingan va majlis o'tkazish tartibi mavzuning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra o'zgarib boradi.

43. Bolalar bilan o'tkaziladigan ertalik bayramlarni turli-tuman shakllarda o'tkazish mumkin, ya'ni:

A. Uchrashuvli ertaliklar;

B. Ertalik va mavsumiy ertaliklar;

D. Bobolardan bolalarga ertaliklari va boshqalar;

E. Barcha javoblar to'g'ri.

44. Ma'naviyat — bu ...

A. Moddiy va iqtisodiy tushuncha;

B. Tarixiy va siyosiy tushuncha;

D. Insonning asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, u o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u tarbiyaning mahsulidir, ruhiy va aqliy olamining majmuasidir;

E. Dunyo yangiliklari haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish va bilimlarni mustahkamlash.

45. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning bosh omili qaysilar?

A. Vatanga muhabbat va vatanparvarlik, jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun), ota-onalar bilan ishlash;

B. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, ma'naviy, iqtisodiy, ekologik va estetik tarbiya;

D. A va B javoblar to'g'ri;

E. O'quvchilarning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish.

46. Ertalik — bu ...

A. Ilg'or ish tajribalari asosida ilmiy-nazariy jihatdan ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish;

B. Ko'pchilikning xohishiga ko'ra ishlab chiqiladi va tashkil etiladi;

D. Bolalarning yoshi, ruhiy holatlarini hisobga olgan holda ertalabki soatlarda o'tkazilganligi uchun;

E. Barcha javoblar to'g'ri.

47. *Hazrati Imom majmuyi qaysi shaharda joylashgan?*

- A. Samarqand shahrida;
- B. Asaka shahrida;
- D. Toshkent shahrida;
- E. Shahrisabz shahrida.

48. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi to'g'ri berilgan qatorni toping:*

A. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasi, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

B. Ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

D. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish;

E. Ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini isloh qilish.

49. *Barkamollikning namunasi ...*

- A. Mehr-muhabbat va oqibatlilik;
- B. Hunar, mehr-oqibatlilik;
- D. Saxiylik, mehribonlik, g'ururlilik;
- E. Vatanga muhabbat, Vatan tuyg'usi, g'ururi va uni sajdagoh sifatida ardoqlashdir.

TEST JAVOBLARI

T/r	To'g'ri javob	T/r	To'g'ri javob
1	E	26	D
2	A	27	E
3	A	28	A
4	E	29	D
5	D	30	D
6	A	31	A
7	D	32	D
8	B	33	D
9	E	34	A
10	B	35	E
11	E	36	B
12	A	37	A
13	D	38	E
14	A	39	B
15	D	40	B
16	D	41	D
17	B	42	E
18	B	43	E
19	A	44	D
20	D	45	D
21	A	46	D
22	B	47	D
23	D	48	A
24	D	49	E
25	A		

MUNDARIJA

Muqaddima	3
-----------------	---

1-bob. MAKTABDAGI TARBIYAVIY ISHLARNING ASOSIY MAZMUNI VA VAZIFALARI

1.1. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fani, uning maqsad va vazifalari	5
1.2. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi	11

2-bob. TARBIYAVIY ISHLARNING MILLIY VA NAZARIY ASOSLARI

2.1. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar — tarbiya asosi	18
2.2. Xalq og'zaki ijodi — bola tarbiyasida muhim vosita	26
2.3. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda islom ta'limoti manbalarining tutgan o'rni	31

3-bob. SINIF RAHBARI ISHINI TASHKIL ETISH METODIKASI

3.1. Maktabda tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi	44
3.2. Sinf rahbarining o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish metodikasi	49
3.3. Sinf rahbari ishini rejalashtirish	52

4-bob. JAMOADA SHAXSNI TARBIYALASH

4.1. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash	59
4.2. O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar	62
4.3. O'qituvchilarning o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usuli	67

**5-bob. BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA
TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH
YO‘LLARI VA VOSITALARI**

5.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida muhim sanalarga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish	72
5.2. Mavsumiy ertaliklarni tashkil etishda tarbiyachi mahorati	78
5.3. O‘quvchilar barkamolligini tarbiyalashda ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi tadbirlar ahamiyati	86
5.4. O‘quvchilar bilan musobaqa-o‘yin tarzida uyushtiriladigan tadbirlar	93

6-bob. OILADA BOLA TARBIYASI

6.1. Oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalash shart-sharoitlari	96
6.2. Oilada odob-axloq qoidalari va ota-onaning roli	101
6.3. Bola tarbiyasida milliy an‘analardan foydalanish	113

7-bob. MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGI

7.1. Maktab, oila va mahalla hamkorligi	120
7.2. Maktab, oila va mahalla hamkorligi Konsepsiyasi	127

8-bob. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB O‘QITUVCHISI VA O‘QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ QOIDALARINING TA‘LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI	134
--	------------

Test savollari	143
Test javoblari	155

OYSHA HASANBOYEVA, GULNORA SHOMARIBXO'JAYEVA,
SHOHISTA EGAMNAZAROVA, NARGIZA QAYUMOVA

**TARBIYAVIY
ISHLAR METODIKASI**

Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *I. Usmonov*
Rassom *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 20-oktabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16},
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabogʻi 10,0.

Nashr tabogʻi 9,0. 1560 nusxa. Buyurtma №

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy koʻchasi, 30-uy.
Shartnoma № 27 — 2013.

«PAPER MAX» xususiy korxonasi chop etildi.
Toshkent, Navoiy koʻchasi, 30-uy.

T23 **HASANBOYEVA O. va boshq. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.** Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma (2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2013. — 160 b.

UO‘K: 37.012. (075)
KBK 74.200.51

ISBN 978-9943-16-100-9